

**O'ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TEXNOLOGIYA FAKULTETI**

**KIMYOVİY TEXNOLOGIYA KAFEDRASI**

**"BOG'LANGAN AZOT TEXNOLOGIYASI"**

**fanini o'qitish bo'yicha**

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**

**Qarshi-2023 y.**

**O'ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TEXNOLOGIYA FAKULTETI**

**KIMYOVİY TEXNOLOGIYA KAFEDRASI**

**«Tasdiqlayman»**

**O'quv ishlari prorektori**

**dots.O.Bozorov**

**«\_\_\_\_\_» 2018 yil**

**"BOG'LANGAN AZOT TEXNOLOGIYASI"**

**fanini o'qitish bo'yicha 5320400 - Kimyoviy texnologiya (Noorganik moddalar  
kimyoviy texnologiyasi) bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun**

**O'QUV USLUBIY MAJMUA**

**Tuzuvchi: dots. Z.T.Ro'ziyeva**

Ushbu o'quv-uslubiy majmua 5320400 - Kimyoviy texnologiya (Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi) bakalavriat yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, noorganik va organik mahsulotlarni ishlab chiqish texnologik tizimlarining taxlili va ular elementlarini uzaro xarakatlariiga tayanadigan yuqori samarali kimyoviy texnologik jarayonlar va ular haqida fundamental bilimlari bayon etilgan. Shuningdek, Kimyoviy texnologiyaning maxsus boblari fanini o'rganish bo'yicha 5320400 - Kimyoviy texnologiya (Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi) ta'lim yo'nalishi uchun o'quv dasturi, ishchi dastur, ma'ruzalar matni, ta'lim texnologiyasi, ko'rgazmali taqdimot slaydlari, savol-javoblar, test savollari, ma'ruzalarda keltirilgan atamalarning glossariysi, tarqatmali materiallar jamlangan.

Mazkur o'quv-uslubiy majmua oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga qo'llanmadan o'qituvchilar, ilmiy xodimlar, aspirant va tadqiqotchilar, respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonlariga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tuzuvchi:**

**“KT” kafedrasi dotsenti**

**t.f.n. Z.T.Ro'ziyeva**

**Taqrizchi:**

**QMII dots. F.Suvanova,**

**QarDU dots. M. Qurbonov**

O'quv-uslubiy majmua “Kimiyoiy texnologiya” kafedrasining 2018 yil \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli, Texnologiya fakulteti Uslubiy komissiyasining 2018 yil  
\_\_\_\_\_ \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli, institut Uslubiy Kengashining 2018 yil \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli yig'ilishlarida ko'rib chiqilib tasdiqlangan.

## MUNDARJA

Kirish.....	5
1. Ma’ruza matni .....	6
2. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami, amaliy topshiriqlar, ishlanmalar .....	
2.1. Modul bo‘yicha keyslar to‘plami .....	
2.2. Modul bo‘yicha amaliy topshiriqlar.....	
2.3. Modul bo‘yicha ishlanmalar .....	
3. "Kimyiviy texnologiyaning maxsus boblari" fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma.....	
4."Kimyiviy texnologiyaning maxsus boblari" fanidan amaliy mashg'ulotlarini bajarish uchun uslubiy qo'llanma.....	
5. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar.....	
6. Ma’ruza yuzasidan taqdimotlar.....	
Xulosa va tavsiyalar .....	101
<b>Foydalangan adabiyotlar ro’hati.....</b>	104
<b>Glossariy.....</b>	106
<b>Ilovalar.....</b>	108

## KIRISH

**Asosiy maqsadimiz** – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini qat'iyat bilan davom ettirishdir. Barkamol shaxsga doir milliy-tarixiy tafakkur – sog'lom odam va ma'lum axloqiy normalar egasi, komil inson, idrokli va tafakkurli inson, ma'rifatparvar va ilmli odam, har tomonlama etuk va ilg'or inson kabi bosqichlarni bosib o'tgan bo'lmog'I darkor. Barkamol shaxs tushunchasining tarixiy dinamikasiga doir qarashlar inson – sog'lom inson – axloqiy inson – komil inson - ma'rifatli va ilmli inson – ilg'or inson - etuk inson – faol inson, va niyoyat, - barkamol inson kabi uzviy aloqador va o'zaro bog'langan kategoriylar majmuasidan iboratdir.

**"Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi"** – deb ta'kidalanadi Islom Karimovnnng "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch asarida". "Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq". Demokratik jamiyat qurilishni va uning taraqqiyotini ta'lim va tarbiya sohasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu ta'lim-tarbiya sohasini milliy madaniy meros va umumiyy e'trof etilgan demokratik prinsiplarga asoslanishi bilan bog'liq. Shu ma'noda bu sohada chuqur islohatlar amalga oshirildi.

Respublikamizda yuz berayotgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar yangi o'quv fanlarini kiritishda yangi ta'lim standartlarini ishlab chiqish ehtiyojinigina emas, balki o'qitish metodikasini o'zgartirishni ham talab qiladi. Shuningdek, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan barkamol avlod tarbiyasi vazifalarini amalga oshirish jarayonida tayyorlanayotgan kadrlarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Ta'lim jarayonida dars mashg'ulotlari o'qitishning interfaol usullaridan foydalanib tashkil etilsa, o'quvchi-talabalarning mashg'ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni yechimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo'lgan intilish yanada oshadi.

O'quv mashg'ulotlarini pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil etishda fan, texnika, texnologiyaning yutuqlari, respublikada joriy etilgan uzlusiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzlusizlikni ta'minlashi, oly ta'limda uzlusiz o'qitiladigan fanlarda mavzularning mantiqiy ketma-ketligi, oddiydan murakkablikka, xususiydan umumiyylikka o'tib borish tamoyillariga amal qilinishi shart. Mustaqillik tufayli O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishni amalga oshirilmoqda. Bunda ta'lim-tarbiya tizimi ham tubdan isloh etilmoqda.

**"Ta'lim to'g'risida"gi qonun,** "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish va yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasidagi islohotlarni amalga oshirishning nazariy-amaliy asosini tashkil qilib, kelgusida ta'limni yanada rivojlantirishning istiqbollarini belgilovchi tarixiy ahamiyatga molik hujjatdir. Bu hujjatlarda vatanimizning kelajagi bo'lgan yoshlarni voyaga yetkazish, ulardagi mavjud iste'dod va iqtidorni namoyon etishlariga alohida e'tibor berilgan, mamlakatimiz ta'lim tizimini isloh qilishning asoslari, tamoyillari va bosqichlarini belgilangan.

O'qitishda modulli yondashuvning dolzarbli. O'quv jarayonini to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini ta'minlovchi eng asosiy manba hisoblanadi. O'qitish jarayonida, pedagogik

texnologiyalar talablari asosida ifoda etilgan, o‘quv maqsadlariga erishiladi. O‘quv jarayoninig maqsadi uning zaruriy samaradorligini ta’minlash va talabalar tomonidan o‘qishning ko‘zlangan natijalariga erishishdir. O‘quv jarayonida dars mashg‘ulotlari o‘qitishning interfaol usullaridan foydalanib tashkil etilsa, o‘quvchi-talabalarning mashg‘ulot davomida faolligi oshadi, mustaqil fikrlash qobiliyatları rivojlanadi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, muammolarni yechimini eng maqbulligini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa ilm olishga bo‘lgan intilish yanada oshadi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM  
VAZIRLIGI**

**QARSHI MUHANDISLIK - IQTISODIYOT INSTITUTI**

**TEXNOLOGIYA FAKULTETI**

**KIMYOVIY TEXNOLOGIYA KAFEDRASI**

**"BOG‘LANGAN AZOT TEXNOLOGIYASI"**

**Faninidan**

**MA’RUZA MATNI**

## **Qarshi-2023 y.**

### **MUFTARIJA.**

	Kirish	
1.	Bog'langanazot texnologiyasi fani, vazifalari	
2.	Bog'langan azot birikmaları. Ammiak.	
3.	Ammiak ishlab chiqarish texnologiyasi.	
4.	Ammiak ishlab chiqarish qurilmalari.	
5.	Nitrat kislota.	
6.	Soda ishlab chikarish texnologiyasi	
7.	Mineral o'g'itlar olish texnologiyasi	
8.	Azotli o'g'itlar ishlab chiqarish texnologiyasi	
9.	Organik moddalar sintezi. Metanol ishlab chiqarish texnologiyasi	
10.	Karbomid ishlab chiqarish texnologiyasi	
11.	Foydalanilgan adabiyotlar	



## 1-Mavzu: Bog'langanazot texnologiyasi fani, vazifalari.

**Tayanch iboralar.** Texnologiya, xom ashyo, boyitish, ajratish, maydalash, tannarx, mexanizatsiya, avtomatlashtirish, uzlikli va uziksiz jarayonlar, texnologik operatsiya, gidpodinamika, diffyziya.



Texnologiya so'zi—yunoncha so'z bo'lib, ikki ildizdan, ya'ni 1-texnos-«san'at va kasb» degan ma'noni bildiradi. Logiya esa-bilim, fan demakdir. Shunday qilib, texnologiya-bu kasbning sirlarini o'rgatuvchi fanlardan biridir. Texnologiya xom ashylarni turli xalq iste'mol buyumlariga va ishlab chiqarish vositalariga aylantirish jarayonlarini o'rgatuvchi fandir.

Kimyoviy texnologiya- insonni xar xil ehtiyojini qondiradigan maxsulotlarni tabiat maxsulotlaridan yoki sun'iy yo'l bilan maxsulotni olish usullarini o'rganishdagi prikladnoy fan xisoblanadi. U ikki guruxga bo'linadi:




### 1. Mexanik texnologiya

Mexanik texnologiya jarayonida xom ashyo tarkibida va xususiyati o'zgarmasdan faqat uning shaklini o'zgarishi mumkin. Masalan: yog'ochdan mebel ishlash, metaldan turli metall buyumlari ishlash va xokozo.



### 2. Kimyoviy texnologiya



Kimyoviy texnologiyada esa, moddaning shakligina emas, balki uning butun hossalari va tarkibi o'zgarishi mumkin. Shunday qilib, kimyo texnologiyasi kimyo reaksiyalarini o'tishi bilan borgan jarayonlarni o'rganadi. Birorta xomashyodan mahsulot olish jarayoni bir qancha bosqichlardan iborat. Ushbu bosqichlar (masalan: xomashyoni boyitish, maydalash, ajratish, kuydirish va x.k.) texnologik operatsiyalar deb ataladi.

Mexanik texnologiyada maxsulotni fizikaviy va mexanikaviy usul Bilan uning tashqi kurinishini o'zgartirish. Masalan; metallarni eritish yoki ularga ishlov berish, payvandlash, kesish, maydalash ishlari.

Kimyoviy texnologiyada esa materiallarni kimyoviy jarayonlar orqali o'zgartirish natijada ularning tarkibi ham o'zgaradi. Masalan: ruda tarkibidan metallarni ajratib olish, sovun uchun yog'ni qayta ishlash, glitserin va steorin shular jumlasiga kiradi.

Bu ko'rsatkichlar bilan texnik ishlab chiqarishni chegaralab qo'yib bo'lmaydi. Chunki bir tomondan, ayrim mexaniktexnologiya Bilan ishlaydigan ishlab chiqarishda, materialning nafaqat tashqi ko'rinishi o'zgaradi, uning xususiyati ham o'zgaradi masalan ; metallni olish, ko'p hollarda kimyoviy jarayonlarning ta'sirisiz bo'lmaydi.

Birinchidan, ko'p hollarda materiallarini kimyoviy yo'l bilan qayta ishlash natijasida ularning o'zgarganini aniqlab bo'lmaydi masalan; matoni oqartirish va bo'yashda, terini oshlashda ko'rish mumkin.

Ikkinchidan, kimyo sanoatining ko'p qismi kimyoviy jarayoni mexanik texnologiya bilan uzviy bog'liq. Masalan; shisha sanoati, metallurgiya, temirchilik bularning hammasi mexanik jarayonlarsiz bajarib bo'lmaydi. Texnologiyaning o'zi bir san'at. U yoki bu jarayonlar yordamida kerak bo'lgan maxsulot tayyorlanadi.

Kimyoviy texnologiya qayta ishlanadigan maxsulotni tarkibika, xususiyatiga va xarakteriga qarab asosan ikki turga bo'linadi.

### 1. Noorganik moddalar texnologiyasi

### 2. Organik moddalar texnologiyasi

Materialning kelib chiqishiga va jarayon o'xshashligi, olinadigan maxsulotga qarab asosiy guruxlarga bo'linadi.

A) Rudalardan metallni ajratib olish (metallurgiya).

B) Kimyoviy maxsulotlar kislota, ishqor va tuzlar, soda ishlab chiqarish, suv texnologiyasi va sun'iy muz olish. Shu bilan birga asosiy guruxlarga yaqin va foydalanishiga qarb quyidagi maxsulotlar, mineral bo'yovchi moddalar, mineral o'g'itlar, sun'iy o'g'itlar, organik o'g'itlar, porx shular jumlasidandir.

S) Yer maxsulotlarini qayta ishlash; bularga, oxak ishlab chiqarish va sun'iy qurilish toshlari, shisha va loydan maxsulot ishlab chiqarish sanoati. Bularning hammasi noorganik moddalar texnologiyasiga kiradi.

Organik moddalar texnologiyasida asosiy ishlab chiqarish guruxlari quyidagilar;

A) Yonilg'i maxsulotlari: yog'och, ko'mir, torf, koks, neft va boshqalar.

Bu maxsulotlarni isitish, yoritish uchun ekspluatatsiya qilish, qayta ishlash va shu Bilan birga yonaki maxsulot olish.

B) Organik bo'yovchi maxsulotlar olish;

1. Tabiiy
2. Sun'iy

C) Tola maxsulotlari

1. Tola, mato va ipakni oqartirish, bo'yash.
2. Qog'oz ishlab chiqarish.

D) Uglevodlar;

1. Un, non, kraxmal, shakar va uning maxsulotlarini ishlab chiqarish.
2. Achitqi maxsulotlari, piva ishlab chiqarish, vino maxsulotlari ishlab chiqarish

E) Yog' mahsulotlari.

1. Sovin, glitserin, stearin ishlab chiqarish uchun yog'ni qayta ishlash.

F) Terini g'ayta ishlash, xayvon maxsulotlari ter iva suyaklarni qayta ishlash.

G) Sut maxsulotlarini qayta ishlash.

H) Efir yog'lari va smola ishlab chiqarish

Mana shu ishlab chiqariladigan maxsulotlar mexanik va kimyoviy jarayonlar maxsuloti xisoblanadi. Ularni o'rganish umuimy kimyoviy texnologiya fanining vazifasi xisoblanadi. Bu an orqali barcha jarayonlarni mukammal o'rganishingiz mumkin.

## **Kimyoviy texnologiyahihg maqsadi, vazifalari va ahamiyati**

Mypakkab ishlab chiqapishlarni boshqapish, tupli ishlab chiqarishlar texnologik tajribalarini umumlashtirish, bir ishlab chiqarishdan boshqasiga maqdadga muvofiq texnologik uslub va usullarni qo'llab o'tkazish uchun keng texnikaviy dunyoqarashga ega bo'lish, kimyoviy texnologiyaning umumiyligini qonununiyatlari hamda usullari - turlarini chuqur bilish zarur. Shyning uchun hozirgi vaqtida kimyogap - texnolog bakalavrlar taylorlashda kimyoviy texnologiya nazariy asoslarining ahamiyati ortib bormoqda.

Umumiyligini kimyoviy texnologiya kursi o'z oldiga kimyoviy jarayonlarni va asosiy peaksiya apparatlarini o'rganishni maqsad qilib qo'yadi.

U ikki asosiy qismidan tapkib topgan:

 1. Kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari.

By qismda kimyoviy texnologiyaning asosiy qonununiyatlari keltipiladi va kimyo canoatining xilma-xil tarmoqlarida qo'llanadigan kimyoviy jarayonlar hamda apparatlarning eng muhim turlari haqidagi ma'lumotlar bayon etiladi.

 II. Muhim kimyoviy ishlab chiqarishlar.

Mazkyr qismda birinchi qismda bayon etilgan katta halq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan ishlab chiqarishlar misolida umumiyligini printsiplar, qonununiyatlarning amaliy tatbiqi o'rganiladi.

Umumiyligini kimyoviy texnologiya kursining vazifasi kimyoviy texnologik jarayonlarning umumiyligini qonununiyatlarini o'rganish va ularni ma'lum bir ishlab chiqarishga amalda tadbiq etishdan iborat.

Kimyoviy texnologiyada ketadigan jarayonlar beshta asosiy gyryhga bo'linadi:

1. Gidpodinamik;
2. Diffyzion ( macca almashinuv);
3. Mexanik;
4. Icciqlik;
5. Kimyoviy.

 **Mexanik jarayonlar** -qattiq materiallarni mexanik kuch ta'sirida qayta ishslash bilan bog'liq. Bunday jarayonlarga saralash, uzatish, aralashtirish, maydalash kabilalar kiradi. Bu jarayonlarning tezligi qattiq jismlarning mexanik qonununiyatlari bilan ifodalanadi. Bunda harakatlantiravchi kuch vazifasini mexanik bosim kuchi yoki markazdan qochma kuch bajaradi.

Gidromexanik kuchlarga suyuq va gazsimon sistemalardagi harakat (aralashtirish, filtrlash, cho'ktirish) bilan bog'liq jarayonlar kiradi. Bunday jarayonlarning tezligi gidromexanika qonunlari bilan aniqlanadi. Gidromexanik jarayonlarning harakatlantiravchi kuchi gidrostatik va hidrodinamik bosimdir.

 **Issiqlik almashinish jarayoni** — haroratlar farqi mavjud bo'lganda bir (harorati yuqori) jismdan ikkinchi (harorati past) jismga issiqlikning o'tishidir. Bu guruhga sovitish, isitish, bug'latish, kondensatlash va sun'iy sovuq hosil qilish jarayonlari kiradi. Jarayonning tezligi gidrodinamik rejimga bog'liq holda issiqlik uzatish qonunlari bilan ifodalanadi, issiqlik jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi sifatida issiq va sovuq muhitlar o'tasidagi haroratlar farqi ishlataladi.

 **Modda almashinish-** bir yoki bir necha komponentlarning bir fazadan fazalarni ajratuvchi yuza orqali ikkinchi fazaga o'tishidir. Komponentlar bir fazadan ikkinchi fazaga molekular va turbulent diffuziyalar yordamida o'tadi. Shu sababli bu jarayonlar diffuzion jarayonlar ham deyiladi. Bu guruhga adsorbilash, adsorblash, suyuqliklarni haydash, ekstraksiyalash, quritish jarayonlari kiradi. Jarayonlarning igi fazalarning gidrodinamik harakatiga bog'liq bo'lib, modda o'tkazish qonununiyatlari bilan ifodalanadi. Modda almashinish jarayonlarining harakatlantiruvchi kuchi fazadagi konsentratsiyalarning farqi bilan belgilanadi.

**Mexanik, gidromexanik, issiqlik almashinish, modda almashinish** -kabi jarayonlar kimyoviy texnologik jarayonlarning elementlari bo'lib, ular «Kkimyoviy texnologiya jarayonlari va apparatlari» kursida, kimyoviy jarayonlar esa «Kimyoviy texnologiya» kursida o'rganiladi.

Kimyoviy texnologiyaning barcha jarayonlari ikkita: kimyoviy va fizik jarayonlarga bo'linadi. Kimyoviy reaksiyalar, kimyoviy texnologik jarayonlarning eng muhim bosqichidir. Kimyoviy texnologik jarayonlarni klassifikatsiyalashda kimyoviy reaksiyalarning oddiy, murakkab-parallel va murakkab ketma-ketlikka bo'linishi hisobga olinadi.

Kimyoviy-texnologik jarayonlarning ayrim sinflarini tavsitlashda reaksiyalar, reagentlarning o'zaro ta'sirlashuvini tipiga qarab ikkiga: oksidlanish-qaytarilish (gomolitik) va kislota — asosliga (geterolitik) bo'linadi. Kimyoviy reaksiyalar vamassa o'tkazish jarayonlari qaytar va qaytmas bo'lishi mumkin, shunga qarab texnologik jarayon ham farqqiladi.

Texnologik jarayonlarning klassifikatisyasida ularni optimallash uchun zarurbo'lgan texnologik rejim katta ahamiyat kasb etadi.

**Texnologik rejim deb-** jarayonning tezligi, mahsulotni unumi va sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar (parametrlar) yig'indisiga aytildi. Ko'pchilik kimyoviy-texnologik jarayonlar uchun rejimning asosiy parametrial: harorat, bosim, katalizatorlarni qo'llash va ulaming aktivligi, o'zaro reaksiyaga kirishuvchi moddalarning konsen-tratsiyalari, reagentlarning aralashtirish usullari kabilar hisoblanadi. Kimyoviy texnologik jarayonlarning ba'zi tiplari uchun rejimning boshqa, ko'pchilik kimyoviy-texnologik jarayonlarga xos bo'lмаган ko'rsatkichlari birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Masalan, elektrokimyoviy jarayonlar, tok kuchi va kuchlanish bilan, radiatsion kimyoviy jarayonlar esa qo'llaniladigan radiatsiya darajasi bilan tavsiflanadi.

Texnologik rejim parametrlari tegishli reaktorlarni konstruk-siyalash prinsiplarini aniqlab beradi. Texnologik rejim parametrlarining optimal qiymati, apparatlarning eng yuqori mahsuldorligi vajarayonlarda xizmat qiluvchi kishilarning mehnat unumdonligiga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham texnologik rejim parametrlarining qiymatlari va tabiatini, kimyoviy-texnologik jarayonlar klassifikatsiyasida asos qilib olingan.

**Texnologik sxema** - bu biror bir xom-ashyoga ishlov berish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish yoki tayor mahsulot ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan jaryonlarning birin-kinlik bilan amalga oshirilishining mashina uskunalarini ko'rsatgan holatidagi tasviri.

**Texnologik jarayon** – bir joyda, bir vaqt oraligida ishlov berilayotgan xom ashayoga ko'rsatilayogan ta'siri.

**Texnologik liniyaning unumdonligi** – vaqt birligida (bir soatda, bir smenada yoki bir sutkada) ishlab chiqarilgan mahsulotning maksimal miqdori.

**Texnologik rejim** – bu texnologik jarayonning xolatini son kiymatlari (harorat, namlik, bosim va boshqalar) orqali ifodalash.

**Xom ashyo balansi** – biror bir maxsulot ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar vaqtida mahsulotni miqdorini o'zgarishi (mahsulotni chiqitga chiqishi, yuqotishlari).

**Texnologik jarayonni strukturaviy sxemasi** – bu biror bir texnologik jarayonni yoki biror bir mahsulot ishlab chiqarishdagi texnologik jaryonlarni nomini birin ketinlik bilan yozib chiqish.

Kimyoviy texnologiyaning muhim vazifasi kimyoviy mah-sulotlarni ishlab chiqarishda u yoki bu kimyoviy reaksiyalarning borishi uchun qulay, optimal iqtisodiy samarali usullar va sharoitlarni qidirib topishdir.

Kimyoviy texnologiya xomashyoni kimyoviy qayta ishlashni boshqarish jarayonlarini, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni resurslar bilan ta'minlash va ishlab chiqarishdagi xavfsizlikni ta'minlash, parametrlarning (harorat, bosim, jarayon, konsentratsiya, xomashyoni qayta ishlash tezligi va boshqalar) optimal qiymatlarini to-pish, apparatlarni tayyorlash uchun materiallarni tanlash, jarayonning texnologik sxemasini yaratish va ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish kabi ishlarni bajaradi. Bulami amalgalashishda u kimyo va fizikaning asosiy (fundamental) qonunlaridan foydalananadi. Kimyo texnologiya tizimlari deganda, unda ketayotgan fizik-kimyoviy jarayonlar va ularni amalgalashishuvchi vositalar birgalikda tushuniladi. Shunday kilib KTT, kimyoviy jarayonni, u ketayotgan kuriplani, jarayonni nazorat va boshkarish vositalarini va ular orasidagi o'zaro boglikliklarni o'z ichiga olar ekan.

Masalan: reaktorda ketayotgan boshkariladigan kimyoviy jarayonni KTT deb karash mumkin.

Texnologik jarayonning ketishi bo'yicha informasiya birlamchi o'zgartirgichdan (BO') rostlagichga (R) uzatiladi, u o'z navbatida texnologik parametrning shu vaqtdagi qiymatini belgilangan qiymatdan farqiga qarab rostlash ta'sir signali ishlab chiqaradi va ijrochi qurilma (IK) orqali ob'ektga ta'sir ko'rsatadi.

KTT da ma'lum bir fizik kimyoviy jarayonni amalgalashishishda oshirish uchun, bizga aralashtirgichli reaktor va shu jarayonni boshqarish tizimi bo'lishi kerak.

Ushbu KTT tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lgani uchun, uning holatini kirish X va chiqish U signallari orqali baxolash mumkin. Kirish signali bo'lib odatda xomashyo, uning miqdori, tarkibi, temperaturasi va boshqalar bo'lishi mumkin. Chiqish signali bo'lib, tayyor mahsulot miqdori, uning sifati, teperaturasi va boshqalar bo'lishi mumkin.

KTTga odatda har xil turtkilar Z ta'sir ko'rsatadi va texnologik tizimni belgilangan sharoitlardan chiqaradi. Bu turtki ta'sirlarini kompensasiya qilish uchun, odatda boshqaruvchi ta'sirlardan foydalilaniladi.

### O'ZBEKISTONDA KIMYO SANOATINING ASOSIY KORXONALARI

Kimyo sanoatining asosiy korxonalari «O'zbekimyosanoat» davlat –aksiyadorlik kompaniyasi tarkibiga kiradi. Bundan tashqari kimyoviy mahsulotlar, xalq iste'mol mollari va boshqa turdagiligi kimyoviy texnologiya asosida mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud bo'lib, ular "O'zneftgaz" milliy xolding kompaniyasiga va viloyatlar hokimliklari boshqaruvi tarkibida faoliyat ko'rsatadi.

Birgina "O'zkimyosanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tarkibidagi korxonalarda 250 dan ortiq nomda mahsulot ishlab chiqariladi. Respublika sanoat mahsulotlari umumiyligi hajmida kimyo sanoati korxonalari mahsulotlarining hissasi 5,0% dan ortiqni tashkil etadi (2005). Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, fosforitlar, ohaktosh, texnik osh tuzi, shuningdek, rangli metallurgiya, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilari va bundan xom ashya tarzida foydalilaniladi.

O'zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xom ashyaning muayyan qismi hamda ehtiyyot qismlari va asbob-uskunalar chetdan olib kelinadi. Ayni paytda kimyo sanoati mahsulotlari (mineral o'g'itlar, paxta tsellyulozasi, kimyoviy tolalar hamda iplar, sintetik ammiak, sırka kislotosi, lok-bo'yoklar va boshka) eksport qilinadi.

O'zbekistonda boy xom ashya manbalari bo'lishiga qaramay XX-ylarigacha kimyo sanoati deyarli yo'q edi. 1910 yillarda ohak kuydirish, o'simlik bo'yog'i olish, oltingugurt iishlab chiqarish, ishqoriy moddalar tayyorlash, sovungarlik bilan shug'ullangan bir qancha kichik korxonalar (12 sovun zavodi, eftni haydash zavodi, 2 bo'yoq fabrikasi) bo'lgan.

Zamonaviy kimyo sanoatining shakllanishi 1932 y. qadimdan oltingugurt qazib olingan Sho'rsuv oltingugurt koni (Farg'ona vodiysi)ning ishga tushiri lishi bilan boshlandi. Kimyo sanoatining 1932 yildan qurila boshlagan eng yirik korxonasi Chirchiq elektr kimyo kombinati 1940 y. oktyabrdan mahsulot bera boshladi. 1940 yilda respublikaning jami sanoat mahsuloti hajmida kimyo sanoati hissasi 0,8% ni, kimyo sanoatida band bo'lgan ishchilar soni sanoat ishchilarining 1% ni tashkil etgan, kimyo sanoati hissasiga to'g'irlagan.

XX-asrning 70-yilariga kelib O'zbekistoda mineral o'g'itlar, o'simlak himoya qilishning kimyoviy vositasi sun'iy va sintetik iplar va biokimyoviy mahsulotlar; paxta lozasi, lok-bo'yoy mahsulotlari, texnika buyumlari; sintetik sitalari, neft kimyosi mahsul ishlab chiqaradigan qudratli sano xonalari qurildi va kimyo majmui tiddi. 90-yilar oxiriga kelib respublika kimyo sanoatida 1,7 mln. t mineralar, 2,8 mln. t sulfat kislota, 1,7 sintetik ammiak, 226 ming t yuvish vositalari, 154,9 ming t smola va plastik massalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Mineral o'g'itlar ishlab chiqarish respublika kimyo sanoatining asosiy talablaridan biri xisoblanadi. Respublika qishloq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan ammiak, selitra, karbamid, ammosof, ammoniy ) superfosfat, ammiak suvi, azotli va fosforli murakkab o'g'it ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

"Elektrkimyosanoat"(Chirchiq), Farg'ona "Azot" (1962) voiyazot" (1964) aktsiyadorlik asosiy turdag'i azotli o'p "Ammosof" (1969, Olmaliq) va "qandkimyo" (1954) aktsiyadorlik "Qo'qon superfosfat zavodi" qo'shma korxona - aktsiyadorlik ammosof, oddiy va qo'sh superfosfat kabi fosforli o'g'it ishlab chiqariladi.

Kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar hajmi respublika qishloq xo'jaligi ehtiyojlarini to'la ta'minlashi bilan birga bir qismi chetga ham chiqari 1994 y.da 26 mln. AQSh dollari mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy mahsulotlar eksport qilingan bo'lsa, yilda bu ko'rsatkich 60,72 mln. va 200' 74,02 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi sanoat ishlab chiqarishi fondining 7,4% o'g'itga bo'lgan yillik ehtiyojni ilmiy asoslangan me'yordarda qoplash bo'yicha respublikada Qashqadaryo viloyatidagi Tyubegatan kalyi tuzlari konlari negizida 200 ming.t/yil kalyili o'g'itlar (kalyili tuzlar) ishlab chiqaradigan "Dehqonobod kalyili o'g'itlar zavodi" 2010 yildan ishga tushdi.

Navoiy viloyatida topilgan fosforit konlari bazasida loyiha quvvati tarkibida 20-28% P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> bo'lgan 800 ming tonna fosforit mahsulotlari ishlab chiqaradigan Qizilqum fosforit majmuasi qurildi (birinchi navbat 1998 yilda ishga tushirilgan).

Sulfat kislota kimyo sanoati tarmoqlari uchun muhim xom ashyodir. Respublikada sulfat kislota ishlab chiqaradigan yirik quvvatli Chirchiq "Elektrkimyosanoat", Olmaliq "Ammosof" korxonalari, Navoiy va Olmaliq "Konmetallurgiya" zavodida "Sulfat kislota ishlab chiqarish" zavodi barpo etilgan, yiliga 1 mln. tonnaga yaqin sulfat kislota ishlab chiqariladi.

Soda sanoat ining Markaziy Osiyo mamlakatlari yagona bo'lgan korxonasi - Qo'ng'irot soda zavodi qurilishi 2002 yildan boshlangan (yillik loyiha quvvati 100 ming tonna kaltsinirlangan soda) va 2006 yil 1-yarmida ishga tushiriladi.

O'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari (defoliant, desikant, gerbitsid, insektitsid, fungitsidlar) Farg'ona "Azot", Navoiy "Elektrkimyozavodi" (O'zbekiston-Panama qo'shma korxonasi, 1976) aktsiyadorlik jamiyatlarida (gerbitsidlar - nitran, kotoran, kotofor, agrodarm, bronotak, insektitsidlar - fozalon, treflan va boshka) ishlab chiqariladi. Respublika qishloq xo'jaligida o'simliklarni kasallik va zararkunandalardan kimyoviy himoya qilishda qo'llanadigan oltingugurt kukuni Sho'rsuv kon-kimyo korxonasida hamda Sho'rtan gaz-kimyo majmuida ishlab chiqariladi (150 ming t dan ortiq; 2005).

Kimyoviy tolalar va iplar xilma-xil xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarishda keng qo'llanadi. Farg'ona kimyoviy tolalar zavodi (1959 yildan)da atsetat iplar, "Navoiyazot" aktsiyadorlik jamiyatida nitron akril tolalari (1974 yildan), Farg'ona "Azot" aktsiyadorlik jamiyatida tsellyuloza atsetati ishlab chiqariladi. Farg'ona furan birikmalarini kimyo zavodi (1946)da tsellyuloza mustaqilligini ta'minlash bo'yicha paxta lintidan yiliga 30 ming tonna paxta tsellyulozasi ishlab chiqaradigan ixtisoslashgan quvvatlar barpo etilgan (1998).

Respublika kimyo sanoatida 2005 y.da 5 ming t nitron, 250 tonna atsetat kimyoviy tola ishlab chiqarildi. Atsetat va nitron tolalarining deyarli 2-3 qismi respublikadan tashqariga jo'natiladi.

Farg'ona kimyoviy tolalar zavodida 23 ming tonna kaprolaktamni qayta ishlab 20 ming tonna kapron va atsetat iplari tayyorlashga imkon beradigan quvvatlar qurilgan (1995). Kimyo sanoatida gidroliz korxonalari 1945 yildan qurila boshlangan.

Farg'ona furan birikmalari (1946), Yangiyo'l biokimyo (1952), Andijon gidroliz (1953) zavodlarida asosiy xom ashya - chigit shulxasi, sholi qobig'idan texnik etil spirti, furfurol, furil spirti, ksilit, laprol, katalizatorlar va boshka mahsulotlar ishlab chiqarildi. 90-yillar boshidan bu korxonalarda g'alladan etil spirti ishlab chikarish o'zlashtirildi: Andijon biokimyo zavodida yillik quvvati 915 ming dal (1994), "Qo'qon" ishlab chikarish birlashmasida 1800 ming (1995) va Yangiyo'l biokimyo zavodida 915 ming (1996) etil spirti ishlab chiqaradigan yangi quvvatlar ishga tushirildi.

Natijada oziq-ovqat, tibbiyat, atir-upa va boshqa sanoat tarmoqlarini respublikaning o'zida ishlab chiqariladigan spirt bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Bu korxonalarda yiliga 4 ming t ga yaqin karbon kislotalari ham ish-lab chiqariladi. Spirt sanoati 2004 y.dan alohida sanoat tarmog'i sifatida shakllantirilmoqda.

Respublika Vazirlar Mahkamasining 2004 yilda 15 yanvardagi "Etil spirti ishlab chiqaruvchi korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida" qaroriga ko'ra "O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding" kompaniyasi tarkibiga kiradigan "O'zspirtsanoat" aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. Unga "Qo'qonspirt", "Andijon biokimyo zavodi", "Yangiyo'l biokimyo", "Toshkentvino", "Zarafshon" (Samarqand) aktsiyadorlik jamiyatlari kiradi.

Rezina mahsulotlari (engil avtomobil shinalari, sharqona rezina kalishlar, kislota va ishqorga chidamli zichlagichlar va boshka, xom rezina, rezina elim, elektr izolyatsiya lentalari, qo'lqoplar va boshka) Angren "Rezinotexnika" aktsiyadorlik jamiyatida (1994) ishlab chiqariladi.

Ilgari, asosan harbiy maqsadlardagi rezina mahsulotlari ishlab chikarishga ixtisoslashgan va tarkibiga Toshkent shaxridagi rezina mahsulotlari zavodi (1944) kirgan "O'zbekrezinotexnika" birlashmasi (1974) 1987 yildan xalq iste'moli tovarlari ishlab chikarishga o'tdi. 1992 yildan birlashmada engil avtomobil shinalarini tayyorlash o'zlashtirildi. 1996 yildan yiliga engil avtomobillar uchun 500 ming dona shina, 9 mln. juft kalishlar ishlab chiqaradigan quvvatlar ishga tushirildi.

Respublikada plastmassa va polietilen, polipropil mahsulotlari Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi (2001), "Jizzaxplastmassa" (1972), "Sovplastital" qo'shma korxonasida (1987), turli markadagi lok-bo'yoq mahsulotlari "Toshkent lok-bo'yoq zavodi" (1945) aktsiyadorlik jamiyatida, mebel sanoati uchun sintetik smolalar Farg'ona furan birikmalari kimyo zavodida (1946), ro'zg'or kimyosi mahsulotlari, Toshkentdaggi O'zbekiston-Kipr "Maishiykimyo" qo'shma korxonasi - aktsiyadorlik jamiyatida (1999), sintetik yuvish vositalari "Toshkent yog'moy" aktsiyadorlik jamiyatida, Rossiyaning "Kalina" kontserniga qarashli "Pallada-Vostok" sho'ba korxonasida ishlab chiqariladi.

Istiqlolda kimyo sanoatini rivojlantirish fosforit, tsellyuloza, kaustik va kaltsiy sodasi, kaliyli o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya vositalari, polimerlar kabi eng muhim xom ashya turlari bo'yicha respublikaning mustaqilligiga erishish, mahalliy xom ashydandan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish, chet mamlakatlardan olinayotgan kimyoviy mahsulotlarning asosiy turlarini respublikada ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash, ishlab chiqarishni avtomatlantirish, xorijiy texnologiyalardan foydalanish, ekologik muammolarni hal etish, kimyo sanoatining eksport imkoniyatlarini kengaytirish yo'nalishlarida olib boriladi.

Kimyo sanoati korxonalarida Xitoy, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Rossiya, Italiya firmalari bilan o'zaro fan-texnika, savdo sohalarida hamkorlik yo'lga qo'yilgan, xorijiy sheriklar ishtirotida qo'shma korxonalar tashkil etilgan. "O'zkimyosanoat" kompaniyasi tarkibida 4 ta qo'shma korxona faoliyat ko'ssatmoqda.

Respublika mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekistondagi kimyo korxonalari negizida 1991 yilda davlat kontserni tashkil etildi. 1994 yil martidan kontsern "O'zkimyosanoat" uyushmasiga aylantirildi. 2001 yil martida uyushma tugatilib, uning asosida "O'zkimyosanoat" davlat-aktsiyadorlik kompaniyasi tashkil qilindi va 2004 yil yanvarida kompaniya tarkibiy jihatdan qayta shakllantirildi. Kompaniya tarkibiga 29 ta korxona va tashkilotlar kiradi. Shu jumladan, 7 ta ochiq aktsiyadorlik jamiyati, 3 ta qo'shma korxona-aktsiyadorlik jamiyati va 3 ta davlat tasarrufidagi ishlab chiqarish

korxonalar; 13 ta "Qishloqxo'jalikkimyo" xududiy aktsiyadorlik jamiyatları, 2 ta ilmiy-tadqiqot va loyiha inshoatlari, 1 ta mas'uliyati cheklangan jamiyat bor. Kimyo sanoati sohasida -loyiha ishlarini uyushma tarkibiga kiradigan "O'zkimyosanoatloyiha" aktsiyadorlik jamiyatı (Chirchiq shaxri), Toshkent kimyoviy texnologiya davlat unitar korxonasi olib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 23 yanvaridagi "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq Qoraqalpokiston Respublikasi va respublikaning 12 ta viloyatidagi "Qishloq xo'jalik kimyo" hududiy aktsiyadorlik jamiyatları o'zining 100 dan ortiq bo'limlari orqali kimyo sanoati korxonalaridan etkazib berilgan mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalarga bo'lgan ehtiyojni rejlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilariga sotish hamda mahsulot uchun ishlab chiqarish korxonaları bilan hisob-kitob qilish ishlari bilan shug'ullanadilar.

Kimyo sanoati korxonaları uchun muhandis-texnik xodimlar Toshkent texnika universiteti, Toshkent kimyo-texnologiya, Qarshi muhandislok – iqtisodiyot institute, Farg'ona politexnika, Jizzax politexnika, Navoiy davlat tog'-konchilik, Toshkent to'qimachilik va engil sanoat institutlarida, Universitetlarning kimyo fakultetlarida tayyorlanmoqda. Yuqori malakali ishchilar va texnik xodimlar Toshkent, Qashqadaryo viloyati Qarshi shaxri, Chirchiq, Navoiy, Farg'ona, Qo'qon, Olmaliq, Samarqand va boshqa shaxarlardagi kollejlarda tayyorlanadi.

### Nazorat savollari.

1. Texnologiya so'zi nimadan olingan?
2. Texnologiya asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan kimyo sanoati korxonalarini sanab o'ting?

## **2-Мавзу: ЭЛЕМЕНТАР АЗОТНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИСИЯТЛАРИ ВА БОҒЛАШ УСУЛЛАРИ.**

**Режа:**

1. Азот бирикмаларининг аҳамияти.
2. Азот саноати хом ашъёлари.
3. Азотнинг айланиши.
4. Азотнинг физик-кимёвий хусусиятлари.
5. Элементар азотнинг боғлаш усуллари.
6. Калций цианамиди олишнинг ТошКТИ усули ҳақида.

**Таянч сўzlari:** Минерал ўғит, боғланган азот бирикмалари хиллари, аммоний шаклидаги азот бирикмалари, амид шаклидаги бирикмалар, нитрат шаклидаги бирикмалар, боғланган азот бирикмалари кўлами, азот саноати хом ашъёлари, атмосфера ҳавоси таркиби, элементар азот захираси, 1 кг боғланган азотни қишлоқ хўжалиги экинларига таъсири, элементар азот, азотнинг кислородли бирикмалари, азотнинг водородли бирикмалари, азотнинг валентлиги, суюқ азот ва кислороднинг қайнаш температуралари, азотнинг боғлаш усуллари.

### **АЗОТ БИРИКМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ.**

Улар халқ хўжалигига кенг қўлланилади. Қишлоқ хўжалигига суюқ аммиак, карбамид ва бошқалар минерал ўғит сифатида нитрат кислотаси, газ ҳолидаги аммиак, мудофаада, медицинада, нефть саноатида, металлургия саноатида ишлатилади.

Азотнинг бирикмалари уч хил шакlda бўлиши мумкин:

Аммоний формасида-аммоний сулфати  $(\text{NH}_4)_2\text{SO}_4$ ,

аммоний нитрати  $\text{NH}_4\text{NO}_3$  ва x.k.

Амид формасида-калций цианамиди  $\text{CaCN}_2$ , карбамид  $\text{CO}(\text{NH}_2)_2$  ва x.k.

Нитрат формасида-натрий нитрати  $\text{NaNO}_3$ , калий нитрати  $\text{KNO}_3$  ва х.к.

Қишлоқ хұжалиги учун азот ўғитларининг, калийли ва фосфорли ўғитларнинг аҳамияти катта. Айникса, картошка, қанд лавлаги, пахта ҳосилдорлигини оширади. 1 кг боғланган азот бирикмаси пахта ҳосилдорлигини 12 кг га, қанд лавлагини 160 кг га, картошкани 120 кг гача оширади.

1990 йилда 80 млн. тонна атрофида боғланган азот ишлаб чиқарылған бўлса, 2000 йилда 120 минг тонна ишлаб чиқарилиши мумкин.

### **АЗОТ САНОАТИ ХОМ АШЕЛАРИ.**

Азотнинг хом ашёлари сифатида авваломбор атмосфера ҳавосини кўрсатиш мумкиндири. Атмосфера ҳавоси асосан азот ва кислороддан иборатдир.

Қуруқ ҳаво таркиби:  $\text{N}_2$  - 78,09 %,  $\text{O}_2$  - 20,95 %,  $\text{Ar}$  - 0,93 %,  $\text{CO}_2$  - 0,03 %. Қолганлари неон, гелий, криpton,  $\text{H}_2$ , азонлардан иборатдир. Бу қуруқ ҳавонинг таркиби. Табиатда эса ҳар қайси геологик ерда йилнинг фаслига қараб, маълум микдорда сув буғи бўлади. Элементар азотнинг дунёдаги ҳаво таркибидаги заҳираси  $4,10^{15}$  т га тенг; 1 гектар ер юзига эса ўртача 80 минг тонна боғланмаган ҳолдаги элементар азот тўғри келар экан. Бу ерда азот боғланмаган ҳолдадир. Аммо азот табиатда қисман боғланган ҳам учрайди:  $\text{NaNO}_3$ -чили селитраси,  $\text{KNO}_3$ -хиндистон селитраси. Чақмоқ натижасида юқори температурада  $\text{N}_2 + \text{O}_2 = 2\text{NO} - Q$  га ўтади. Кейинчалик азот моноксиди  $\text{N}_2$  га, ёмир сувлари билан  $\text{HNO}_3$  га, ерга тушгач  $\text{Ca}(\text{NO}_3)_2$  га айланади.

### **АЗОТНИНГ АЙЛANIШИ.**

Инсоният элементар азотни ўзлаштира олмайди, чунки азот инертдир. Шунинг учун табиатда ҳар хил усуллар билан элементар азот боғланган азот ҳолатга айлантирилади. Уларни ўсимлик дунёси истеъмол қиласи, уларни эса ҳайвонат дунёси истеъмол қиласи, натижада инсонлар учун керак бўлган оқсил пайдо бўлади. Маълум бўлишича, инсон кунига 100 г ча оқсил истеъмол қилмоғи керак. Унинг таркибида 16 г азот бўлади.

Табиатда бу оқсил моддалар ҳам вақти келганда чириб, яна элементар азотга ўтиши мумкин экан. Шундай қилиб, азот табиатда йўқолмай доимо айланаб юрар экан.

### **АЗОТНИНГ ФИЗК-КИМЕВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Азот Д. И. Менделеев жадвалида 5-гурух, 2-қаторда, 7-ўринда жойлашган бўлиб,  $\text{N}_2$  нинг молекуляр массаси 28,013 у.б. га тенгдир. Азот атоми 7 электрондан иборат бўлиб, ундан 5 таси ташқи қобиқдадир.

Электрон булутлар тузилиши:  $1\text{S}^2 \ 2\text{S}^2 \ 3\text{P}^3$

Азот атоми иккита изотопдан иборат.

$^{14}\text{N}$  - 99,63 %

$^{15}\text{N}$  - 0,37%

$^{15}\text{N}$  да 1 нейтрони кўп.

Оддий шароитда инерт ҳолатдаги азот факат литий билан бирикиши мумкин. Азотнинг  $\text{O}_2$  билан қуйидаги бирикмалари бор:

$\text{N}_2^{+1}\text{O-N}(1)$  оксид,  $\text{N}^{+2}\text{O}$ ,  $\text{N}_2^{+3}\text{O}_3$ ,  $\text{N}_2^{+4}\text{O}_4$ ,  $\text{N}_2^{+5}\text{O}_5$ .

$\text{HNO}_2$  - нитрит кислотаси.

$\text{HNO}_3$  - нитрат кислотаси.

Азотнинг водород билан ҳам бир қатор бирикмалари бордир:

$\text{NH}_3$  - аммиак,  $\text{NH}_2\text{-NH}_2$  гидрозин (реактив ёқилғи сифатида ишлатилади),  $\text{N}_3\text{H}$  азот водородли кислота,  $\text{NH} = \text{NH}$  димиид,  $\text{NH}_2\text{OH}$  гидроксиламин ва бошқалар. Юқоридагилардан кўриниб турибдики,  $\text{N}^{+5}$  дан  $\text{N}^{-3}$  гача валентлиги ўзгариши мумкин экан.  $\text{N}^{+5}$  дан  $\text{N}^{-3}$  гача 8 электрон қабул қилипти ва N қайтарилапти. Элементар азотнинг критик температураси минус 147,16  $^{\circ}\text{C}$ . Қаттиқ азот икки хил - кубик ва гексагонал шаклда бўлиши мумкин. Критик босими 33,5 атмосферага тенг, уч хил ҳолатдагиси бир мувозанат ҳолатдаги ҳолидир. Атмосфера босимида суюқ азотнинг қайнаш температураси минус 195,8  $^{\circ}\text{C}$ . Қаттиқ ҳолатдаги азотни эриш температураси минус 209,9  $^{\circ}\text{C}$ . Табиатда энг паст ҳарорат минус 273,16  $^{\circ}\text{C}$ . Азотнинг

радиоактив изотоплари  $^{13}\text{N}$  ва  $^{16}\text{N}$  ҳам бордир. Нормал шароитда 1 г/мол азот гази 22,404 л ҳажмни эгаллади. Маълумки, нормал шароитда эса 1 атм. ва 0 °C.

## ЭЛЕМЕНТАР АЗОТНИНГ БОҒЛАШ УСУЛЛАРИ.

Улар 2 хилдир.


Биологик усул.

Техник усул.

Биологик усулга асосан дуккакли ўсимликлар (нўхат, мош, ловия)нинг илдизларида жойлашган микроорганизм ёки азот бактериялари орқали элементар азотни боғланган азотга ўтказиш жараёнинг айтилади.

Биологик усул билан жуда кам микдорда боғланган азот бирикмалари ҳосил булади. Масалан: 1 гектар жойда 50 кг атрофида биологик усул билан боғланган азот ҳосил булади. Аммо бу жуда ҳам кам микдорда булиб, усиг бора тган халк хужалигини боғланган азот бирикмаларида булган талабини кондира олмайди. Шунинг учун амалиётда асосан техник усул кенг кулланилади. Улар асосан 3 хилдир:

Ёй усули - Кевиндиш усули. Бунда элементар азот ҳаводаги  $\text{O}_2$  билан бирикиб азот монооксидини ҳосил киласди:



Бу эндотермик реакция бўлиб, иссиқлик ютиш билан кетади ва юқори ҳароратда 1300 - 1500 °C да кетади. Бу вактда NO нинг чиқиши жуда паст бўлиб, 3 - 4 % ни ташкил қиласди ҳолос. Бундай юқори ҳароратни ҳосил қилиш учун 2000 в кучланиш, 0,75 ампер ток кучи керак. Бундан кўриниб турибдики, бу кўп энергия талаб қиласди, иқтисодий жиҳатдан қимматдир. Бу ерда оптималь шароитлардан бири  $\text{N}_2:\text{O}_2 = 1:1$ , бу усул ҳозир бизда ҳам ва қўшни республикаларда ҳам ишлатилмайди.

2. Цианамид усули. Бу усулда 2 хил усул билан калций цианамиди ишлаб чиқилади.

а) Классик усул яъни карбидли усул. Бу усул Мейер томонидан 1878 йилда топилган.


б) Карбидсиз усул. Бу усул янги замонавий усулдир.

Карбидли усулга мувоғиқ  $\text{CaCN}_2$  куйидаги 3 хил реакция орқали ишлаб чиқарилади:


1000°C



2200°C



1100°C




Умуман олганда  $\text{CaCN}_2$  ни бу усул билан олиш катта энергия сарфи билан кетади. Бу эса  $\text{CaCN}_2$  ни сифатини пасайтиради. Тоза  $\text{CaCN}_2$  таркибида 34,99 % азот бор, бу аммоний селитрадаги азот микдорига tengdir. Калций цианамидининг молекуляр оғирлиги 80,01 углерод бирлигига tengdir.

Карбид усули билан олинган  $\text{CaCN}_2$  да таркибида кўумир қурими билан чиқсанлиги учун назарий жиҳатдан боғланган азотни микдори 27% бўлиши мумкин, аммо амалиётда 18-20% дан ошмайди, чунки реакцияга киришмай қолган калций карбиди, кокс, механик аралашмалар (кум, тузлар) ва ҳоказолар бўлиши мумкин: бу ерда 5-12%  $\text{CaC}_2$  бордир, чунки ҳаводаги сув буғи билан реакцияга киришиб, ацителенни ҳосил қилиши мумкин, бу модда ҳаводаги  $\text{O}_2$  билан портловчи аралашма ҳосил қилиши мумкин:



Аммиакли усул. Гебер ва Нернест томонидан 1904-1907 йилларда назарий жиҳатдан топилган:



Аммиак кўп моддалар олиш учун хом ашёдир. Аммиак таркибида боғланган азот энг юқори бўлиб 82,3% ни ташкил этади.

Юқорида кўрилган уччала усулдан ёй ва карбидли цианамид усул маҳсулотнинг чиқиш паст, кўп энергия талаб қилгани ва иқтисодий жиҳатдан қиммат бўлгани учун ҳозирги даврда дерли қўлланилмайди.

Шу муносабат билан элементар азотни боғлашнинг аммиакли усули ҳозир ва келажакда ҳам энг қулай ва кўп қўлланиладиган усул бўлиб қолади.

Аммо, шуни таъкидлаш керакки, аммиакни реакцияси буйича ишлаб чиқариш учун кўп микдорда тоза ҳолдаги элементар озот ва водород керакдир.

Биз юқорида кўриб ўтганимиздек, элементар азотнинг асосий хом ашёси-битмас туганмас атмосфера ҳавосидир. Шу муносабат билан биз сизлар билан бундан буён атмосфера ҳавосидан қандай қилиб элементар азот ва кислород ишлаб чиқариш масалаларини ўрганамиз. Бунинг учун амалиётда атмосфера ҳавосини азот, кислород ва бошқа компонентларга ажратиш усуллари қўлланилади.

### **КАЛЦИЙ ЦИАНАМИДИ ОЛИШНИНГ ТОШКТИ УСУЛИ ҲАҚИДА.**

Тошкент Кимё-технология институтида НМЭТ кафедрасида профессор Сигов С.А., доцентлар Лейкин З.М., Дайчи Р.И., Якубов Ш.А., асистент Пименова А.А., катта ўқитувчи Терехин Е.Л., доц. Мирзаев И.Т. лар иштирокида карбидсиз усуллардан бири - ТошКТИ усули бўйича калций цианамида олиш технологияси яратилган. Бу усулга мувофиқ калций цианамидини қўйидаги реакциялар бўйича олиш мумкин:



Бу реакция гетероген, қайтар, экзотермикдир.



Бу реакция ҳам гетероген, қайтар, аммо эндотермикдир.

Бу реакцияларда тоза CO ўрнига азот ўғитлари заводларида ҳосил бўлаётган чиқинди газлар:

CO - фракция (30-35% CO, қолгани азот ва водороддан иборатdir);

Ретур газлари - бу қайтарма газ бўлиб, унинг таркибида

60-65% CO, 5-7% аммиак, қолганлари метан, водород, азот, аргон, углерод диоксидилардир. Келажакда шундай газларни қўллаш кўзда тутилган. Шуни таъкидлаш керакки, бу иккала чиқинди аралашма ҳозирги вақтда заводларда ёкиб юборилаяпти; буни екиш учун эса табиий газ, доимо екиб турилади. Бу билан атроф-мухит заарларнади, иссиклик энергияси исроф булади. Бу реакциялар буйича 800°C да бир боскичда энергияни кам сарф килган холатда CaCN<sub>2</sub> олинади. Олинган махсулот ок ва дона-донадир. Олинган махсулот таркибида CaC<sub>2</sub> булмаганлиги учун портлаш ҳавфи йўқолади, дефолиция сифатида ишлатилганда пахта толаси ифлосланмайди. Карбидсиз усулни келажаги порлокдир.

CaCN<sub>2</sub> халк хужалигига кенг кулланилади. У тилла саноати учун энг зарур булган тиомочевина-(NH<sub>2</sub>)<sub>2</sub>CS ишлаб чиқаришда, медицинада дорилар ишлашда, металлургияда, кенг микёсда ишқорий угит сифатида ишлатилиши мумкин.

### **Назорат саволлари.**

1. Элементар азот ва унинг аҳамияти нимадан иборат?
2. Боғланган азот бирикмаларининг қандай турларини биласиз?
3. Боғланган азот бирикмаларининг халқ ҳўжалигидаги аҳамиятини ифодаланг.
4. Элементар азотнинг табиатда айланиши нимадан иборат.
5. Элементар азотнинг физик-кимёвий хусусиятлари ҳақида.
6. Элементар азотнинг захираси ва хом ашъёси.
7. Азот боғланган ҳолда табиатда қандай бирикмалар ҳолда учрайди.
8. Калций цианамиди олишнинг неча хил усулини биласиз?

### **3-Мавзу. АММИАКНИ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ АСОСЛАРИ.**

#### **Режа:**

1. Аммиакни физик-кимевий хусусиятлари.
2. Аммиакни ҳосил булиш реакциясининг статикаси.
3. Аммиак синтези жараенини кинетикаси.


#### 4. Аммиак синтези катализаторлари.

**Таянч иборалари:** Ле-Шателье принципи, циклик қурилма, адсорбцион назария, электрон назария, эффектив босим, инерт газлар, пулланувчи газлар, СА-1, СА-1В, дастлабки катализ.


#### **АММИАКНИ ФИЗИК - КИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Аммиак -  $\text{NH}_3$ , молекуляр оғирлиги - 17, у.б. тенг, нормал шароитда рангсиз, ўткір буғувчан хидли ва аччик таъмли, күз қорачигига яллиғланувчан таъсир этувчи газдир. Унинг физик хоссалари: суюқ аммиакни  $T_{\text{кайнаш}}=237,6 \text{ K}$ ,  $T_{\text{эриш}}=195,2 \text{ K}$ ;  $T_{\text{критик}}=405,4 \text{ K}$ ;  $P_{\text{критик}}=10,7878 \text{ MPa}$ ;  $V_{\text{мол.хажм}}=22,081 \text{ л}$  ( $273 \text{ K}$  ва  $0,1013 \text{ MPa}$  босимда);  $\rho_{\text{зичлик}}=0,77 \text{ г/см}^3$  ( $273 \text{ K}$  ва  $0,1013 \text{ MPa}$ ). Суюқ аммиакни буғланиш иссиқлиги (харорат ошиши билан камаяди).  $\lambda_{223}=415 \text{ кж/кг}$ ;  $\lambda_{273}=1260 \text{ кж/кг}$ ;  $\lambda_{323}=1056 \text{ кж/кг}$ .

1 л сувда 750 л аммиак эрийди. Оддий шароитда аммиак жуда турғун бўлиб  $1400 \text{ K}$  ва ундан юкорида сезиларли дарражада аммиак парчаланади:



Бу парчаланиш катализатор иштирокида  $570 \text{ K}$  ҳам бориши мумкин. аммиакни реакцияга киришиш қобилияти анча катта бўлиб, у бирикиши, алмашиниши ва оксидланиши мумкинdir:



#### **АММИАКНИ ҲОСИЛ БЎЛИШ СТАТИКАСИ.**

Синтетик аммиак қуйидаги гомоген, экзотермик қайта реакция бўйича ҳажм қамайиши билан (4 молдан 2 мол ҳосил буляпти) олинади:



Бу реакциянинг мувозанати Ле-Шателье принципига мувофик, хароратни пасайиши ва босимни ошириш билан унгга силжийди.

Аммиакни мувозанат шароитидаги микдори, % (x) да ҳар хил босим ( $1-100 \text{ MPa}$ ) ва хароратлар учун қуида келтирилгандир (1-жадвал).

1-жадвал. Аммиакни мувозанат шароитидаги газ аралашмасидаги микдори.

T, $^{\circ}\text{C}$	T, K	Босим, P, MPa				
		1	10	30	60	100
325	598	10,38	-	-	-	-
375	648	5,25	30,95	-	-	-
400	673	3,85	24,91	-	-	-
450	723	2,04	13,25	35,5	53,6	69,4
500	773	1,20	10,40	26,2	42,1	-
600	873	0,49	4,53	12,84	24,04	31,43
700	973	0,23	2,18	7,28	12,60	12,87

Бу жадвалдан кўриниб турибдики, аммиакнинг чикими босим ошиши билан ошайапти, аммо хароратнинг ошиши билан эса камаяпти. Аммиакни ҳосил бўлиши мувозанат доимий микдори:

$$K_{\text{мд}}^1 = \frac{1}{P_{\text{N}_2} * H_2^3} = \frac{P^2 \text{NH}_3}{K_{\text{мд}}}$$

$$K_{\text{мд}} = \frac{P_{\text{N}_2} * P^3 H_2}{K_{\text{мд}}}$$

$$P_{\text{NH}_3}^2$$

Бу ерда:  $\text{CH}_2$ ,  $\text{CN}_2$ ,  $\text{CNH}_3$  -  $\text{H}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{NH}_3$  ларни концентрациялари, % (x).

Маълумки  $\text{C}_{\text{H}_2} + \text{C}_{\text{N}_2} + \text{C}_{\text{NH}_3} = 100\%$  (x)

Концентрациялари (x). агарда хар бир газнинг улушли босимини унинг концентрацияси ва умумий босими орқали ифодаласак:

$$P_{\text{N}_2} = C_{\text{N}_2} * P / 100;$$

$$P_{\text{H}_2} = C_{\text{H}_2} * P / 100;$$

$$P_{\text{NH}_3} = C_{\text{NH}_3} * P / 100; \quad \text{бўлиб}$$

$$\text{у вактда: } K_{\text{м.д.}} = \frac{C_{\text{N}_2} * C_{\text{H}_2}^3 * P^2}{C_{\text{NH}_3}^2 * 10^4};$$

Бошқа томондан маълумки, стехиометрик шароитда:

$$C_{\text{H}_2}^3 : C_{\text{N}_2} = 3 : 1 = 3$$

$$\text{ёки } C_{\text{H}_2} = 3C_{\text{N}_2}$$

$$\text{у вактда: } 3C_{\text{N}_2} + C_{\text{N}_2} + C_{\text{NH}_3} = 4C_{\text{N}_2} + C_{\text{NH}_3} = 100\%$$

$$\text{Бу ердан } C_{\text{N}_2} = (100 - C_{\text{NH}_3}) / 4;$$

$$C_{\text{H}_2} = 3(100 - C_{\text{NH}_3}) / 4;$$

Бу қийматларни (28.11.) га қўйиб, у ердан  $C_{\text{NH}_3}$  ни топамиз.

$$C_{\text{NH}_3}^2 - 200 C_{\text{NH}_3} - (\sqrt{K_{\text{м.д.}}} C_{\text{NH}_3} / P) \cdot 10^4 = 0;$$

Р.Л.Додж ва А.Т. Ларсен ўз тажрибалари асосида  $K_{\text{м.д.}}$  нинг T га боғлиқлигини ифодаловчи изохори ( $v \propto \text{const}$ ) шароити учун қўйидаги эмпирик тенгламани топдилар:

$$\lg \sqrt{K_{\text{м.д.}}} = 2074.8/T + 2.4943 \lg T + \beta * T - 1.8564 * 10^{-7} * T^2 + I$$

$\beta$  ва I доимилари P га қараб топилади.

Назарий томондан ҳам жадвалдан кўриниб турибдики, амалиётда ҳам аммиак ишлаб чиқариш шароити ( $P=32$  МПа,  $T=723$  К) да стехиометрик шароитда азот ва водородни аммиакда тўлиқ айлантириб бўлмаслиги кўринади, чунки реакция ута қайтар. Шунинг учун аммиакни синтезини ёпиқ (циклик) курилмаларда олиб борилиб, умумий газ аралашмасини совутиб, ҳосил бўлган аммиакни (конденсатланиб) суюклантирилади, ажратиб олиниб, реакцияга киришмай қолган  $\text{N}_2 + \text{H}_2$  аралашмасини оралиқ газ сикувчи машина (циркуляцион компрессор) да аввалги босим (3.2 МПа) сиқилиб, унга шу босимдаги, янги  $\text{N}_2 + \text{H}_2$  аралашмасидан кушилиб, аммиак ишлаб чиқариш умумий циклга яна қайтарилади ва жараён узлуксиз равишда давом этдирилаберади.

## АММИАК СИНТЕЗИ ЖАРАЁНИ КИНЕТИКАСИ.

Газ ҳолатдаги азот ва водороддан аммиак синтези жараёни қаттиқ темир катализаторлари иштироқида сезирларли даражада тезлик билан кетади. Аммиак осил болиш механизмини тушунтиришда икки ҳил назариядан фойдаланиш мумкин:

- 1) адсорбцион назария;
- 2) электрон назария. Адсорбцион назарияга мувофиқ:
  - а) азот молекулялари темир катализатори сиртига адсорбцияланади;
  - б) адсорбцияланган азот молекулялари темир катализаторлари атоми билан реакцияга киришиб темир нитриди ( $\text{FeN}$ ) ҳосил килади;
  - в) водород молекуласи катализатор сиртидаги темир нитриди билан реакцияга киришиб,  $\text{Fe}_x\text{NH}$ :  $\text{Fe}_x\text{NH}_2$ ,  $\text{Fe}_x\text{NH}_3$  каби комплекс бирикма ҳосил килади;
  - г)  $\text{Fe}_x\text{NH}_3$  комплекси нейтрал бўлиб, ундан аммиак гази десорбцияланаб катализатордан ажралиб чиқади.

Катализни электрон механизми назариясига; бу механизм оксидловчи-қайтарувчи кетмакет механизм хилига кириб, бу назария аммиакни синтезида қатнашаётган водород электронларни донори (берувчи) ҳисобланиб, катализаторнинг металларига ва ундан ярим ўтказгич (промотор) беради. Азот эса электронлар акцептори (қабул қилувчиси) вазифасини ўтади, катализатордан бу электронларни олиб, юқори активликка эга бўлади. Тёмкин ва Пижов,

$\text{Al}_2\text{O}_3$  ва  $\text{K}_2\text{O}$  билан активлаштирилган темир катализаторида аммиак синтез қилиш кинетикасими ўрганиб, аммиак ҳосил бўлиш тезлиги қуидаги тенгламага бўйсенишини топдилар:

$$d\text{PNH}_3 / d\tau = K_1 * \text{PN}_2 * \text{PH}_2 / \text{PNH}_3$$

Бу ердан кўринадики, жараённи бошланиш қисмида  $\text{P}_{\text{H}_2} : \text{P}_{\text{N}_2}$  нисбати 3 га тенг эмас, балки 1,5 га тенг бўлишини тақозо этади.

Бу жараённи темир катализаторлари иштирокидаги ҳаёлий активланиш энергияси 58,61 кж / молдир. Аммиакни ҳосил бўлиш реакцияси (1) нинг иссиқлик эффицити Р ошиши билан ошиб боради:

$$P, \text{ МПа} = 0,1 \quad 10 \quad 30 \quad 60 \quad 100$$

$$Q_P, \text{ кж/мол} = 49,82 \quad 52,04 \quad 55,77 \quad 60,07 \quad 68,66$$

Хисоларга қараганда 1 % аммиак ҳосил бўлгандага ҳарорат 16 К гача ошар экан.

Аммиакни синтез қилиш тик минорада олиб борилади; унинг унумдорлиги  $1 \text{ m}^3$  катализаторига нисбатан:

$$g = 0,771 \text{ W d}_1 \text{G кг } \text{NH}_3 / \text{m}^3 \text{ кат.}$$

Бу ердан қўриниб турибдик, аммиак бўйича унумдорлик минорага келаётган газлар ҳажмий тезлиги W га, бу ерда ҳосил бўлаётган аммиакни улуши 1 га, реакция кетишидан ҳажм торайиши G га тўғри пропорционалдир. Аммиак синтезида, саноатда, ҳар хил босимга ҳар хил оптималь ҳажмий тезлик тўғри келади.

$$P = 29, 43 \text{ МПа} \quad 49,03 \text{ МПа}$$

$$W = 5000 - 30000 \text{ соат}^{-1} \quad 50000 - 60000 \text{ соат}^{-1}$$

Саноатда умумий босим Р эмас, балки эффицитив босим  $P_{\phi} = P(1-i)$  асосий аҳамиятга эгадир, чунки бошланғич  $\text{N}_2$  Қ  $\text{H}_2$  арлашмасида маълум микдорда инерт газлар:  $\text{CH}_4$ , Ач...лар бўлиши мумкин. i - шундай газлар улушидир. Бу инерт газларни циклик системада микдори ошиб кетиб, аммиак ишлаб чиқариш унумдорлигини пасайтириб юбориши мумкин. Шунинг учун саноатда, қурилмада циклик айланиб юрган,  $\text{N}_2 + \text{H}_2$  газ арлашмасини бир қисмини (5% - 10%) қурилмадан ташқарига чиқариб, танлаб турилади, ўрнига эса янги  $\text{N}_2 + \text{H}_2$  гази арлашмаси киритилади.

Инерт газларнинг бир қисми суюқ аммиакда қурилмадаги юқори босимларда физик эриши мумкин:  $\text{H}_2$  га нисбатан Ач - 2 марта кўп,  $\text{CH}_4$  - 3,5 марта кўп суюқ аммиакда эрийди ва бу инерталар суюқ аммиак узоқ вақт сакланадиган идишлар (танк) ларда тўпланади. Лекин бу чиқарилаётган газ таркибида  $\text{H}_2$ ,  $\text{N}_2$ ,  $\text{CH}_4$ , Ач ва аммиак ҳам бўлади. Бу эса:

- 1) Ҳавони ифлослантиради.
- 2) Аммиакни умумий таннархини оширади.


Келажакда бу ташланаётган танк газини  $\text{CaCN}_2$  ни ТошКТИ НМЭТ кафедраси ходимлари проф. С.А.Сигов, доц. Ш.А.Якубов ва бошкалар топган карбидсиз усулда олишда ишлатиш мумкинлар.

## АММИАК СИНТЕЗИ КАТАЛИЗATORЛАРИ.

Аммиани ҳосил қилиш жараёнини тезлатишда катализатор бўлиб темир, осмий, уран, молебден, марганец, волфрам ва бошқа металлари ишлатилиши мумкин. Катализаторга бўлаган катта талаблар:

- 1) узоқ вақт активлигини йўқотмаслик.
- 2) каталитик заҳарларга чидамлилик.
- 3) Юқори ҳароратга чидамлилик
- 4) солиштирма юзаси катта бўлиши
- 5) механик мустаҳкам ва арzon бўлиши кабилар қўйилади.

Шу талабларни кўпига темир катализатори жавоб беради. Бунинг учун магнитли темир- $\text{Fe}_3\text{O}_4$  ни  $\text{H}_2$  билан 570 - 670 К да қайтариб, таркибида  $\text{O}_2$  бўлмаган кубик кристал тузилишига эга бўлган Fe катализатори олинади.




Fe кристаллари ичидә бекарор Fe атомлари бўлиб, улар Fe катализаторининг умумий катализитик активлигини ҳосил қиласди. Fe катализатори кристаллари бир-бири ёпишиб қолиб, ўз активлигини камайтирмаслиги учун  $\text{Al}_2\text{O}_3$  дан иборат активатор (промотор) 4 % атрофида кўшилади. Катализаторни қирраларида ҳосил бўлган аммиакни умум газ таркибига ажратиб туриб, катализатор активлигини ошириш учун катализатор таркибига 2 % гача  $\text{K}_2\text{O}$  кўшилади.

Аммиак синтезида CA-1 типли оксидланган, CA-1B қайтарилиган, ГИАП томонидан ишланган катализатор ишлатилади.

CA - 1B катализатори минорали синтез аппаратда яна қайтадан водород билан қайтарилиши талаб қилмайди. Шунинг учун у CA - 1 катализаторига қараганда 5 - 8 кун беҳуда ишлашни камайтиради, гарчанд CA-1B катализатори 2 марта қиммат турса ҳам.

Синтетик аммиак ҳосил қиласдиган минорага азот водород аралашмаси билан бирга уни таркибида  $\text{O}_2$ ,  $\text{CO}$ ,  $\text{CO}_2$ ,  $\text{H}_2\text{O}$  (буғ) каби кислородли бирикмалар ҳам кириб, улар темир катализаторини заҳарлайдилар. Шунинг учун, бундай китслородли газлар суюқ азотда юттирилади ёки дастлабки катализ миқдорида 500 K ҳароратда хром никель катализаторларида ёки ишлатилган темир катализаторларида 670 K ҳароратда қуидаги реакциялар бўйича гидратланиб, тозаланади:



Метан темир катализатори учун заҳарли эмасдир, аммо метанни концентрацияси газ аралашмасида ошиб кетмаслиги учун (чунки метан инерт газ сифатида умумий фойдали босимни пасайишига олиб келади)  $\text{H}_2 + \text{N}_2$  аралашмаси вақти-вақти билан ташқарига хайдаб турилади,  $\text{H}_2\text{O}$  буғлари эса совитилиб конденсалланиб, ташқарига чиқазиб турилади.

### Назорат саволлари.

1. Аммиакни кандай физик-кимевий хусусиятларини биласиз?
2. Аммиакни чикишини купайтириш учун нима куллаш керак?
3. Нима учун аммиак синтез жараени циклик курилмаларда амалга оширилади?
4. Циркуляцион компрессорни вазифаси нимадан иборат?
5. Нима учун аммиак синтези жараенида циркуляцион газ аралашмасининг бир кисми доимий равишда атмосфера хавосига пулфанилиб келинади?
6. Аммиак синтезида кандай катализаторлар ишлатилади?
7. Аммиак ҳосил булишида неча хил механизмларни биласиз?
8. Аммиак синтези асосий катализатори нима ва уни тайерлашда кандай активаторлар кулланилади?
9. Аммиак чикишида хажмий тезлик кандай таъсир этади?
10. Аммиак синтезига инерт газлар таъсири кандай?
11. CA-1B катализаторидан, CA-1 катализаторини фарки нимадан иборат?

### 4-мавзу. АММИАК СИНТЕЗИ ҚУРИЛМАЛАРИ.

Режа:

1. Аммиак синтези қурилмалари хиллари.
2. Ўрта босимда ишлайдиган аммиак синтези курилмаси тасвири.

**Таянч иборалари:** циркуляцион газ, сепаратор, сувли совутгич, конденсация минораси, синтез минораси, Байпас гази, Филде кувурлари, сувли конденсатор, «Танк»лар, циркуляция компрессори.

### АММИАК СИНТЕЗИ ҚУРИЛМАЛАРИ ХИЛЛАРИ.

Улар қўлланилаётган  $\text{H}_2 + \text{N}_2$  аралашмасининг босимида қараб уч хилга бўлинади:

- 1) Паст босим (9-19 МПа) да ишловчи қурилмалари.
- 2) Ўрта босим (27-32 МПа) даги қурилмалари.
- 3) Юқори босимлар (44-98 МПа) да ишлайдиган қурилмалар.

Паст босимли қурилмалар кўпол, баҳайбат бўлиб, аммиакни аммиак-азотводород аралашмасидан конденсатлаб, ажратиб олишда қўшимча электр энергияси талаб қилгани учун кенг кўлланилмайдилар.

Катта босимда ишлайдиган аммиак ишлаб чиқариш қурилмалари хам кенг кўлланилмайди, чунки улар мураккаб тузилган ва қалин ясалган аппаратларни талаб қиласидилар.

МДХ ва чет элда кўп тарқалган қурилмалар - бу ўрта босимда ишлайдиган қурилмалардир. Ҳозирги вактда ўрта 29-34 МПа да ишлайдиган, бирламчи қуввати йирик, кунига 600, 1360 ва 1420 тонна синтетик қурилмалар кенг тарқалгандир.

Кунига 600 тонна аммиак ишлаб чиарадиган қурилмаларда тоза  $N_2 + H_2$  аралашмаси кўп максадли сикувчи машинада 33МПа гача сиқилиб, совук иссиқлик алмашгич қувирлари орқали ўтиб 290 К гача совиб (совиш жараёни сепаратордан чиқаётган совук газ ҳисобига бўлади) аммиакли буғлатгичга киради. (у ерда циркуляцион гази 270 К гача совутилади). Шуни таъкидлаш керакки, назарий жиҳатдан 1 тонна аммиак ишлаб чиқариш учун  $2633 \text{ m}^3$  азот водород аралашмаси керак, амалиётда эса бу миқдор  $2800-2900 \text{ m}^3$  ни ташкил этади.

## **ЎРТА БОСИМДА ИШЛАЙДИГАН АММИАК СИНТЕЗИ ҚУРИЛМАСИ ТАСВИРИ.**

Ўрта босимда ишлайдиган бундай қурилмалар Ўзбекистон Республикасида бир қатор корхоналарда кенг тарафлайдир.

Янги азот-водородни аралашма компрессор (10) дан 300-320 атм. босимда ёғ ажратги (5) га келиб, ундан дастлабки катализ минораси (9) га боради. Дастлабки катализ минораси (9) да азот-водород аралашмаси таркибидаги қолдиқ кислород углерод моноксиди, углерод диоксиди катализитик усул билан хром-никел катализаторида  $200-250^\circ\text{C}$  ёки аммиак синтезида ишлатилган темир катализаторида  $400^\circ\text{C}$  ҳароратда юкоридаги 28,20; 28,21 ва 28,22 даги гидридлаш реакциялари орқали метан гази ва сув буғлари ҳосил қилиб тозаланади.

Дастлабки катализ (9) минорасидан чиқкан азот-водород аралашмаси кейинчалик сувли совитгич (2) га юборилади. У ерда сув буғлари суюқликка ўтказилади ва у сув ажратгич (8) да газ аралашмасидан ажратилади. Кислородли биримлардан тозаланган азот-водород аралашмаси қурилмада айлануб юрган азот-водород аралашмаси билан аммиакли буғлатгич (7) га кириш олдидан аралаштирилади.

Буғлатгич (7) да газ аралашмаси -  $5^\circ\text{C}$  гача буғлатгич (7) нинг қувирлараро оралиғида суюқдан буғ ҳолига ўтаётган аммиак билан совутилади.

Бу ерда газ аралашмасидаги аммиак конденсатциаланади. Сўнгра газ аралашмаси конденсацион минора (6) нинг пастки қисмiga берилади; у ерда газ аралашмасидан суюқ аммиак ажратилади. Газ аралашмаси конденсацион минора (6) нинг сепаратор қисмидан ўтгач, бу миноранинг иссиқлик алмашгичли қисми қувирли қисмiga киради, бунга қарама - қарши бўлиб, тепадан қувирлараро оралиқдан ўтиб, буғлатгич (7) га келаётган газ аралашмасини совутади.

Конденсация минораси (6) нинг тепа қисмida чиқиб кетаётган таркибида 2: 3 % аммиак бўлган бу циркляцион газ аралашмаси  $\text{K } 30^\circ\text{C}$  гача исиб, аммиак синтези минораси (1) га юборилади.

Бу циркляцион газ аралашмасининг асосий қисми аммиак синтези минораси (1) нинг катализатор қутиси ва минора корпусининг ички девори орасидаги айланма бўшлиқ орқали, кейинчалик эса, миноранинг пастги қисмida жойлашган иссиқлик алмашгичининг ташки девори ва минора корпуси ички девори оралиғидаги айланма бўшлиқ орқали ўтади. Сўнгра циркляцион газ аралашмаси иссиқлик алмашгични қувурлараро оралиғига киради ва синтез минораси (1) нинг пастки қисмидан берилётган  $\text{K}30\%$  даги циркуляцион газ аралашмаси (байпас гази) билан аралашиб, катализатор қисмининг марказий қувури орқали тепага кўтарилиб, Фильде қувурлари ичидаги қисмiga киради.

Шундан сўнг газ аралашмаси ички ва ташқи Фильде қувурлари оралиғида пастдан юқорига кўтарилиб сўнг катализатор қисмига юборилади. У ерда азот ва водород 450 °С дан 300-320 атм. босимда реакцияга киришиб, аммиак ҳосил қиласи. Катализатор қисмидан чиқаётган азот - водород - аммиакли газ аралашмаси таркибида 14-16 % аммиак бор бўлим синтез минорасининг иссиқлик - алмашгичлик қисмининг қувурли қисмига кириб, ўз иссиқлигини пастдан қувурларо оралиқдан келаётган азот водород аралашмасига бериб, совуб, 180°С-200°С атрофида синтез минорасининг пастки қисмидан чиқиб кетади.

Сўнгра бу газ аралашмаси конденсатор (12) га юборилиб у ерда сув билан +35 °С гача совутилади ва бунинг натижасида газ қолдиғи аммиакнинг бир қисми конденсатланиб, суюқликка ўтади. Бу газ - суюқлик аралашмаси сепаратор (3) га юборилиб, аммиак синтези минорасида ҳосил бўлган аммиакнинг 60 % часи газдан ажратиб олиниб, омборхонага - танк (қалин деворли пўлатдан ясалган катта ҳажмдаги суюқ аммиак сақлагич) ларга юборилади.

Натижада (яъни ҳажм торайиши билан кетадиган синтетик амиак ҳосил бўлиш реакцияси содир бўлиши ва бир қисм аммиакли суюқ ҳолда циркуляцион системадан омборхонага чиқазиб юборилиши) умумий газ аралашмасининг босими 280-275 атм. босимгача пасяди. Шунинг учун, бу газ аралашмасини босимини яна 300-320 атм. га етказиш мақсадида сепаратор (3) чиқараётган циркуляцион газ аралашмаси мойланиб турадиган поршенли циркуляция компрессори (4) га юборилади. У ердан газ аралашмаси мат ажратгич (5) га, кейинчалик эса конденсация минораси (6) нинг қувурли оралиғига юборилади. Бу микдордан чиққач циркуляция гази аралашмаси газига яъни азот - водород аралашмаси қўшилади ва цикл бошқатдан қайтарилади.

Янги газ аралашмасининг циркуляция газ аралашмасига қўшиш жойи қўйидаги мuloҳазаларни эътиборга олган ҳолда амалга оширилади. Агарда азот - водород аралашмаси юқори тозаликка эга бўлиб, яъни унинг таркибида намлик, инерт газлар ва заҳарли газлар аралашмалари йўқ бўлса, яъни циркуляцион газ аралашмаси суюқ азотда ювулиб, тозаланган бўлса янги газ аралашмасини синтез минорасининг бевосита пастки қисмига берилади. Агарда циркуляция газ аралашмаси таркибида юқоридаги аралашмалар бор бўлса, яъни газ аралашмаси мисамиакли усул билан тозаланган бўлса, янги азот-водород гази аралашмаси азотда бирламчи ва иккиламчи аммиакли конденсациялаш аппаратлари оралиғига юбориш мумкинdir.

Суюқ аммиак биринчи сепаратор (3) ва конденсация минорасидан (6) кейин суюқ аммиак омборхонага юборилади. Буғлатгич (7) ҳосил бўлаётган аммиак буғлари сепараторга юборилиб у ердан суюқланган ҳолга ўтказадиган совутиш қурилмасига ёки аммиакни хом ашё сифатида ишлатадиган цехларга аммоний селитраси, аммоний сулфати) юборилади.

Циркуляция гази таркибидан аммиак ажратиб олинаверган сарф, уни таркибида аксинча, инерт газ (аргон, крептон, гелий ва ҳакозолар) микдори олиб келади. Бу эса умумий фойдали босими улушкини камайтиради, бу эса аксинча энергия сарфини ва аммиак таннархини оширади. Шунинг учун, бир қисм циркуляция гази доимий равишда баланд мўри орқали атмосфера ҳавосига ташлаб юборилади - масалан мой алмаштиргич (11) дан сўнг юборилади.

### **Назорат саволлари.**

- 1.Аммиак синтези қурилмалари асосан кайси технологик омилга караб хилларга булинади?
- 2.Уз Р киме корхоналарида кайси хилдаги синтез қурилмалари кенг таркалгандир?
- 3.Дастлабки катализ минорасида борадиган жараенни ифодалаб беринг?
- 4.Нима учун циркуляцион азот ва водород аралашмаси синтез минорасида унинг корпуси билан катализатор кутиси орасидаги бушликдан утказилади?
- 5.Байпас гази нима учун ишлатилади?
- 6.Янги азот водород аралашмасини қурилмага бериладиган жойи кайси омилларга бўглиқ?
- 7.Нима учун синтез минорасидан сунг циркуляцион газ аралашмаси босими камайди?
- 8.Қурилмадаги циркуляцион газ босимини дастлабки, яъни янги азот водород аралашмаси босимига етказиш учун кандай жихоз ишлатилади?
- 9.Синтез натижасида ҳосил килинган махсулот омборхонада кандай сигимларда сакланади?
- 10.Пуфланувчи газларни салбий томонлари нимадан иборат?

## **5-Мавзу: НИТРАТ КИСЛОТАСИ ХУСУСИЯТЛАРИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ АСОСЛАРИ.**


Режа:

- 1.Нитрат кислотасини физик-кимевий хусусиятлари ва кулланилиши.
- 2.Нитрат кислотаси ишлаб чиқариш усуллари.
- 3.Синтетик аммиакдан нитрат кислотаси ишлаб чиқариш.

**Таянч сұzlары.** Азеотроп аралашма, азот монооксиди, азот диоксиди, каталитик захарлар, азот монооксиди димери, ГИАП-1.

### **НИТРАТ КИСЛОТАСИНІ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ ВА ҚҰЛЛАНИШИ.**

Нитрат кислотасининг кимёвий формуласи  $\text{HNO}_3$  структура формуласи



нитрат кислотаси солиширма оғирлиги  $1,52 \text{ г/см}^3$  ( $288 \text{ K}$ ) га тенг, рангсиз, ҳавода тутайдыган суюқлиқдир. У  $232 \text{ K}$  ( $-41^\circ\text{C}$ ) да музлады. (кристалланади) ва  $359 \text{ K}$  ( $86^\circ\text{C}$ ) да қайнайды. Қайнаганда қисман парчаланади.



Ажралиб чиаётган  $\text{NO}_2$ , кислотада эриб уни сариқ-қунғир рангга бүйяди (ютилган  $\text{NO}_2$  ни миқдорига қараб). Сув билан  $\text{HNO}_3$  чекланмаган миқдорда аралашади ва аксинча  $\text{HNO}_3$  ни сувдаги күчсиз әритмасини буғлатғанда, у  $68,4\%$   $\text{HNO}_3$  гача суюқланади ва ундан ошмайди. Чунки бу вактда қайнаш ҳарорати  $394,9 \text{ K}$  га тенг бўлган азиотропик аралашма ( $68,4 \text{ HNO}_3$   $31,6\% \text{ H}_2\text{O}$ ) га эришилган бўлади.

Нитрат кислотаси кучли оксидловчидир. Қуюқ азот кислотаси платина, родий, иридий, тилладан ташқари барча металлар билан тегишли оксидлар пайдо қиласи. Агарда бу оксидлар  $\text{HNO}_3$  да эрийдиган бўлса, шу тегишли металларни нитратлари пайдо қиласи. Кузсиз темир  $\text{HNO}_3$  да темир яхши эрийди. Аммо қуюқ  $\text{HNO}_3$  темир юзасида юпқа, лекин зич, қуюқ кислотада эрийдиган парда ҳосил қиласи ва бу парда металлни бундан кейинги ёйилишидан сақлаб қиласи. Лабораторияларда зичлиги  $1,4 \text{ г/см}^3$  бўлган  $65\%$   $\text{HNO}_3$ , саноатда эса икки хил навли  $\text{HNO}_3$  ишлатилади:  $50\text{-}60\%$   $\text{HNO}_3$  ва қуюқлашган  $96\text{-}98\%$  ли  $\text{HNO}_3$  нитрат кислотаси асосан минерал ўғитлар нитрат тузлар, портловчи моддалар, бўёқлар ва бошқа моддалар олишда ишлатилади.

### **НИТРАТ КИСЛОТАСИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ УСУЛЛАРИ.**




Улар 3 хилдир.

- 1) 20 аср бошларигача  $\text{HNO}_3$  ни азотли ўғит  $\text{NaNO}_3$  (чили селитраси) га сулфат кислотаси таъсир эттириб олтинган:



Бу ҳолдаги  $\text{HNO}_3$  совутилиб, конденсатланиб,  $95\%$  ва ундан қуюқроқ  $\text{HNO}_3$  олинган.


- 2) 1904 йиллардан бошлаб, ёй усули бўйича  $\text{HNO}_3$  ни  $50\%$  ли әритмаси олинган. Бу 3 хил поғанадан иборатдир:




- 3) 20 асрнинг биринчи 10 йилидан бошлаб  $\text{HNO}_3$  ни аммиакдан олиш усули бошланган. Россияда бу усул 20 - аср бошларида И.И.Андреев томонидан мустақил равишда ташкил топган

ва 1916 йилда Юзовка (Донецк) шахрида  $\text{HNO}_3$  олиш бўйича биринчи завод қурилган. Бу усул дунёда энг кўп қўлланилмоқда. Кучсиз  $\text{HNO}_3$  ни аммиак орқали олиш усули асосан, 3 поғанадан иборат.

а)  $\text{HNO}_3$  оксидлаб азот 2 оксиди ( $\text{NO}$ ) ни олиш:



б)  $\text{NO}$  ни  $\text{NO}_2$  га оксидлаш:






в)  $\text{NO}_2$  ни сув орқали ютиш:



Чиқаётган  $\text{NO}$  яна оксидланади. Ҳозирги вақтда бу учта усулдан, охирги 3-чиси, яъни  $\text{NH}_3$  дан  $\text{HNO}_3$  олиш кенг тарқалгандир.

### **СИНТЕТИК АММИАКДАН НИТРАТ КИСЛОТАСИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ.**

$\text{NH}_3$  дан  $\text{HNO}_3$  ишлаб чиқариш уч буғиндан иборат бўлиб, биринчи буғини  $\text{NH}_3$  ни контактли икки поғаналик оксидлашдир. Бу оксидлашнинг бир - поғана жараёнда қуйидаги экзотермик реакциялар кетиши мумкин:




Бу реакциялар амалиётда қайтмасdir ва буларда жараённи умумий йўналиши реакциялар тезлиги нисбатига боғлиқdir. Катализатор қўлланилмаган тақдирда  $\text{NH}_3$  ни оксидланиш реакцияси йўналиш, яъни эркин  $\text{N}_2$  бўйича кетади. Агарда 523 К да марганецли катализатор қўлланилса реакция, яъни  $\text{N}_2\text{O}$  кулдирувчи газ ҳосил бўлади.  $\text{HNO}_3$  ишлаб чиқариш учун  $\text{NH}_3$  ни оксидланишини  $\text{NO}$  ҳосил қилиш, яъни 1-реакция бўйича амалга оширмоқ керак. Буни эса селектив мақсадга мувофиқ катализатор ишлатиш билан амалга оширилади. Бундай катализатор сифатида платина, кобалт, темир, хром ва бошқалар ҳар хил тегишли ҳароратда ишлатилиши мумкин. Аммо булардан ҳозирги кунга қадар энг активи платинали катализаторларидир. Улар саноатда аниқроғи контакт аппаратларида, диаметри 0,045-0,090 мм бўлган ингичка симли тўр сифатида ишлатилади. Агарда 0,090 мм сим бўлса, 1 см<sup>2</sup> тўрда 1024 дона катақчалар бордир. Одатда бундай катализаторлар тўплам - тўплам сифатида ишлатилади. Атмосфера босимида ишлайдиган қурилмаларда 3-4 тўрдан иборат тўплам, босим ишлатиладиган қурилмаларда 15-20 тўрдан иборат тўплам ишлатилади. Изланишлар қўрсатадики, таркибида платинадан бошқа элементлари бўлган ктализаторлар платинадан ҳам 2,5-3,5 % активроқ экан. Амалиётда ҳозир 93 % платина, 3 % родий ва 4 % палладийдан иборат сим тўрли ГИАП - 1 номли катализатор ишлатилади. Аммиакни реакция бўйича бир поғона оксидланиш тезлиги ва  $\text{NO}$  ни чиқиши ҳароратга, босимга,  $\text{O}_2 : \text{H}_2$  нисбатига боғлиқdir. Ҳароратни ошиши билан жараён тезлиги ҳам ошади ва атмосфера босими шароитида энг қулай ҳарорат 973-1073 К (600-800°C) дир. Аммо қурилмада босими ошиши билан қулай ҳароратдан ҳам бироз кўтарилади; агарда Р = 0,8 МПа бўлса, ҳарорат 1073-1200 К (800-900°C) ни ташкил этади. Бундай юқори ҳароратни бунёд этишда реакциянинг реакцион иссиқлик эффектидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлардикি, чунки оксидланаётган жараёнда тоза  $\text{O}_2$  ўрнига атмосфера ҳавоси қўлланилса, (21%  $\text{O}_2$  + 79% $\text{N}_2$ ) ва  $\text{O}_2:\text{NH}_3$  нисбати стехиометрик ( $\text{O}_2:\text{NH}_3=1,25$ ) нисбатда бўлса, аммиак ҳаволи аралашмадаги аммиак миқдори 14,4 % га teng. Аммо  $\text{NO}$  ни чиқиши  $\text{O}_2:\text{NH}_3$  нисбатга ҳом боғлиқ бўлиб, уни ошиши билан  $\text{NO}$  ни чиқиши ҳам ошади. Лекин бу вақтда аммиак ҳаво аралашмасида  $\text{NH}_3$  ни миқдори камаяди: Агарда  $\text{O}_2:\text{NH}_3 = 2$  бўлса  $\text{NH}_3$  нисбатга ҳам боғлиқ бўлиб уни ошиши билан  $\text{NO}$  ни чиқиши ҳам ошади. Лекин бу вақтда аммиак ҳаво аралашмасида  $\text{NH}_3$  ни миқдори камаяди:  $\text{O}_2:\text{NH}_3 = 2$  бўлса  $\text{NH}_3$  ни миқдори 95 % га teng бўлади, оптималь нисбат 1,7 га teng, бунда  $\text{NH}_3 = 12$  % бўлади. Бундай ҳолатда аммиак - ҳаво аралашмасини юқори ҳароратда бўлишини таъминлаш учун, бу аралашманинг контакт аппаратага киришидан олдин бир оз қиздирилмоқлик талаб қилинади. Лекин, ҳарорат жуда юқори бўлса 1173 К (900°C) дан юқори бўлса,  $\text{NO}$  ни чиқими пасаяди, сабаби  $\text{NO}$  ўрнига  $\text{N}_2\text{O}$  ҳосил бўла бошлайди.

Аммиакни оксидланиш жараёнини одатда атмосфера босими шароитида олиб борилади, чунки реакция ҳажм кенгайиши билан кетаяпти: 9 ҳажмдан 10 ҳажмга ошояпти. Аммо айрим

курилмаларда  $\text{NH}_3$  ни оксидланишни 0,7 - 0,9 МПа гача босим остида олиб борилади. Бу албатта оксидланиш жараёнини оширишга, қурилмаларини ихчамлаштиришга, унумдорликни, олинадиган  $\text{HNO}_3$  ни қўюқлигини оширишга олиб келади. Лекин босимни ошиши салбий воқеа-оксидланиш жараёнида қўлланилаётган қимматбаҳо платина катализаторини контакт аппаратидан газлар билан олиб чиқиб кетишни ҳам оширади. Агарда атмосфера шароитида платина олиб чиқиб кетиш 1 т  $\text{HNO}_3$  га ҳисоблаганда 0,05 га ташкил этса, 0,8 МПа да эса 0,2 граммни ташкил этади, яъни деярли 4 марта ошиб кетади, бу эса  $\text{HNO}_3$  акс таъсир этади. Платина катализатори 1,5 йилча хизмат қиласди. Платина заррачаларини ушлаб қолиш учун курилмада махсус филтрлар ишлатилади.

Платина сарфини камаайтириш учун ҳозирги пайтда оксидланиш 2 поғонада олиб борилаяти: катализатор қатлами юқорисида 1/3 микдорда платина катализатори, пастида донадор темир - хром катализатори 2/3 микдорда ишлатилса,  $\text{NH}_3$  ни 96 % га қадар  $\text{NO}$  га айланишига эришиш мумкин.  $\text{NH}_3$  ни ҳаво аралашмаси катализаторидан маълум (0,3 м/сек.) тезликда ўтмоғи керак. Бу вақтда аралашманинг платина катализатори билан учрашиш вақти 0,0001-0,0002 секундга тенг булади. Агарда аралашманинг катализатордан ўтиш тезлигини оширилса, бир қисм  $\text{NH}_3$  оксидланмай ўтиб кетиши мумкин, у вақтда элементар  $\text{N}_2$  пайдо бўлиб, курилмани унумдорлиги пасаяди ва  $\text{HNO}_3$  таннархи ошади:



Аммиак-ҳаво аралашмасида  $\text{NH}_3$ ни микдори амалиётда 13%дан ошмаслиги керак, акс ҳолда бу аралашма портлаш хавфига эга бўлиб қолади. Аралашмада  $\text{NH}_3$  неча % дан ошмаслиги бир қатор шароитларга боғлиқдир: босимга, сув буғи борлигига, хароратга, аппаратни ҳажми, газ кай томондан берилишига ва хакозоларга боғлиқдир.

Оддий атмосфера босимида  $\text{NH}_3$ ни портлаш чегаралари асосан 15,5%дан 26,5% гачадир. Тоза, қуруқ, сув буғисиз аралашма портламас экан. Саноатда, қурилмаларда, автоматик асбоблар портлашга йўл қўймаслик учун ишлатилади ва аммиакни микдори 11-12%дан ошмаслиги керак. Платина катализаторини узоқ вақт ишлаши аммиакни оксидлаш учун ишлатаётган ҳавонинг ва аммиакнинг тезлигига боғлиқдир: синтетик аммиак ўзи билан бирга темир аммиак синтези катализатори кукуни), ёғлар ва бошқалар, ҳаво эса уни қаердан олинишига қараб, ҳар хил чанглар ( темир, кум, фосфатлар ), газлар (ацетилен, хлор,  $\text{CO}$ ,  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{SO}_2$ ,  $\text{CH}_4$  ва хоказолар )ни қўшни цехлардан оли кириш мумкин. Платина катализатор фосфат бирикмаларига жуда сезирдир, айниқса, фосфорли водород  $\text{RH}_3$  0,00001% бўлса хам кайтмас кучли каталитик заҳардир, олтингугуртли бирикмалар эса кайтар заҳардир. Бу заҳарлардан тозалаш учун 10-15% хлорид кислота эритмаси билан 1-2 соатда платина катализатори ювилиб,  $\text{H}_2$  алангасида куритилиб, яна катализатор сифатида ишлатилиши мумкин.

Аммиакни юқорида келтирилган реакциялар бўйича оксидлашда бир қатор оралиқ бирикмалар платинада ҳосил бўлиши топилгандир;  $\text{NH}$ -имидогурх,  $\text{N}_2\text{H}_2$ -диимид, N-атомар азот,  $\text{NH}_2$ -амидогруппа,  $\text{HNO}$ -нитроксил,  $\text{NH}_2\text{OH}$ -гидроксиламин. Булар эса  $\text{NH}_3$ ни оксидланиш механизмига боғлиқдир. Мавжуд назариялардан бири, катализни адсорбцион-кимёвий назариясига кўра аммиакни оксидланишини қўйидагича тасаввур қилиш мумкин:  $\text{O}_2$  ва аммиак газ аралашмасидан платина юзасига диффузияланиб,  $\text{O}_2$ :  $\text{NH}_3 = 5:4 = 1,25$ , яъни стехиометрик нисбатда бўлганда, оксидланиш жараёни тезлигини платина юзасига  $\text{O}_2$ ни диффузияси асосан хал қиласди.

Агарда  $\text{O}_2$ ни микдорида камчиликни ташкил этса, оксидланиш жараёнида элементар  $\text{N}_2$  ҳосил бўлади. Агарда газда  $\text{O}_2$ ни микдори стехиометрик микдордан кўп бўлса, оксидланиш жараёнини белгиловчи бўғин бўлиб, кислород билан ўралган платини юзасига аммиакни тешиб ўтиш тезлиги ташкил этади.

Нитрат кислотаси олинишининг 2-буғини, яъни аммиакни оксидлашнинг 2-босқичи бу олинган  $\text{NO}$ (азот икки оксиди ёки азот моноксида) ни  $\text{NO}_2$ (азот тўрт оксида ёки азот диоксида) гача оксидлашдир. Бу куйидаги реакция бўйича кетиши мумкин:




Бу реакция амалий кайтар бўлгани учун, унинг мувозанати температура ва босимга боғлиқдир. Реакция ҳажм торайиб, иссиқлик чиқиш билан кетгани учун, Ле-Шателье

принципига мувофиқ, жараён мувозанати ҳароратни пасайиши ва босим ошиши билан ўнгта силжиди. Ҳарорат 423 К(150°C)дан паст бўлганда NO деярли тўлиқ NO<sub>2</sub>га ўтади ва аксинча ҳарорат 973К(700°C)дан юқори бўлса, NO<sub>2</sub>деярли тўлиқ равишда NO ва O<sub>2</sub>-га парчаланган бўлади.



Маълумки, деярли қўпчилик реакциялар тезлиги ҳарорат ошиши билан ошади. Аммо, NOни NO<sub>2</sub>га оксидлаш реакцияси тезлиги бу умумий қоидадан фарқли ўлароқ, ҳарорат ошиши билан, аксинча, камайади. Бунинг сабаби шундаки, NOни NO<sub>2</sub>га оксидланиши оралиқ маҳсулот - (NO)<sub>2</sub>-азот монооксидини димери ҳосил бўлиши билан кетади:



Бу реакция ҳам қайтар, гомоген ва экзотермиқдир. Ле-Шателье принципига мувофиқ, ҳароратни ошиши мувозанатни сапга бурилишига, яъни ҳосил бўлган димер (NO)<sub>2</sub>ни яна азот монооксиди NO гача парчалашга, яъни (NO)<sub>2</sub>ни чиқишини камайтиришга олиб келади. Бу эса ўз навбатида NO<sub>2</sub> ни қўйидаги реакция бўйича ҳосил бўлишини ҳам камайтиради:



ёки реакцияларни бирга ёзсан:



Шундай қилиб, NOни NO<sub>2</sub>га оксидлаш жараёнида ҳароратни ошиши нафакат NO<sub>2</sub>ни чиқишини камайтиради, балки бу жараённи тезлигини камайтиришига ҳам олиб келади, сабаби бу вактда оралиқ маҳсулот- димерни миқдори камаяди.


Рангсиз NOни оксидлаш натижасида нитроза газлари аста-секин қизил-қўнғир тусдаги NO<sub>2</sub>га ўтади. Агарда бу аралашма кейинчалик совутилса, уни ранги йўқола бошлайди, бу эса рангсиз N<sub>2</sub>O<sub>4</sub>(полимерланган, яъни NO<sub>2</sub>ни димери)ни ҳосил бўлишдан далолат беради:



қўнғир рангсиз






N<sub>2</sub>O<sub>4</sub>ни чиқиши 70°Cда 39,1%; 30°Cда-77,84%; 0°Cда 89%га teng. Бундан кўринадики, паст ҳароратда NO<sub>2</sub> гази асосан полимерланган N<sub>2</sub>O<sub>4</sub>дан иборат экан. Бу реакциянинг тезлиги анча каттадир. N<sub>2</sub>O<sub>4</sub>ни чиқишини ошириш учун ҳароратни пасайтириб, босимни оширмоқ керак.

Нитроза газлари таркибидаги NO(рангсиз) ва NO<sub>2</sub>(қўнғир) орасида қўйидагича N<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ни ҳосил бўлиш реакцияси ҳам бордир:



Бу реакция ҳам гомоген, қайтар, экзотермиқдир ва N<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ни чиқиши ҳароратни пасайтириб, босимини оширилса-ошади. Аммо, 0°C(273K)дан юқори ҳароратда бу реакциянинг мувозанати, асосан чапга силжиган булиб, N<sub>2</sub>O<sub>3</sub>ни миқдори нитроза газларида деярли жуда камадир.



Шундай қилиб, NO ни оксидланганда, асосан NO<sub>2</sub> ҳосил бўлар экан ва бу катализтик оксидланиш реакциясининг механизмини В.И.Атрошенко ўз ўкувчилари билан ўрганиб, қўйидагича таклиф этганлар:



Бу жамловчи реакциянинг тезлигини катализатор қўллаб, ошириш мумкин. Паст ҳароратларда абсорбцион хилдаги катализаторлар-синтетик цеолит, Н-эрионит «СКТД» номли активлантирилган кўмир, 0,7-2%миқдорида промотор сифатида ишлатилган индий, церий, галлийли катализаторлар қўлланади.

Юқори ҳароратли катализаторлар сифатида никел ва кобалт оксидларига цирконий, марганец, кумуш оксидлари қушиб ишланган катализаторлар NOни оксидланишини 250-300 марта тезлатади. Нитрат кислотаси олишнинг 3-бўғими-бу NOни оксидлашдан олинган азот

оксидларини сув ёки нитрат кислотасининг кучсиз эритмалари билан абсорбциясидир. Бунинг учун, нитроза газлари совутилиб, ютиш минораларига юбориладилар ва у ерда NO<sub>3</sub> бошқа азото оксидларигача оксидланиш ва ютилиш амалга оширилади:



Булардан иккинчи реакция тез кетади. NO гази сувда ютилмайди ва у билан реакцияга киришмайди. Лекин ҳосил бўлаётган нитрит кислота HNO<sub>2</sub>, жуда бекарор бўлиб, парчаланиб кетади:




у вақтда NO<sub>2</sub>ни ютилишининг умумий реакцияси:




Бу реакция гетероген, экзотермик ва қайтардир. Шунинг учун Ле-Шателье принципига мувофиқ, HNO<sub>3</sub>ни чиқишини ошириш учун ҳароратни камайтириб, босимни ошириш керак. Бу жараённи тезлигини оширмоқ учун эса, босимни ошириш, ҳароратни пасайтириш, кираётган газ таркибида NO<sub>2</sub> микдорини ошириш ва газлар билан сувли учрашиш юзасини ошириш керакдир. Шуни айтиш керакки, NO<sub>2</sub> сув билан реакцияси тезлиги, NO ни NO<sub>2</sub> гача оксидлаш реакциясига қарандан тезроқ кетади.

Бу эса абсорбция жараённи тезлигини пасайтиришга олиб келади, айниқса жараённи охирги қисмида, чунки юқоридаги реакцияга мувофиқ, реакцияга киришаётган NO<sub>2</sub> нинг 1/3 қисми NO ҳолида абсорбция натижасида ажралиб чиқади. Бу NO ни ташлаб юбориш мумкин эмас, чунки бу олинаётган HNO<sub>3</sub> нинг таннархини аклбовар қилмас даражада қимматлаштиришга ва атроф мухитни ифлослашга, аникроғи заҳарлантиришга олиб келади. Шунинг учун, бу NO, абсорбция миноралари ичидагита оксидланиши учун шароит, асосан, қўшимча ҳажм кўзда тутилмоғи шартдир, чунки 1 мол NO ни тўлиқ NO<sub>2</sub> га ўтказиб HNO<sub>3</sub> олиш учун назарий жиҳатдан 1,5 мол ҳажм керакдир:




$$V = 1 + 1/3 + 1/9 + 1/27 + 1/81 + \dots \approx 1,5 \text{ мол}$$

NO<sub>2</sub> ни яхши ютилишини таъминлаш учун ва уни сув билан кўпроқ учрашиши учун ҳозирги ютиш минораларида элаксимон (тўрсимон) лицобчалар(тарелкалар) қўлланиб, реакцион иссиқликни чиқариб туриш учун, яъни тарелкалардаги ҳароратни пасайтириш учун сувнинг совутгичлар ишлатилади. NO<sub>2</sub>ни ютиш натижасида реакция бўйича тўхтовсиз ҳосил бўлаётган NO<sub>3</sub>ни оксидлаш абсорбция жараённи охирроғида жуда камайиб кетади. Бу NO<sub>3</sub>ни оксидлаб, тўлиқ ютишга эришиш учун минорада жуда катта ҳажм керак, яъни минорани ҳажми жуда катта бўлмоғи керак. Бу эса HNO<sub>3</sub> таннархини ошириб юборади. Шунинг учун, атмосфера босимида ишлайдиган қурилмаларда бошланғич газдаги NO<sub>2</sub>ни 92-92% ютилгач, бу ютилмай қолган 7-8% NO<sub>2</sub> ишқорий эритмалар, масалан, сода эритмаларида ютилади:



Реакция натижасида чиқаётган нитрат ва нитрит эритмаларига HNO<sub>3</sub> таъсир эттириб, нитратлар нитритларга айлантирилади:



Бу ердаги NaNO<sub>3</sub> эритмаси буғлатилиб, кристалланиб, Na селитраси сифатида ишлатилса, NO эса ютиш минорасига қайта юборилади. Шундай қилиб минорага кираётган NO<sub>2</sub> умумий ютилишини 98,5% гача кўтарилади, NO<sub>2</sub>ни ютиш минораси ҳажми 3 маротаба кичиклашади, аммо нитрат кислотаси ишлаб чиқариш цехи таркибига қўшимча бўлим-нитрат эритмаларини ишлаш бўлими қўшилади.

Агарда NO<sub>2</sub> босимли ютиш минораларида 98,5% ча ютилса, қолган 1:2 NO, O<sub>2</sub> ва N<sub>2</sub> билан баландлиги 200 метрча келадиган чиқинди газлар қувури орқали ҳавога ташланади. Бунга ҳозирги вактда рухсат этиш мумкин эмас, чунки атроф-мухитни ифлослайди, заҳарлайди, қувур ҳам анчагина (2млн.сўмдан ҳам) қиммат. Шунинг учун, бундай чиқинди газдаги NO<sub>3</sub> заарсиз

газга айлантириш жуда зарур. 1-усул 670К гача қиздирилган нитроза газларини табиий газ билан каталитик оксидлаш:

- а)  $2\text{O}_2 + \text{CH}_4 = \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O} + 807 \text{ кж}$
- б)  $2\text{NO}_2 + \text{CH}_4 = \text{N}_2 + \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O} + 331 \text{ кж}$
- в)  $4\text{NO} + \text{CH}_4 = 2\text{N}_2 + \text{CO}_2 + 2\text{H}_2\text{O} + 443 \text{ кж}$

Бу ерда палладий қүшилган алюминий оксидли, платинали, хромникелли катализаторлар ишлатилиши мумкин. Бу усулни күп микдорда ( $130\text{m}^3\text{t HNO}_3$ га)  $\text{CH}_4$ ни микдорини  $\text{NO} + \text{NO}_2$  микдорига қараб, аниқ бермаслик натижасыда захарлы газ  $\text{CO}$ -углерод монооксида ҳосил бўлиши мумкин.

2-усул кам аммиак ёрдамида азот оксидларини каталитик кайтариш усулидир. Куйидаги реакциялар булиши мумкин:

- а)  $4\text{NH}_3 + 6\text{NO} + 5\text{N}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$
- б)  $4\text{NH}_3 + 3\text{O}_2 = 2\text{N}_2 + 6\text{H}_2\text{O}$
- в)  $3\text{N}_2 + \text{H}_2\text{O} = 2\text{HNO}_3 + \text{NO} + \text{Q}$
- г)  $4\text{NH}_3 + 5\text{O}_2 = 4\text{NO} + 6\text{H}_2\text{O}$

Аммо 570К да ва ( $\text{NO} + \text{NO}_2$ )ни микдоридан 30:40% аммиак күп сарфланганда (в) ва (г) реакциялар умуман кетмай, барча  $\text{NO}$  азотга айлантирилади.

### **Назорат саволлари.**

1. Нитрат кислотаси куюк эритмаси металларга кандай таъсир этади?
2. Нитрат кислотаси физик ҳусусиятларини ифодаланг?
3. Нитрат кислота олишнинг неча хил усулини биласиз?
4. Ей усули погоналарини реакцияларини езиб беринг?
5. Уз Р киме саноатида нитрат кислота олишнинг кайси усули кенг таркалган?
6. Аммиакли усулнинг асосий боскичлари кандай реакциялар билан ифодаланади?
7. Аммиакли оксидлашнинг реакцияларини езинг?
8. Азот монооксидини оксидлаш реакциясида катализатор кулланиладими?
9. Аммиакни оксидлаб азот монооксида ҳосил килиш учун кандай катализатор ишлатилади?
10. Кулдирувчи газ нимадан иборат?
11. Нима учун ҳарорат пасайтирилганда азот монооксидини оксидланиш тезлиги ортади?
12. Нима учун азот диоксидини сув билан абсорбцияси босим остида олиб борилади?
13. Нима учун 1 мол азот монооксидини абсорбция минора ичида азот диоксидига тулик оксидлаб, нитрат кислотасига утказиш учун минимум 1,5 мол оксидловчи хажм керак?
14. Аммиакли усул билан неча %ли нитрат кислота ишлаб чиқариш мумкин?
15. Ташландик азот оксидларини каталитик тозалаш усули кандай реакциялар асосида амалга оширилади?

### **6-Мавзу: НИТРАТ КИСЛОТАСИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҚУРИЛМАЛАРИ.**

#### **Режа:**

1. Кучсиз нитрат кислотаси ишлаб чиқариш қурилмалари хиллари.
2. Нитрат кислотасини юкори босимда ишлаб чиқариш технологик тизими тасвири.
3. Кучсиз нитрат кислоталарини куюлтириш.
4. Кучли нитрат кислотасини тугридан-тугри синтез килиш.

**Таянч сузлар:** аралаштиргич, контакт аппарати, қозон фойдалангич, оксидловчи аппарат, сеператор, абсорбцион минора, турбокомпрессор, реактор, мури, АК-72.

## **КУЧСИЗ НИТРАТ КИСЛОТАСИ ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КУРИЛМАЛАРИ ХИЛЛАРИ.**


Улар асосан уч хилга бўлиниши мумкин:

1. Атмосфера босимида ишлайдиган қурилмалар.
2. Юқори босимда ишлайдиган қурилмалар.
3. Арапаш босимли қурнилмалар (яъни бу ерда аммиакни оксидлаш атмосфера босимида азот оксидларини қайта ишлаб, кислотага айлантириш юқори босимда олиб борилади).


Ҳозирги вақтда МДХда 9% қурилмалар атмосфера босимида, 31% қурилма абсорбция босқичи 0,35МПа да ишлайдиган арапаш босимли қурилмалар; 54%-0,73МПа да ишлайдиган юқори босимли қурилмалар, 6% арапаш босимининг (аммиакни оксидлаш жараёни атмосфера босимида, азот оксидларини ютиш эса-юқори -1,1МПа босимда ишлатилади) қурилмалар. Узбекистон Республикасида асосан юқори ( $P=0,73\text{МПа}$ ) босимли ва арапаш юқори босимли ( $P_1=0,45\text{МПа}$  ва  $P_2=1,1\text{МПа}$ ) АК-72 хилдаги қурилмалар кенг тарқалгандир.

### **НИТРАТ КИСЛОТАСИНИ ЮҚОРИ БОСИМДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ҚУРИЛМАСИ ТЕХНОЛОГИК ТАСВИРИ.**


Атмосфера хавоси филтр (1)дан ўтгач, икки босқичли турбокомпрессор (2)га ўтиб, 7,3 атомгача сиқилиб, 3 қисмга бўлиниди: Ҳавонинг асосий қисми (тахминан 46 минг  $\text{m}^3/\text{соат}$ ) иссиқлик (6)га бориб, у ерда 470К ( $200^\circ\text{C}$ ) гача исиб, арапаштиргич (13)га киради. Суюқ аммиак омборхонадан буғлатгич (15)га юборилиб, у ерда сув буғи хисобига буғлатилади. Буғли иссиқлик алмашгич (14)да аммиак буғлари ҳам ишлатилиб, арапаштиргич (13)га берилади. Арапаштиргич (13)да ҳосил бўлган ва таркибида 11,5%гача аммиаги-аммиак ҳаво арапашмаси контакт аппарати (12)га юборилади. Бу контакт аппарати (12)да қуйидаги гомоген, амалий қайтмас ва экзотермик реакция кетади;



Бир технологик қурилмада бундай контакт аппаратидан иккита бўлиб, ҳар бирини диаметри 2,2метрга тенгdir. Контакт аппарати ичida устма-уст қўйилган 12та, асосан пластикадан ясалган, тўр жойлаштирилган. Ҳарорат 1200 К  $930^\circ\text{C}$  атрофида аммиакни тўла оксидланиш даражаси 96%гача эришилади. Ҳосил бўлган нитроза газлари шу контакт аппаратининг давоми сифатида уни пастки қисмiga жойлаштирилган қозон-фойдалангичга юборилади. У ерда нитроза газлари иссиқлиги хисобига босими 1,7МПа, ҳароратни 500К бўлган буғ олинади. Сўнгра нитроза газлари оксидловчи аппарат (11)га беради. У ерда азот монооксиди нитроза гази таркибидаги кислород билан реакцияга киришиб, азот диокси  $\text{NO}_2$  ни ҳосил қиласди:




Бу экзотермик реакция хисобига нитроза газлари янада исиди. Шу муносабат билан, нитроза газларини совутиш мақсадида, нитроза газлари ҳавони иситиш (6) ва совутгич (7)ларга юборилади, ва уларда 320Кгача совутилади. Бу вақтда нитроза газлари таркибидаги буғнинг асосий қисми конденсацияланиб, суюқликка ўтади. Бу вақтда қисман концентрация 40% бўлган нитрат кислотаси ҳам ҳосил бўлади:




Сўнг нитроза газлари сепаратор (8)га юборилади. У ерда ҳосил бўлган конденсат нитроза газидан ажратилади. Азот оксидлари деярли тўлиқ нитрат кислотасига айланнишига эришиш учун нитроза газлари абсорбцион минора (9)нинг пастки қисмiga юборилади. Бу миноранинг тепа қисмидан эса технологик сув берилади. Сепаратор (8)дан чиқаётган конденсат, яъни 40%лик нитрат кислота эритмаси абсорбцион минора (9)нинг ўртароғида жойлашган, тахминан 47%ли нитрат кислотаси ҳосил бўладиган лиқобга (тарелкага) юборилади. реакция гетероген

бўлгани азот оксидлари билан сувни учрашиш юзасини оширишга эришиш учун абсорбцион минора (9) ичida 50та турсимон лиқобга қўлланади. Тўрнинг диаметри 2мм, абсорбцион минора диаметри 3,2м, баландлиги эса 44м ни ташкил этади. Азот оксидларининг абсорбцияланиш даражаси 99-99,5%ни ташкил этади. Натижада концентрацияси 56-60% бўлган нитрат кислотаси олинади. Бу ҳосил бўлган нитрат кислотаси пулфлаш минораси (10)га юборилади. У ерда 0,73Мпагача сиқилган 400К ҳароратдаги атмосфера ҳавоси билан пулфланиб, нитрат кислотаси таркибидаги ошиқча физик абсорбцияланган  $\text{NO}_2$  газлари кислота таркибидан чиқазиб ташланади. Тозаланган бу нитрат кислотаси омборхонага, азот оксидлари эса абсорбцион миноранинг ўрта қисмига юборилади. Абсорбцион миноранинг таг қисмидан ҳам 400 ҳароратдаги сиқилган ҳаво бериб турилади, нитроза газларидан фойдаланиш даражасини оширишга эришиш учун. Реакцияга киришаолмай қолган нитроза газлари абсорбцион минора (9)дан аралаштиргич (5)га юборилади. У ерда турбокомпрессор (2)дан келаётган сиқилган ҳавонинг учдан бир қисми, сўнг табиий газ билан аралашиб, реактор (4)га юборилади. У ерда табиий газ ҳаводаги кислород билан экзотермик реакцияга киришади:



ва катта иссиқлик ажралиб чиқиш ҳисобига реактор ичидаги ҳарорат 100К гача кўтарилади. Натижада алюмо-палладий катализаторида азот оксидларини каталитик оксидлаш қўйидаги реакциялари амалга ошади:




Сўнгра бу заарсизлантирилган газлар газли таркибида кенгайтирилиб, 680К ҳароратда буғли қозон (3)га, у ердан эса мўри орқали атмосфера ҳавосига ташлаб юборилади. Каталитик заарсизлантирилган бу чиқинди, ташландиқ газ аралашмасидаги азот монооксиди миқдори жуда кичик-0,005% бўлиб, қурилманинг унумдорлиги нитрат кислотаси моногидрати ҳисобига кунига 360т/кун ташкил этади.


Хозирги вақтда Узбекистон Республикасининг корхоналарида унумдорлиги йирик 1100т/кун бўлган, комбинирований, яъни қўшалоқ босимда, яъни аммиакни оксидлаш 0,45МПа, азот оксидлари абсорбцияси 1,1МПа босимда амалга ошириладиган АК-72 типли нитрат кислотаси қурилмалари кенг тарқалгандир. Уларда ишлаб чиқарилаётган нитрат кислота концентрацияси ҳам нисбатан юқори; яъни 65%-гача боради.

### **КУЧСИЗ НИТРАТ КИСЛОТАСИНИ ҚЮЛТИРИШ.**

Ҳалқ хужалигининг бир қатор саҳоларида ва мудоафа мақсадларда нитрат кислотасининг юқори қуюқликдаги эритмасини ишлатиш билан боғлиқдир. Кучсиз нитрат кислотасини сувдаги эритмасини бевосита буғлатиш йули билан, унинг қуюқлигини 60-65%гача етказиш мумкинdir, амалиётда ундан ошириб бўлмайди, чунки у таркиб 68,4% нитрат кислота ва 31,6% сувдан иборат азиатрон таркибига жуда яқинdir. Шунинг учун, кучсиз азот кислотасига 93-95% сулфат кислота эритмаси (купорос мойи), магний нитрат тузининг 72% эритмаси ва бошқа Узига сув ютиб оловчи моддалар қўшиб нитрат кислотани кучини ошириш мумкинdir, чунки сулфат кислотани қайнаш ҳарорати нитрат кислотанинига қараганда анча юқоридир. Агарда нитрат кислота-сув-сулфат кислота аралашмаси 358К(85°C)да қиздирилса, буғ қатламда нитрат кислота буғлари, суюқликда эса сулфат кислота ва сув аралашмаси, яъни сулфат кислотани сувдаги эритмаси қолади:



Нитрат кислотани бундай қуюлтириш жараёнида, унинг бир қисми парчаланиб, азот оксидлари ҳосил қиласи, улар эса сулфат кислота билан нитрозил сулфат кислотаси  $\text{NH}_4\text{SO}_4$ ни ҳосил қиласи ва уни сув буғи билан парчалаб, сулфат кислота ва азот оксидлари ҳосил бўлади:




Саноатда азот кислотасининг кучсиз эритмасини сулфат кислота билан қуюлтириш барботаж тарелкали устунсимон минораларда амалга оширилида. Бу миноранинг юқорисидан чиқаётган нитрат кислота буғлари сувли совутгичларида суюлтирилиб, 98%-ли нитрат кислотаси олинади, 68%-гача суюлиб қолган сулфат кислота эритмаси денитрация жараёнидан кейин


буғлатилиб, 92-93%ли сулфат кислота олинади ва у қайта нитрат кислотани қуюлтиришда ёпик цикл равишда ишлатилади ва бу жараёнда сулфат кислотаны бир озгина қисми парчаланиб, йуқолиши мүмкін. Күчсиз нитрат кислотаны 72%ли магний нитрати билан қуюлтиришда сулфат кислота күллашга қаралғанда 30-40% капитал чиқимлар, кундалик чиқимлар ҳам камаяди ва таркибида сулфат кислота умуман булмаган нитрат кислота олинади.

### **КУЧЛИ НИТРАТ КИСЛОТАСИНІ ТҮҒРИДАН-ТҮҒРИ СИНТЕЗ КИЛИШ.**


Бу жараён суюқлантирилган  $N_2O_{4(c)}$ ,  $H_2O_{(c)}$  ва тоза  $O_{2(g)}$  иштирокида юкори 4МПа босимда 330-350К ҳароратда қуидаги реакцияга асосланғандир:



Бу ерда кетадиган бир қанча оралиқ реакциялардан бири:



Маълумки, NOни  $NO_2$ оксидланиш тезлиги, ҳосил булаёттан  $NO_2$ ни сув билан ютилиш реакцияси тезлигидан анча пастдир. Шунинг учун, жараённи 4МПага босим остида олиб борилса, NOни оксидланиш тезлиги ошади. Аммо түғридан-түғри синтез жараёнида босимни күллаш, ҳароратни оширишни ҳам талаб килади, чунки бу вактда  $N_2O_{4(c)}$ ни парчаланиб,  $NO_2$ ни ошишга олиб келади:



Бу эса  $NO_2$ ни сув билан ютилиб,  $HNO_3$ ни ҳосил қилишини оширади. Реакцияни яхши кетишини таъминлаш учун  $N_2O_4$ ни микдори қўпроқ бўлишни талаб қилинади, натижада 98-99%ли нитрат кислотаси эритмаси олинади.

Түғридан-түғри кучли азот кислотаси олиш технологик тизим бир биридан асосан суюлтирилган  $N_2O_4$ нинг қандай ва нимадан олингани билан фарқ килади; яъни :

- 1) Аммиакни оксидлаб олинган NOни яна оксидлаб олинганми ёки
- 2) Нитрат тузларини инверсияси натижасида чиқадиган газлардан олинганми.

### **Назорат саволлари.**

1. Нитрат кислотаси курилмалари кайси омилга караб хилларга булинади?
2. Нитрат кислота курилмасида атмосфера хавоси нима учун фильтранади?
3. Контакт аппаратида қандай жараен кетади?
4. Контакт аппаратида аммиак хаво аралашмаси юкори ҳароратда нима сабдан портлаб кетмайди?
5. Азот монооксида газини азот диоксида ва азот уч оксида газларидан визуал тарзда қандай ажратиш мүмкін?
6. Аммиак буглатгич аппаратида циркуляция газида қандай жараен кетади?
7. Абсорбцион минорада қандай жараен кетади?
8. Чикинди газларни азот оксидларидан қандай тозаланилади?
9. Нитрат кислотасини тугридан тугри синтези умумий реакциясини езинг?
10. Тугридан тугри синтез жараенида нитрат кислотасининг неча%ли эритмасини олиш мүмкін?

### **7-Мавзу: КАРБАМИД ИШЛАБ ЧИҚАРИШ АСОСЛАРИ.**

#### **Режа:**

1. Карбамиднинг физик-кимевий хусусиятлари.
2. Карбамидни олиш усууллари.

3. Карбамидни аммиак ва углерод диоксидидан синтез килиш асослари.

4. Карбамид синтезига таъсир этувчи технологик омиллар.

**Таянч иборалари:** Аммоний карбамати, цианамидли усул, циклик схема.

## **КАРБАМИДНИНГ ФИЗИК-КИМЁВИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.**

Карбамид-СО ( $\text{NH}_2$ )<sub>2</sub> нормал шароитда рангиз, хидсиз, кристаллари узун игнасимон ёки ромбик призма ҳолатдаги таркибида 46%гача амид шаклида боғланган азоти бўлган азотли ўғиттир. Молекуляр оғирлиги 60у.б.

Карбамид (мочевина) 406К (133°C)да оддий шароитда эрий бошлайди, зичлиги 1,335г/см<sup>3</sup>. Карбамид сувда ва суюқ аммиакда яхши эрийди. Карбамид узоқ муддат сақланганда ёки 0,5-1,0% намлик ва қайноқ ҳолда қопларга жойлаштирилганда унинг доначалари бир-бирига ёпишиб қолиши мумкин. Бу ёмон ҳолатни карбамидни жойлашдан аввал ундаги намликини 0,2:0,3%гача тушириш ва кристалл ҳолдаги карбамидни совутиб олиш керак.

Карбамид кучсиз асос хоссасига эгадир. Диссоциацияланиш доимийси  $1,5 \cdot 10^{-14}$ га тенгdir. Карбамид фосфор кислотаси билан СО( $\text{NH}_2$ )<sub>2</sub>\*H<sub>3</sub>PO<sub>4</sub> каби карбамид фосфати ҳосил қиласи, бу эса мураккаб ўғит ишлаб чиқаришда ишлатилади. Карбамиддан меламин-С<sub>3</sub>N<sub>6</sub>H<sub>6</sub>, юқори молекуляр бирикмалар, улардан эса пластмассалар, лаклар, ёпишқоқ моддалар олишда ишлатилади. Карбамид доначалари узоқ вақт сақланса, бир-бирига ёпишиб, ҳар хил катта-кичик шаклдаги қаттиқ модда ҳосил қиласи. Карбамидни қора молга оз миқдорда ем сифатида ҳам ишлатиш мумкин.

## **КАРБАМИДНИ ОЛИШ УСУЛЛАРИ.**

Карбамид биринчи марта кимёвий модда сифатида 1773 йилда И.Руэлл томонидан топилган. 1828 йилда Ф. Велер томонидан аммоний цианатдан карбамид синтез қилинган:

1868 йилда рус олим А.И.Базаров карбамидни тўғридан-тўғри CO<sub>2</sub> ва NH<sub>3</sub> дан 20МПа босим 430К ҳароратда синтез қилишни топди:





аввало карбанат ҳосил қиласи:



Бу реакция гетероген, қайтар, экзотермикдир. Реакция мувозанатини ўнгга буриш учун, босимни ошириб, ҳароратни пасайтириш керак. Аммо, реакция тезлигини ошириш учун эса ҳароратни оширмоқ керак реакцияни икки погонаси яъни олинган аммоний карбамати эритмасини дегитрация қилинади:



Бу реакция гомоген, қайтар ва эндотермикдир. Ҳозирги вақтда бутун дунёда карбамидни тўғридан-тўғри аммиак ва CO<sub>2</sub>дан синтез қилиш усули кенг тарқалгандир. Авваллари карбамидни калций цианамидидан кислотали мұхитда ҳам олишган:



## **КАРБАМИДНИ АММИАК ВА УГЛЕРОД ДИОКСИДИДАН СИНТЕЗ КИЛИШ АОСЛАРИ.**

Агарда карбамидни тўғридан-тўғри CO<sub>2</sub> ва аммиакдан синтез қилишни иккала погонаси, яъни ва реакциялар бир минарова бир вақтда амалга ошириладиган бўлса, аммоний карбанати Ҳосил бўйиш иссиқлиги, уни дегидратланишидаги эндотермик самарасини қоплаб, қолган иссиқлик эса ҳосил булаётган умумий суюқликни маълум даражада иситишга сарф бўлади. Реакция одатда жуда тез ва деярли охиригача боради. Аммо реакция жуда секин бориб, суюқ

холатда кетиб, қайтар бўлиб, карбамидни ҳосил бўлиш чикишини ошириш учун Ле-Шателье принципига мувофиқ ҳароратни оширмоқ керақдир. Агарда қаттиқ қиздирилса, карбамид парчаланиб кетиши мумкиндири:



ёки қайтадан  $\text{CO}_2$  ва аммиакка парчаланади. (2)-реакция натижасида ҳосил бўлган аммоний карбаматига сув билан таъсир эттирилса, аммоний карбанати ҳосил бўлади:



Аммоний карбанати суюқ аммиакда ҳам кам эрийди. Карбамидни синтез қилишда ажралиб чиқаётган сув аммоний карбанатни эриш ҳароратини пасайтиради ва автокатализатор сифатида ишлайди ҳам. Аммо, сувнги қўпайиб бориши, карбамидни ҳосил бўлтиш тезлигини камайтиради. Шунинг учун, сувни камайтирмок лозим, аммо бу жуда оғир масаладир. Карбанат аммонийни карбамидга 20МПа босим ва 430К ҳароратда ўтиши ортиқча аммиакни ошиши билан ўсади. Аммо, техник иқтисодий нуқтаи назардан карбамидни синтезини 460-473К ҳароратда 18-21МПа босимда, аммиакни  $\text{CO}_2$ га бўлган нисбати стехиометрик 2 ўрнига 4-4,5,га тенг бўлганда олиб бориш керақдир. Шу шароитларда ва реакцияга кирувчи моддалар синтез минорасида 50-60 минут бўлганда, карбамидни чикиши 55-65%ни ташкил этаркан.

Реакция натижасида чиқадиган иссиқлик ҳисобига киришувчи моддалар ҳарорати синтез минорасида  $150^\circ\text{C}$ га кўтарилиши ( ўртача ҳар бир % ҳосил бўлаётган карбамидга  $2,5^\circ\text{C}$  ҳарорат ошар экан) мумкин; шунинг учун, синтез минорасида оптималь ҳароратига эришиш учун реакцияга киришувчи моддалар  $313-323\text{K}(+40-+50^\circ\text{C})$ гача қиздирилган бўлмоғи керак. Шунда умумий ҳарорат  $150^\circ\text{C}+50^\circ\text{C}=200^\circ\text{C}$  атрофида бўлади.

### **КАРБАМИД СИНТЕЗИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ТЕХНОЛОГИК ОМИЛЛАР.**

Карбамид ишлаб чиқаришда  $\text{N}_2$ ,  $\text{H}_2$ ,  $\text{CO}$ , Ач каби инерт газлар тўпланишини олдини олиш ва аммиак ҳажмда  $\text{CO}_2$ дан тўлароқ фойдаланиш учун қўпроқ узлуксиз тасвиirlар (циклик схемалар) ишлатилади. Шу нуқтаи назардан,  $\text{CO}_2$  ва аммиакни тозалаш катта аҳамиятлидир. Одатда, карбамид олиш учун,  $\text{CO}_2$  сифатида экспанзер гази- $\text{CH}_4$  ва  $\text{CO}$ ни конверсиялаб,  $\text{N}_2+\text{H}_2$  аралашмасини тозалаш жараёнида пайдо бўлувчи чиқинди газ-ишлатилади. Бу газлар хром-никел-молибдендан ясалган синтез минорасини коррозиялаши мумкин. Шунинг учун экспанзер газидан  $\text{H}_2\text{S}$ ,  $\text{H}_2$  ва  $\text{CO}$ -ларни йўқотишнинг бир неча йўллари маълумдир. Шулардан бири марганец рудаси қўллаш таклиф этилади: Бунда 7%гача бўлган  $\text{H}_2$ , 1%гача бўлган  $\text{CO}$  670-770Кда оксидланиб,  $\text{H}_2\text{S}$  эса  $\text{MnO}$  билан  $\text{Mn}$  сулфиди ҳосил қилас экан.

Синтез натижасида ҳосил бўлган карбамид, реакцияга киришмаган  $\text{CO}_2$  ва аммиакдан катта босимдаги аралашмани дросселлаб, босимни камайтириб, қуймани дистиллаш (ажратилиши лозим бўлган аралашманиқисман буғлати, ҳосил бўлаётган буғни конденсациялаш-суюқликни ўтказиш) усули қўлланади. Дистилляция жараёни 3 поғонагача-босимни 8;12;0,93Мпада ушлаб, ҳароратни 493К, 423Кдан 398Кгача пасайтириб олиб борилади. Қуймани дистиллашдан кейин олинган карбамид кеинчалик буғлатишга (кристалланиш), дроналашиборишга ва бу ҳосил бўлган маҳсулотни қуритишга юборилади.

Шундай қилиб, карбамидни чикиши бир қатор шароитларга боғлиқдир:

1. Ҳароратни ошиши ( $473\text{K}$ гача) унчалик таъсир этмайди;
  2. Босимни таъсири-маълумки, карбамид факат суюқлик шароитидагина ҳосил бўларкан, яъни аммоний карбанати эриб турган шароитида ҳосил бўларкан.
- У вактда аммоний карбанат буғининг тўйинган эритмаси устидаги босими, ҳарорат ошиши билан қўпайиши маълумдир. (1.-жадвал).

(1.-жадвал).

Аммоний карбамати буғи босимини температурага боғлиқлиги.

$t, {}^\circ\text{C}$	0	35	55,6	106	167	197
Р,мм.символ уст.	12,4	175	684	12,64 атм	113,4 атм	259,9 атм

Бу жадвалдан кўриниб турибдик,  $190^{\circ}\text{C}$  хароратда карбамид синтези жараёнини юқори босимларда, ҳеч бўлмаса аммоний карбанати эритмасининг устидаги буғининг шу хароратга тўғри келадиган босимда олиб бормоқлик керак.

3.  $\text{NH}_3:\text{CO}_2$  нисбатини ошиши чиқишни ошишига олиб боради: оптималь  $\text{NH}_3:\text{CO}_2=4:1$  дир.

4. Карбамид чиқими жараённи давомати (яъни реакцияга киришувчи моддаларни миорада бўлиш вақти) ошиши билан ошади.

### **Назорат саволлари.**

1. Карбамид таркибидаги бодланган азот неча % ни ташкил этади ва у кандай шаклда?

2. Карбамидни халк хужалигидаги ахамияти?

3. Карбамид синтезини кандай усулларини биласиз?

4. Тугридан- тугри синтез усули кандай боскичлардан иборат?

5. Карбамид синтезига технологик омиллар кандай таъсир этади?

## **2. Nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar**

### **2.4.1. Test savollari**

**1. Sulfat kislota ishlab chiqarishda boshlang'ich xom ashylar qaysi guruhdan keltirilgan.**

- A. SO<sub>2</sub> va CO<sub>3</sub>;
- B. H<sub>2</sub>S; S, FeS<sub>2</sub>
- C. H<sub>2</sub>S va SO<sub>2</sub>
- D. H<sub>2</sub>S va SO<sub>3</sub>

**2. Sulfat kilota ishlab chiqarishdagi II bosqich mahsuloti.**

- A. SO<sub>2</sub> ;
- B. SO<sub>3</sub>
- C. H<sub>2</sub>S
- D. S

**3. Sulfat kilota ishlab chiqarishda qo'llaniladigan katalizator.**

- A. Al<sub>2</sub>O<sub>3</sub>
- B. Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>
- C. V<sub>2</sub>O<sub>5</sub>
- D. Pt

**4. Kontakt usulda sulfat kislota olishda H<sub>2</sub>S ni dastlabki xom ashyo sifatida foydalanganimizda reaktsiya necha bosqichda amalga oshiriladi**

- A. 1
- B. 2
- C. 3
- D. 4

**5. Nima uchun oltingugurtni yondirganimizda faqat oltingugurt (IV) oksidi hosil bo'ladi? Chunki...**

- A. Kislorod yetishmaydi
- B. Oltingugurt yaxshi yonmaydi
- C. Oltingugurt yetishmaydi
- D. Katalizator yo'q.

**6. 1 tonna sulfat kislotasi olish uchun nazariy jihatdan qancha oltingugurt (IV) oksidi kerak bo'ladi.**

- A. 63,31 kg
- B. 6,331 kg
- C. 653,1 kg
- D. 6531 kg

**7. Sulfat kislotasi ishlab chiqarishda quyidagi qaysi moddalar guruhi asosiy xomashyo hisoblanadi.**

- A. Atmosfera xavosi, suv, oltingugurtli birikmalar
- B. Oltingugurtli birikmalar, qum, suv
- C. Oltingugurt 3 oksidi, suv, osh tuzi
- D. Oltingugurt dioksidi, kum, oxaktosh

**8. Sulfat kislota ishlab chiqarish usullarining qaysi biri to'g'ri.**

- A. To'g'ridan-to'g'ri va kontakt
- B. Nitroza va kontakt
- C. Nitroza va to'g'ridan-to'g'ri
- D. Elektroliz va ishqoriy

**9. Sulfat kislotasining navlari asosan nimalarga bog'li?**

- A. Yuqori kontsentratsiya, yuqori xaroratda kristallanish
- B. Past kontsentratsiya, past xaroratda kristallanish
- C. Yuqori kontsentratsiya, past xaroratda kristallanish
- D. O'rta kontsentratsiya, yuqori xaroratda kristallanish

**10. Oltingugrtni yoqish o'choqlari turlaridan qaysi biri to'g'ridir**

- A. Gorizontal minorali, siklonli

- B. Gorizontal, qaynar qatlamlı, siklonlı
- S. Qaynar qatlamlı, gorizontal, tarelkali
- D. Minorali, Venturi trubali, gorizontal

### **11. Temir kolchedanni yoqish o'choqlari turlari**

- A. Polkalik, qaynar qatlamlı, vakuumlı, yuqori bosimli
- B. qaynar qatlalı, siklonlı, minorali, urta bosimli
- S. Siklonlı, chang xoldagi kolchedanni yoqish uchoqlari, aylanma o'choqlar
- D. Vertikal polkali, qaynar qatlamlı, siklonlı, chang xoldagi kolchedanni yoqish o'choqlari

#### **2.4.2. Nazorat savollari**

1. Sulfat kislotasining fizik-kimyoviy xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Sulfat kislotasi xalq xo'jaligida qanday ahamiyatga ega?
3. O'zbekiston Respublikasida qaysi korxonalarida sulfat kislota ishlab chiqariladi?
4. Sulfat kislota ishlab chiqarishning qanday usullari ma'lum?
5. Sulfat kislotasi ishlab chiqarish ko'lami qanday?
6. Sulfat kislotaning qanday navlari ma'lum va ular asosan nimaga bog'liq?
7. Sulfat kislota ishlab chiqarish apparatlari materiallarga qo'yildigan talablar.
8. Sulfat kislotasi sanoatda qanday saqlanadi va tashiladi?
9. Sulfat kislotasi bilan ishlashda xavfsizlik choralar.
10. O'choq gazi ishlab chiqarishining qanday xom ashyolari turlari ma'lum?
11. Kolchedanlarning qanday turlarini bilasiz?
12. Oltingugurtning qanday turlari ma'lum?
13. Sof oltingugurt ishlab chiqarishning qanday usullari ma'lum?
14. Gazli oltingugurt ishlab chiqarishning qanday usullarini bilasiz?
15. Rangli metallurgiya gazlardan qanday qilib gazli oltingugurt olinadi?
16. Vodorod sulfidli chiqindi gazlardan gazli oltingugurt olish texnologiyasi nimadan iborat?
17. Fosfogips qanday jarayon chiqindisi va qaysi sohada ishlatiladi?
18. Tabiiy gazni vodorod sulfiddan qanday tozalanadi?
19. Sanoat gazlarini vodorod sulfiddan kuruh usul bilan qanday tozalanadi?
20. Chiqindi gazlarni tozalashning potashli usuli nimadan iborat?
21. O'choq gazi deb nimaga aytildi?
22. Temir kolchedanni yoqish nazariy asoslari nimadan iborat?
23. Qanday oltingugurtli xomashyolarni yoqilganda qattiq chiqindi hosil bo'lmaydi?
24. Kolchedanni yoqish xaroratiga ta'sir etuvchi omillar.
25. Kolchedanni yoqqanda qanday qattiq chiqindi hosil bo'ladi va uning turlari?
26. O'choq gazi tarkibi qanday aniqlanadi va hisoblanadi?
27. Temir zangining chiqishi nimalarga bog'liq?
28. Kolchedanni yonish mexanizmini tushuntiring?
29. Kolchedanni yoqish o'choqlarni qanday turlarini bilasiz?
30. Mexanik tokchalik o'choq qanday ishlaydi?
31. "Qaynar qatlamlı" o'choqning afzallikkleri nimadan iborat?
32. Tsiklonli o'choq qanday ishlaydi?
33. Oltingugurtni yoqish o'choqlari qanday umumiyl kontsentratsiyaga ega bo'lishi kerak?
34. Gorizontal forsunkali o'choq qanday ishlaydi?
35. Tsiklonli o'choqning yutuq va kamchiliklari?
36. Temir zangini o'choqlardan chiqazib olishning qanday turlarini bilasiz?
37. O'choq gazini changlardan tozalashni qanday turlarini bilasiz?
38. Inertsion chang tozalagichlar qanday ishlaydi?
39. Elektrofiltrlar turlari va tuzilishini bayon eting.
40. Tsiklonlar qanday ishlaydi?
41. Temir zangidan qaerlarda foydalaniлади?

42. Nima uchun temir zangi rangli metallardan tozalanishi kerak?
43. Temir zangini rangli metallardan qanday usullar bilan tozalanadi?
44. Qozon foydalangichlarning qanday turlarini bilasiz va ular nima uchun hizmat qiladilar?
45. Oltingugurt dioksidini oksidlash statikasi nimadan iborat?
46. Oltingugurt dioksidini muvozanat sharoitidagi oksidlash darajasi deb nimaga aytildi va u qanday omillarga bog'liq?
47. Oltingugurt dioksidini oksidlashda Le-Shatel'e printsipiga muvofiq nima ish qilish kerak?

## GLOSSARIY

**Texnologik qurilma** deb – xom-ashyog'a yoki yarim xom-ashyog'a ta'sir etib unga strukturaviy-mexanik, fizik-kimyoviy va biologik o'zgarishlarni sodir etadigan va mahsulotlarni qadoqlaydigan uskuna va johozlarga aytildi.

**Texnologik sxema** - bu biror bir xom-ashyog'a ishlov berish, yarim tayyor mahsulot ishlab chiqarish yoki tayyor mahsulot ishlab chiqarishda amalga oshiriladigan jaryonlarning birin-ketinlik bilan amalga oshirilishining mashina uskunalarini ko'rsatgan holatidagi tasviri.

**Texnologik jarayon** – bir joyda, bir vaqt oralig'ida ishlov berilayotgan xom ashayoga ko'rsatilayog'an tasiri.

**Xom ashyo balansi** – biror bir mahsulot ishlab chiqarishda texnologik jarayonlar vaqtida mahsulotni miqdorini o'zgarishi (mahsulotni chiqitga chiqishi, yuqotishlari).

**Sulfat kislota-** kuparos moyi, monogidarat deb ham ataladi. Suyuq modda bo'lib, sanoatning barcha soxasida qo'llaniladi.

**Kolchedan-** metal sulfidlari, metallurgiya kombinatlari chiqindilari.

**Oltингugurt-** sariq rangli, o'tkir hidli, kukun holidagi modda, mikroorganizmlarni oldiradi

**Adsorblanish** (lot. **ad** –ustida, yonida va **sorbeo** – yutaman) – bu suyuqlik yoki qattiq jism sirtida boshqa moddalarning yig'ilish xossasidir. Suyuqlik yoki qattiq jism sirtida boshqa modda molekulalari, atomlari yoki ionlari yig'ilishi **adsorblanish** deyiladi. Umuman moddaga tashqi muhitdan boshqa moddalarning yutilishi **sorbsiya** deyiladi.

**Agent** – sistemaga kiritiladigan va unda muayyan jarayonni keltirib chiqaradigan oddiy modda, kimyoviy birikma yoki moddalar aralashmasidir. **-isituvchi agent** – qizdirish uchun ishlatiladigan agent; **sovituvchi agent** – sovitish uchun ishlatiladigan agent.

**Agregat** – bir necha struktur yoki texnologik birlikka ega bo'lган qurilma.

**Agregativ holat** – moddalarning gazsimon, suyuq va qattiq holatlariga aytildi.

**Apparat deb** – xom-ashyog'a ta'sir etib unda kimyoviy, fizikaviy, biokimyoviy va agryog'at holatini o'zgartiradigan qurilmaga aytildi. **Apparat** – texnologik jarayonni amalga oshirishda qo'llaniladigan qo'rılma.

**Balans –materialli balans** – muayyan sistema yoki jarayon uchun massalar saqlanish qonunining matematikaviy shaklda yozilishidir; **energetikaviy balans** - muayyan sistema yoki jarayon uchun energiya saqlanish qonunining matematikaviy shaklda yozilishidir.

**Barbotyor** – gaz yoki suyuqliklarni sachratib beruvchi qurilma.

**Filtr** – qattiq va suyuq fazali har xil jinsli sistemani g'ovak to'siqlar (filtrlash to'siqlari) dan o'tkazib tarkibiy qismlarga ajratadigan, quyltiradigan yoki tindiradigan qurilma.

**Filtrlash** – suspenziya va aerozollarni dispersiyaviy muhit va dispers fazaga filtrlovchi to'siq yordamida ajratish jarayonidir.



## Xulosa va takliflar

Mustaqillik yillarda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilindi, Kadrlar tayyorlash milliy modeli ishlab chiqilib, yangicha dunyoqarash, g‘oya va mafkuralar hilma-xilligiga asoslangani shaxsning ta’lim darajasi va salohiyatini oshirishga, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondoshuv madaniyatiga ega bo‘lgan, yangi avlod kadrlarini tayyorlash ta’lim-tarbiya sohasida muhim o‘rin tutadi. Uni amalga oshirish, avvalo, milliy g‘oya negizlariga tayanishni taqozo etadi. Bunda milliy-ma’naviy meros va qadriyatlarga hamda hozirgi paytda dunyoda erishilayotgan ta’lim sohasidagi ilg‘or yutuqlarni bilish, undan samarali foydalanish orqali, tegishli ko‘nikma va malakani egallash mas’uliyati va madaniyatini yangi avlod vakillarida qaror topib borayotganligi o‘zining samarasini berishi tabiiy.

Ular, birinchidan, yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim-tarbiyaga joriy etish, uning moddiy-texnik bazasini yangilash, modernizatsiyalash orqali amalga oshirilmoqda; ikkinchidan, kompyuter, axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanilmoqda; uchinchidan, ta’lim sohasida amal qilib kelgan eskicha (an‘anaviy) usullardan voz kechildi. Bilimni baholashning test tizimiga o‘tildi.

Ta’lim tarbiya jaaryonlarida yangi pedtexnolgiyalarni qo‘llash zamon talabiga aylandi. Bu ta’lim jarayonini hozirgi fan texnika yutuqlaridan orqada qolmasligi uchun uning talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tarbiyalashni taqozo etadi. Bu o‘qituvchilar oldida ham yangi talablarni qo‘yadi.

Zamonaviy o‘qituvchi keljak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, taddiqotchisi, foydalanuvchisi va targ‘ibotchisi ekanligini chuqur his etishi lozim.

Ta’lim-tarbiya jaryonidagi o‘zgarishlar talabalar yoshlar oldiga ham muhim vazifa qo‘yadi. Ular izlash, kerakli bilimlarni mustaqil qidirib topish, axborot to‘plash va ularni ishlata bilishlari bilan bog‘liq.

Modul- bu shunday maqsadga yo‘naltirilgan bog‘lamki, u o‘zida o‘rganiladigan mazmunni va uni o‘zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

“Noorganik moddalar kimyoviy texnologiyasi” faninig electron o‘quv modulini yaratish bo‘yicha:

- fan taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlari haqida batafsil ma’lumotlar keltirildi;
- modulini o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalari tahlil qilindi;
- modul bo‘yicha sillabus ishlab chiqildi;
- oquv materiallardan ma’ruzalar matni, amaliy mashg‘ulotlar topshiriqlari keltirilgan;
- har bir mavzu bo‘yicha keyslar, nazariy va amaliy mashg‘ulotlarida o‘qitish texnologiyasi, texnologik xaritasi, talabalar faolligini oshirish uchun savollar, oraliq va yakuniy nazorat savollari, bilimini baholash uchun test savollari, nazorat topshiriqlari va mustaqil ta’lim yuzasidan ko‘rsatmalar va ishlanmalar, mustaqil ta’limni tadqiq qilishda qo‘llanilgan pedagogik metodlar bayon qilindi;
- mavzuning har bir mantiqiy bo‘lagi uchun tuzilgan axborot va ko‘rgazmali materiallar, o‘quv mashg‘ulotida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalari belgilandi, modul mavzulari yuzasidan taqdimotlar va animatsiyalar islab chiqildi.

Nazariy axborotni har bir bo‘lagini talabalar bilan birgalikda tahlil etishga qaratilgan. Nazariy bilimlar asosida talabalarning amaliy faoliyatini tashkil etish usullari keltirilgan, mavzuga oid soha bo‘yicha mustaqil topshiriqlar mavzulari va bajarish usullari yoritilgan.

O‘zlashtirish jarayonining natijalarini tekshirish maqsadda baholash mezonlarini ishlab chiqilgan, mavzu bo‘yicha belgilangan topshiriqlarni bajarish va topshirish usullari keltirilgan.

Ma’lumki, o‘quv mashg‘ulotning samaradorligi mavzuni o‘zlashtirish darajasi orqali baholanadi. Talabalar bilim savyasini oshirish maqsadda yangi pedagogik texnologiyalar joriy qilingan. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar dars berishning interfaol usullarini nazarda tutadi. Bo‘lar

aqliy xujum, muammoli holatlar, keys stadilarini yechish, Sinkvey, FSMU, Venn diagrammasi, T-jadval va hokazolardir. Ushbu usullar talabalarning ijodiy faolligini oshirishda yordam beradi. O'quv mashg'ulotning samaradorligi oshirish maqsadda animatsiyalar ham ishlab chiqildi

Ta'lism-tarbiya jarayonini zamonaliviy pedagogik va axbort texnologiyalari bilan ta'minlash, ta'lism-tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish uchun barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, ta'lism-tarbiya jarayoni samaradorligini ta'minlashga yordam beruvchi eng samarali usul hamda texnik vositalarni tanlash orqali rejalashtirilgan o'quv maqsadlariga erishish mumkin.

Oliy o'quv yurtlarida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qullanilishi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarib, o'quv jrvyonining samaradorligini oshiradi.

### **Foydalanimadigan asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar ro'yxati. asosiy adabiyotlar**

1. I.Karimov.Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yulida hizmat qilish – eng oliy saodatdir. T. O'zbekiston, 2015.-305 b.
2. I.Karimov. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.:Ma'naviyat. –T.: 2008.-176 б.
3. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi (Xalq so'zi. 2007 yil, 8 dekabr).
4. I.Karimov. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. – T.16. – T.: “O'zbekiston”, 2008, - 5-б.
5. Прессслужба Республики Узбекистан, <http://www.press-service.uz>.
6. Topildiev V. Ta'lism tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarishning me'yoriy xuquqiy asoslari.(o'quv uslubiy majmua). T.: 2013.-150 б.
7. Ф.М.Мирзаев ,А.Т.Отакузиев, Ш.А.Якубов “Ноорганик моддалар ва минерал ўғитлар технологияси”. Т. “Талқин”, 2007, 424б.
8. А.А.Исматов, Т.А.Отакузиев, Н.П.Исмоилов, Ф.М.Мирзаев “Ноорганик материаллар кимёвий технологияси” Т. “Ўзбекистон”- 2002-336б.
9. Т.Г.Ахметов «Химическая технология неорганических веществ», т.1,2 М. “Высшая школа”:2002.-стр.1221.
10. Васильев Б.Т. Отвагина Б.И. Технология серной кислоты. М. Химия. 1985 – 384 с.
11. Амелин А.Г. Технология серной кислоты. Учеб. Пособие для ВУЗов, 2 -е издан., перераб, М. Химия, 1983 – 360 с.
12. Мухленов И.П., Горштейн А.Е., Тумаркина Е.С., Кузичкин Н.В., Основы химической технологии: Учеб, для студентов хим. Технол. Спец. Вузов Под редю И.П Мухленов 4-е издан, прераб, и доп. М. Выс школа 1991 – 463 с.
13. Кутепов А.М., Бондарева Т.Н., Беренгертен М.Г. Общая химическая технология. Учеб, для техн. Вузов. 2-е изд. Испр. И доп. М. Выс. Шк. 1990 – 520 с.
14. Якубов Ш.А. Ноорганик моддалар кимёвий технологияси. Марьузалар матни Олий ўқув юртларининг ноорганик моддалар технологияси ва минерал ўғитлар ишлаб чиқариш кимёвий технологияси.
15. Атрошенко В.И. и др. Технология связанного азота. Л: Химия,1986.
16. Дыбина П.В. Расчеты по технологии неорганических веществ. М. В.Ш., 1967. 523 с.
17. Позин М.Е. Расчеты по технологии неорганических веществ. М. Химия., 1977. 495 с.

18. Позин М.Е. Руководство к практическим занятиям по технологии неорганических веществ. Л. Химия, 1980.
19. Шарипова Х.Т. “Ноорганик моддалар ишлаб чиқариш назарияси ва технологик хисоблари” фанидан маъруза матн, Тошкент 2010 й.
20. Амелин А.Г. Яшке Е.В. Производство серной кислоты. Учебник для проф. Техн. Учебы. Заведений. М. Высш. Шк., 1074 – 220 с.
21. Основы химической технологии. Учебник для студентов химико – технологических специальностей высших учебы. Заведений Мухленов И.П., Горштейн А.Е., Тумаркина Е.С., Толибавцева В.Д. Под ред. Мухленова И.П. 3-е изд., прераб и доп. М. Выс школа, 1983 – 335 с.
22. [www.ziyo.edu.uz](http://www.ziyo.edu.uz)
23. [www.press-uz.info](http://www.press-uz.info)
24. <http://www.uforum.uz>.
25. Axborotresursmarkazi<http://www.assc.uz/>
26. <http://www.xabar.uz>.

## I. “Bog‘langan azot texnologiyasi”

### *fanini o‘qitishning nazariy asoslari*

Mamlakatimiz iqtisodiyotining taraqqiyotida sanoat tarmoqlarini, xususan kimyo sanoatini va uni xalqaro andozalar hamda zamonaviy mezonlar darajasida rivojlantirish bugunning dolzarb, hayotning o’zi talab etayotgan muhim vazifalardan sanaladi. Shu ma’noda, kimyo sanoati va uning tarmoqlarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni sifatini, raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion texnologiyalardan samarali va unumli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu esa, o’z navbatida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jarayonlarni amaliyatga tadbiq etishni taqoza etadi. Bugungi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida bu boradagi yangilanishlarni amalga oshirishda bosqichma – bosqich tamoildan foydalanish kerak bo’ladi.

Kimyo sanoati – xalq xo’jaligining yetakchi tarmoqlaridan biri bo’lib, ilmiy - texnik taraqqiyotni tezlashtirishga, ishlab chiqarish samaradorligining ortishiga, xalqning moddiy - ma’naviy ta’minot darajasining ortishiga hal qiluvchi ta’sir ko’rsatadi. Bugungi kunga kelib kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishning ortishi va xalq xo’jaligining turli sohalarida ularning ishlatilishi, yerdan foydalanishni jadallashtirish, og’ir sanoatda ilmiy - texnik taraqqiyotni tezlashtirish, qurilishda industrial usullarni rivojlantirish, yengil sanoatla xom ashyo bazasini kengaytirish va xalq iste’mol mollarini ishlab chiqarishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mineral o’g’itlar o’simlik va yerning unumdorligini oshirishda asosiy vosita bo’lsa, o’g’it ishlab chiqarish uchun nitrat kislota xom ashyo hisoblanadi.

Xalq xo’jaligini kimyolashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kimyoviy materiallarni ishlab chiqarishda tabiiy xom ashylardan olinadiganiga qaraganda mehnat va energetik sarflar 2-3 martagacha kamayadi. Kimyo va kimyo sanoati rivojlanib borayotganligini istemolning istalgan jabxalalrida ko’rish mumkin. Hozirgi paytda kimyo sanoatini rivojlanishida mini texnologiyalarning xam ro’li katta.

Fan va shu jumladan kimyo rivojini boshqa fanlarning yutuqlariga suyangan holda shunday yutuqlarga erishdiki, hozirgi kunda tabiatning o’zida mavjud bo’limgan minglab moddalar yaratilmoqda. Bu narsa kishilik jamiyatining olg’a qarab rivojlanishida katta ro’l o’ynamoqda.

Respublikamizda ko’plab kimyo korxonalari mavjud bo’lib, turli tuman moddalar; sulfat kislata, mineral o’g’itlar , sulfatlar , plastmassalar , sintetik smolalar, sement, suniy tola, lak – bo’yoqlar va boshqa maxsulotlarni ishlab chiqarilmoqda. Misol tariqasida respublikamizdagи eng yirik korxonalardan bo’lgan Chirchiqdagi “Elektrokimyo sanoati”, Navoiydagи “Navoiyazot”, Farg’onadagi “Farg’onaazot” O.A.J kabi korxonalarda, ammoniyli selitra, karbamid, ammiak, boshqa mahsulotlar shlab chiqarilmoqda.

Bundan tashqari, sulfat kislata ishlab chiqaruvchi korxonalar quyidagilar: Chirchiqdagi “Elektrokimyo sanoati”, Olmaliq “Tog’kon metallurgiya kombinati”, Samarqand “Kimyo” zavodi, Nvoiy “Tog’kon metallurgiya kombinati”, Olmalq “Ammafos” O.A.J kabi korxonalarda ishlab chiqariladi.

Hozirgi paytda azotli birikmalarini ishlab chiqarish rivojlanib, qishloq xo’jaligini azotli o’gitlar bilan taminlab berishi muhim ahamiyatga ega. Azotli o’g’itlar va birikmalar ishlab chiqarishda asosiy hom ashyo ammiak hisoblanadi. Ammiak ishlab chiqarish sulfat kislotadan keyin ikkinchi o’rinda turadi. Bugungi kunda ishlab chiqarishda ammiak karbamid , ammoniy selitra, murakkab o’g’itlar olishda ishlatiladi. Barcha o’simliklar ozuqa elementi hisoblangan azotni tuproqdan oladi. Qishloq xo’jaligida mahsuloti serxosilligi ma’lum darajada tuproq tarkibidagi azotga bog’liq. Ammiak ishlab chiqarishni betoxtov o’sishi natijasida, uni ishlab chiqarishning yangi usullarini rivojlanishi va texnologiyalarni rivojlantirish muxim ahamiyatga ega bo’lmoqda. Bu korxonalarda ammiak ishlab chiqarish korxonaning yuragi xisoblanadi.

So’ngi yillarda biomassaning kimyoviy va biokimyoviy yoqilg’iga va organik sintez mahsulotlariga transformasiyasi bo’yicha asosiy yo’llar belgilandi. Biosferadan samarali foydalanish va uni zararli texnogen jarayonlardan himoya hilishning ahamiyati kundan-kunga oshib

bormoqda. Sanoat tashlamalarini zararli aralashmalardan tozalashning takomillashgan va yangi samarali usullarini ishlashda kimyoviy texnologiyaning ahamiyati beqiyosdir.

**Modul** - mazmuniy va mantiqiy yakunga ega bo‘lgan, didaktik jihatdan ishlab chiqilgan, natijaga qaratilgan, kirish va chiqish nazoratlardan iborat bo‘lgan birlikdir. Modulni o‘rganish natijasida qanday bilimlarni egallashi, qanaday ko‘nikma va malakalar shakllantirilishi sanab o‘tiladi. O‘zlashtirish jarayoni tugagandan so‘ng talaba qanday faoliyatni qanday sharoitlarda bajara olishi ko‘rsatiladi. Natijalar uzviy birlikka ega bo‘lib, o‘qitish maqsadlaridan chetga chiqmagan holda shakllantirilishi lozim.

Modulli texnologiyalar mustaqil faoliyat asosida talabalarda bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda rejalashtirish, o‘z-o‘zini boshqarish va nazorat qilish, o‘zlashtirish bo‘yicha samarali natijani ta’minlashga qaratilgan eng samarali yondashuvlardan biri bo‘lib qolmoqda. Modul bu shunday maqsadgsha yo‘naltirilgan bog‘lamki, u o‘zida o‘rganiladigan mazmunni va uni o‘zlashtirish texnologiyasini aks ettiradi.

Modulli texnologiyalar asosida ta’limni tashkil etish jarayonida talabaning qobiliyatları, extiyojlari va o‘ziga xos jihatlarini xisobga olish lozim. Ana shu elementlar hisobga olingan taqdirda o‘z-o‘zidan tabaqlashtirilgan, rivojlanтирувчи, o‘qishga bo‘lgan motivlarni kuchaytiruvchi “subyekt-subyekt” konsepsiyasiga asoslangan ta’lim tizimi kelib chiqadi.

Modulli o‘qitishda o‘quvchilarni o‘z qobiliyatiga ko‘ra bilim olishi uchun to‘la zaruriy shart-sharoitlar yaratiladi.

Modulning maqsad va vazifalari: fanni o‘qitishda yangi interfaol metodlarni qo‘llash orqali talabalar bilim saviyasini oshirish; o‘quv mashg‘ulotining loyihasini ishlab chiqish; o‘quv mashg‘ulotida hal etilishi lozim bo‘lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash; o‘quv mashg‘uloti mazmunini ishlab chiqish; o‘quv mashg‘uloti samaradorligini ta’minlashga yordam beruvchi metod, usul hamda texnik vositalarni tanlash; talabalar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish; o‘quv mashg‘ulotida talabalarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratish hamda ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

**Modulning amaliy ahamiyati:** bugungi kunda oliy ta’lim tizimi oldidagi eng asosiy vazifa malakali mutaxassisni tayyorlash. Bunday mutaxassisni tayyorlash uchun unga nisbatan quyidagi talablar qo‘yilgan:

- o‘z sohasi bo‘yicha zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lish;
- sohaga oid mavjud bilimlarini doimiy ravishda mustaqil oshirib borish, ya’ni mustaqil ta’limga tayyor bo‘lish;
- sohaga innovatsiyalar kiritish uchun mustaqil izlanish va ijod qilish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;
- o‘z vaqtini rejalashtirish, boshqarish va o‘z faoliyatini tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Modulli ta’limni maqsadi talabaning aynan shu jihatlarini shakllantirishga qaratilgan. Demak, modulli yondashuv yangi axborotni mustaqil o‘zlashtirish, talabaning mustaqil va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish, o‘zini va o‘rtoqlarini faoliyatini baholashga qaratilgan. Bunday yondashuv zamonaviy talablar tizimiga mos tushadi.

Sohamiz rivojlanishi uchun mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan mutaxassislarni tayorlash maqsadimizdir.

## **1.2. “Bog‘langan azot texnologiyasi” fanni o‘qitishdagi innovatsiyalar va ilg‘or xorijiy tajribalar**

Oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari o‘quv fanlari bo‘yicha yaxlit ta’lim texnologiyalarini loyihalashtirish va amalga oshirish ishlarini keng qamrovli olib bormoqdalar. O‘qish jarayonida taqdim etiladigan ta’lim texnologiyalarida yangi o‘qitish modeli qo‘yidagilarga asoslangan:

- ta’limning har bir shaxsga yo‘naltirilganlik va tizimli yondashuv, ta’lim subyektlari munosabatlarini demokratlashtirilishi va insonparvarlashtirilishiga;

- ta’limda talabalar roli o‘zgarishiga: o‘quv faoliyatini mustaqil olib boruvchi ta’lim jarayonining teng huquqli subyekti;

- ta’limda o‘qituvchining roli o‘zgarishiga: mustaqil o‘quv faoliyatining tashkilotchisi, talabalarining savodli maslahatchisi va yordamchisi. Talabalar bilimi, ko‘nikmalarini, mahoratlarining nazoratini hamda ehtimolli og‘ishlarni o‘z vaqtida to‘g‘rilash maqsadida ularning bilim darajasi diagnostikasini ta’minlaydi;

- ta’limning uslublari va vositalarining o‘zgarishiga: (1) muammoli holatlar, faol ijodiy-tadqiqiy faoliyatni yaratishga asoslangan, muammollarni qidirish va yechish, bilimlarni amalda qo‘llashga yo‘naltirilgan faol va interfaol usullar an’analib bo‘lib qolmoqda; (2) jamoa va guruh ishlari keng qamrovli ta’lim shakliga nisbatan ko‘paymoqda; (3) axborot texnologiyalari ta’limning an’anaviy vositalari bilan bir qatorda keng qo‘llanmoqda; o‘quv materiallari ta’lim olayotganlar tomonidan bilimlarni mustaqil qidirish uchun foydalanimoqda;

- pedagogik boshqarish uslublari va vositalarining o‘zgarishiga: o‘qituvchi muammollarni aniqlashga, g‘oyalarni regeneratsiya qilishga, qarorlarni qabul qilishga qodir va ularning amalga oshishiga mas’uldor menejerga aylanmoqda. U nafaqat pedagogik balki talabalarning o‘quv faoliyatini ham bashoratlaydi, loyihalashtiradi va rejalashtiradi, ya’ni qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va o‘quv faoliyatining rejalashtirilgan natijalariga erishish bo‘yicha qo‘shma faoliyat tizimi va mazmunini ishlab chiqadi, bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishda va o‘quv faoliyatini tashkillashtirishda talabalarni qo‘llab-quvvatlaydi, ta’lim jarayonini o‘quv dialogi va polilogi sifatini tuzadi.

Shu bilan birga, o‘qituvchilar – loyihalashtiruvchilar talabalarning yangi ta’lim modellari bo‘yicha qurilgan ta’lim jarayoniga tayyor emasligiga duch kelashadi. Bu talabalarning ta’lim subyekti sifatida ta’sir etmasligida va o‘qituvchilar tomonidan taklif etiladigan o‘quv faoliyatining uslub va vositalarini amaliy qo‘llash qo‘nikmalarining yo‘qligida namoyon bo‘ladi.

Shu munosabat bilan zamonaviy pedagogika texnologiyalarini amalga oshirish sharoitlarida talabalar quyidagi qo‘nikma va mahoratlarni egallab olishlari zarur:

- leksiya, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil faoliyat ko‘nikmalar;

- taqdimot ko‘nikmalar;

- kommunikativ ko‘nikmalar;

- hamkorlikdagi ishlarni ko‘nikmalar;

- muammoli holatlar tahlil qilish ko‘nikmalar, o‘quv vazifasini yechish, g‘oyalarni generatsiya qilish va qarorlarni qabul qilishning nostandard usullarini topish, bu o‘z navbatida o‘qituvchinig muammoli leksiya, tahlilda va o‘quv holatlarini (Keys stadi) hal etish faol ishtiroy etishini ta’minlaydi;

- ma’lumotlarni qidirish, yig‘ish, ishlov berish va saqlash uchun zamonaviy kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalana olishning amaliy ko‘nikmalar.

Mamlakatimiz ta’lim tizimida, 30 yillarda AQSH da dunyoga kelgan, XX asrning 80 yillariga kelib deyarli barcha rivojlangan mamlakatlarni qamrab olgan va YUNESKO tomonidan tasdiqlangan texnologiyalashtirish bosqichi faoliyk bilan amalga oshirilmoqda. Ta’limni texnologiyalashtirish – bu keng ko‘lamdagagi mutaxassislarning nazariy va amaliy to‘plamlarini

tadqiqot qiluvchi va ta'minlovchi pedagogika fanining yangi yo'nalishi xisoblanadi. Uning ilmiy imkoniyatlari mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlarida kundan-kunga ortib bormoqda.

Pedagogik amaliyatda ta'limning yangi yo'llari va vositalarini tez suratlarda yo'lga qoyish kuzatilmoxda. Shubxasiz bunda faol ta'limning ayrim shakl va usullari o'rniغا bir butun o'qitish texnologiyalari kelishi lozim. Ta'lim jarayonini texnologik loyixalashtirish va rejalashtirishni faqatgina texnologik bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan pedagoggina qilishi mumkin. Texnologik bilimlarning asosi bu qonun-qoidalarni bilish xisoblanadi: texnologiyalashtirish qonuniyatları va yo'l-yo'riqlari, qoyilgan ta'lim maqsadini amalga oshirish uchun va rejalashtirilgan samarali natijani olish uchun optimal yo'l va vositalarni tanlash.

Ta'limni texnologiyalashtirish fikri bu yangilik emas. Yan Amos Komenskiy ta'limning shunday umumiy tartibini topishga xarakat qilgan-ki, u inson tabiatining umumiy qonuniyatları boyicha amalga oshiriladi. Shunda Komenskiy «og'irligi tenglashgan soatning yurishidek hamma narsa aniq va ravshan rivojlanib boradi va bu shu turdag'i avtomat moslamasiga yoqimli va quvonch bilan qaragandek yoqimli va quvonchlidir» deb taxmin qiladi.

Didaktik mashina uchun 1) aniq qoyilgan maqsad; 2) bu maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo'ladigan vositalar, 3) va albatta, maqsadga erishish uchun bu vositalardan qanday foydalanishning aniq qonun-qoidalari»ni topish zarur deb yozgan edi Komenskiy. Ya'ni 300 yil oldin ta'limni texnologiyalashtirishning asosiy yondoshuvlari shakllangan edi:

1. ta'lim maqsadini aniqlashtirish;
2. bu maqsadlarga erishishning optimal (oson) yo'l va vositalarini tanlash;
3. qoyilgan maqsadga erishishni kafolatlaydigan ta'lim modelini loyixalashtirishni belgilovchi qonun-qoidalari xajmi

Xozirgi kunda ta'lim va tarbiya ishlarini pedagogik texnologiyalar doirasiga o'tkazish degani bu maktab amaliyotida pedagogik jarayonni ixtiyoriy tuzishni va uni amalga oshirishni xal qiluvchi o'zgartirishlarga olib kelinishini bildiradi.

An'anaviy o'qitish quyidagi xususiyatlarga ega: zo'ravonlik pedagogikasi, o'qitishning tushuntiruvko'rgazmali usuli, ommaviy o'qitish. An'anaviy o'qitishda avtoritarlik quyidagi shaklda namoyon bo'ladi: o'quvchi bu hali to'la shakllanmagan shaxs, u faqat bajarishi zarur, pedagog esa - bu sardor hakam, yagona tashabbuskor shaxs.

Zamonaviy an'anaviy o'qitish esa, o'qitishning texnik vositalarini qo'llab, didaxografiyadan foydalanishdan iborat bo'ladi. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarda, o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon markaziga qo'yiladi, uning rivojlanishiga va tabiiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga qulay shart-sharoitlar yaratiladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim tizimining milliy modeliga alohida e'tibor qaratilgan. Bu model 5 tarkibiy qismidan iborat: shaxs, davlat va jamiyat, uzlucksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarish. Bu yerda ta'lim milliy modeling asosiy tarkibiy qismi - «shaxs» birinchi o'rinda turadi. Boshqacha aytganda, butun ta'lim tizimi, shu jumladan, o'qitish shaxsga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shuning uchun zamonaviy texnologiyalarda pedagogik jarayon, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalari asosida amalga oshirilishi lozim.

Hayot dialektikasi shundan iboratki, doimo yangi avlod, oldingi avloddan ko'ra rivojlanganroq bo'ladi. Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrigacha, fan, texnika va texnologiyalar rivoji evolyusion, past sur'atlarda amalga oshar edi.

Ilmiy texnik taraqqiyotning keskin yuksalish davrida fan, texnika, texnologiyalar yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan davrda, bir avlod hayoti davomida fanning rivoji insoniyatning butun tarixidagidan ko'ra ko'proq bo'lgan bu davrda, o'qitishning an'anaviy tizimi (shu jumladan zamonaviy an'anaviy o'qitish) o'z umrini oxiriga yetdi.

Hozirgi zamon avlodining rivojlanish sur'ati oldingilardan ko'ra ancha yuqori bo'lganligi sababli, o'qitishning an'anaviy tizimi, rivojlanishga to'sqinlik qila boshladi. Bunday sharoitlarda taraqqiyot, faqat har bir shaxsning mavjud imkoniyatlarini to'la ro'yobga chiqarish asosida amalga

oshirilishi mumkin. Axborotning hajmi, xilma-xilligi, egallahsga moyilligi va vositalarining yetarliligi samarali individual va mustaqil o'qitishni tashkil etish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratadi. O'qitishni jadallashtirish maqsadida, pedagogning o'quvchiga bo'lgan munosabati «sardor»likdan, uning «sherigi»ga aylanishi zarur.

O'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalariga quyidagi asosiy tamoyillar xos bo'ladi:

insonparvarlik, ya'ni insonga har tomonlama hurmat va muhabbat ko'rsatish, unga yordamlashish, uning ijodiy qobiliyatiga ishonch bilan qarash, zo'r slashdan to'la voz kechish; hamkorlik, ya'ni pedagog va o'quvchilar munosabatidagi demokratizm, tenglik, sheriklik; erkin tarbiyalash, ya'ni shaxsga uning hayot faoliyatini keng yoki tor doirasida tanlab olish erkinligi va mustaqillikni berish, natijalarni tashqi ta'sirdan emas, ichki hissiyotlardan keltirib chiqarish. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning kommunikativ asosi - pedagogik jarayonda o'quvchiga insoniy-shaxsiy yondashuv hisoblanadi.

-Shaxsga yangicha qarash quyidagilardan iborat bo'ladi:

-pedagogik jarayonda shaxs obyekt emas, subyekt hisoblanadi;

-har bir o'quvchi qobiliyat egasi, ko'pchiligi esa iste'dod egasi hisoblanadi;

-yuqori etik qadriyatlar (saxiylik, muhabbat, mehnatsevarlik, vijdon va boshqalar) shaxsning ustivor xislatlari hisoblanadi.

### **Munosabatlarni demokratlashtirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:**

-o'quvchi va pedagog huquqlarini tenglashtirish,

-o'quvchining erkin tanlab olish huquqi;

-xatoga yo'l qo'yish huquqi;

-o'z nuqtai nazariga ega bo'lish huquqi pedagog va o'quvchilar munosabati zayli: - taqiqlamaslik; boshqarish emas, birgalikda boshqarish; majburlash emas, ishontirish; buyurish emas, tashkil etish; chegaralash emas, erkin tanlab olishga imkon berish.

### **Muammoli o'qitish texnologiyasi**

Muammoli o'qitish amerikalik faylasuf, psixolog va pedagog Dj.Dyunning nazariy qoidalariga asoslanadi va XX asrning 20-30-yillarida tarqala boshladi. Dj.Dyun o'qitish uchun quyidagilarni asos qilib belgiladi: ijtimoiy, konstruksiyalash, badiiy ifodalash, ilmiy-tadqiqiy. Bu asoslarni amalga oshirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: so'z, san'at asarlari, texnik qurilmalar, o'yinlar va mehnat.

Muammoli o'qitish, o'qitishning shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarga taalluqli, chunki bu yerda shaxs subyekt sifatida qaraladi, muammoli vaziyatlarning maqsadi - pedagogik jarayonda o'ziga xos qiziqish uyg'otishdir.

Muammoli vaziyatlar kiritilib, an'anaviy, bayon etish o'quv materialining eng optimal tarkibi hisoblanadi. Pedagog muammoli vaziyat yaratadi, o'quvchini uni yechishga yo'naltiradi, yechimni izlashni tashkil etadi. Muammoli o'qitishni boshqarish, pedagogik mahoratni talab etadi, chunki muammoli vaziyatning paydo bo'lishi individual holat bo'lib, tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan yondashuvni talab etadi.

O'quvchi noma'lum yechimni topish uchun mustaqil yoki o'qituvchi yordamida izlanadi. Muammoni jamoaviy hal etishda paydo bo'luvchi, subyekt-obyekt-subyekt munosabatlari ijodiy fikrlashni faollashtirishga olib keladi.

Ush bu modulni o'qitish jarayonida ishlab chiqarish korxonalarimizdagi real muammoli vaziyatlarni aniqlab, ularning yechimini talabalar yordamida muhokama qilish va topish amaliy yordam beradi.

### **Tabaqlashtirilgan o'qitish texnologiyasi**

Tabaqlashtirilgan o'qitish o'quv jarayonining tashkil etishni bu shakli umumiylididaktika tizimiga asoslangan bo'lib, maxsus tashkil ettirilgan talabalarning gomogen guruhlarida, o'quv jarayonini maxsuslashtirishni ta'minlaydi.

O‘qitishni tabaqalash (bu tushuncha o‘qitish jarayonini o‘zi bilan bog‘liq) – uslubiy, psixologik-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv tadbirlar majmuasi asosida tuzilgan turli xildagi gomogen guruhlarda o‘qitish uchun turli xil shart-sharoitlarni yaratish demakdir.

Oliy, o‘ta maxsus va kasb-hunar ta’lim tizimida gomogen guruhlар, talabalarning individual-psixologik xususiyatlari, avvalo aqliy rivojlanish darajasi asosida tuziladi. Hozirgi paytda oliy o‘quv yurtlariga kiruvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 100 % dan 25 % gacha tashkil etadi. Bunday sharoitda davlat ta’lim standartlari talabiga mos oliy malakali kadrlar tayyorlash maqsadida o‘qitishni tabaqalashtirish davr taqozosidir. Ayniqsa mutaxassislik fanlarni o‘qitishda bunday usuldan foydalanish maqsadga muvofoqdir.

### ***Individuallashtirilgan o‘qitish texnologiyasi***

Talabaning mavjud shaxsiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarishini ta’minalash, zamonaviy o‘quv jarayoniga qo‘yiladigan jadallahsgan ilmiy-texnikaviy taraqqiyotining talabidir. Bunga individual va individuallashtirilgan o‘qitish orqali erishish mumkin.

**Individual o‘qitish** – bu o‘quv jarayonining tashkil etishning shakli bo‘lib, bunda pedagog talabalar bilan yakkama-yakka shug‘ullanadi, talaba o‘quv vositalari (kitoblar, kompyuter va h.k.) yordamida uzlusiz mustaqil ta’lim oladi.

**Individual o‘qitishning afzalliklari:** pedagogik jarayonning talaba qobiliyatlariga moslashuvchanligi imkoniyatidir. Bunda talabaning bilim olish darajasi doimiy monitoringini amalga oshirish va zaruriy tuzatishlar kiritish natijasida optimal pedagogik jarayonni tashkil etiladi.

**Individual yondashish** – bu pedagogik tamoyilga ko‘ra, pedagogik jarayonda pedagogning talabalar bilan o‘zaro munosabati, ularning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda quriladi va butun guruh hamda har bir alohida talabaning rivoji uchun psixologik-pedagogik muhit yaratiladi.

Individuallashtirilgan o‘qitish bunday o‘quv jarayonini tashkil etishda individual yondashish asosida o‘qitish yo‘llari, usullari, sur’ati tanlanadi va turli o‘quv-uslubiy psixologik-pedagogik hamda tashkiliy boshqaruv tadbirlari orqali ta’minalanadi.

Individuallashtirilgan o‘qitishning asosi, talabaning individual-pedagogik xususiyatlarini o‘rnatish hisoblanadi. Olingan natijalar asosida, o‘qitish usuli tanlanadi.

### ***Kompyuterli o‘qitish texnologiyasi***

Kompyuterlashtirilgan o‘qitish texnologiyasi – bu kompyuterdan foydalanishga asoslangan o‘qitishdir. O‘qitishning kompyuter texnologiyasi yangi axborot texnologiyalarning bir turidir. Axborot texnologiyalarda bundan tashqari boshqa axborot vositalari (televideeniye, video va boshqalar) ishlatalishi mumkin. Kompyuter texnologiyalari dasturlashtirilgan o‘qitish g‘oyalarini rivojlantiradi, zamonaviy kompyuterlar va telekommunikatsiyalarning yirik imkoniyatlari bilan bog‘liq bo‘lgan o‘qitishning mutlaqo yangi hali tadqiq qilinmagan texnologik variantlarini ochib beradi. Telekommunikatsion tizimlar, shu jumladan kompyuterlar hozirgi zamon ilmiy-texnik taraqqiyotning mahsuli hisoblanadi.

Kompyuterli o‘qitish texnologiyasida quydagilar zarur hisoblanadi: individual o‘qitish; muntazam ravishda kompyuter yordamida diagnostik testlar o‘tkazish; o‘quv maqsadlariga erishilganligini baholash.

Bu o‘qitish texnologiyasida pedagogning funksiyasi quydagilardan iborat bo‘ladi: dasturiy vositalarni tayyorlash; o‘quv jarayonining (o‘quv jarayoni grafigi, diagnostika, nazorat) guruh, fan miqyosida tashkil etish; ishchi o‘rinlarini tashkil etish, yo‘l-yo‘riqlar berish, tarmoqni boshqarish; talabalar bilan muloqotda bo‘lish, individual o‘qitishni ta’minalash.

### ***Ishbilarmonlik o‘yinlari texnologiyasi***

Ta’lim jarayonidagi o‘quvchining faolligi, didaktikaning asosiy tamoyillaridagi biri bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib koladi. O‘quvchining faolligi, maqsadli yo‘naltirilgan boshqaruvchi pedagogik ta’sirlar va pedagogik muhitning tashkil etilishi natjasidir. O‘quvchilarning faolligini ta’minlovchi, o‘qitish texnologiyalaridan biri - pedagogik ishbilarmonlik o‘yini hisoblanadi. O‘yin faoliyatiga qiziqish, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini ifoda etish, ro‘yobga chiqarish kabi ehtiyojlarini

qondiruvchi, musobaqalashish elementlari orqali ta'minlanadi. O'yining ajoyib xususiyati shundaki, u bir vaqtning o'zida ham rivojlanish ham o'rganish hisoblanadi.

Pedagogik o'yinlar o'yin uslubiga ko'ra quyidagicha tavsiflanadi: fanlar bo'yicha; syujetli; ishbilarmonlik, imitatsion, dramalashtirilgan o'yinlar.

### **Modulli o'qitish texnologiyasi**

«Modulli o'qitish» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog'liq bo'lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma'nosi faoliyat ko'rsata oladigan o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat bo'lgan tugunni bildiradi. Bu ma'noda u modulli o'qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida tushuniladi.

**Modulli o'qitish** – o'qitishning istiqbolli tizimlaridan biri hisoblanadi, chunki u odam bosh miyasining o'zlashtirish tizimga eng yaxshi moslashgandir. Modulli o'qitish asosan inson bosh miyasi to'qimalarining modulli tashkil etilganligiga tayanadi.

O'qitishning modul tizimi haqida rasmiy ravishda birinchi marta, 1972 yil, YUNESKOning Tokiodagi Butunjahon Konferensiyasida so'z yuritilgan edi. Modulli o'qitish texnologiyasi funksional tizimlar, fikrlashning neyrofiziologiyasi, pedagogika va psixologiyalarping umumiyligi nazariyasidan kelib chiqadi.

Modulli o'qitish, kasbiy ta'limning quyidagi zamonaviy masalalarini har tomonlama yechish imkoniyatlarini yaratadi:

-modul - faoliyatlik asosida o'qitish mazmunini optimallash va tizimlash dasturlarni o'zgaruvchanligi, moslashuvchanligini ta'minlash;  
o'qitishni individuallashtirish;

-amaliy faoliyatga o'rgatish va kuzatiladigan harakatlarni baholash darajasida o'qitish samaradorligini nazorat qilish;

-kasbiy motivatsiya asosida, o'qitish jarayonini faollashtirish, mustaqillik va o'qitish imkoniyatlarini to'la ro'yogda chiqarish.

Turli konsepsiylar doirasida, modulli ta'lim dasturlari, turli xil tarkib va tarkibiy tuzilmalardan iborat bo'ladi, turli shakldagi hujjalarda taqdim etiladi, ammo ularning barchasi quyidagi uchta asosiy tarkibiy qismni majburiy ravishda o'z ichiga oladi: maqsadli mazmuniy dastur; turli ko'rinishlarga taqdim etilgan axborotlar banki; o'quvchilar uchun uslubiy ko'rsatmalar.

### **Modul turlari:**

- 1.Nazariy modullar (nazariy bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- 2.Amaliy modullar (amaliy ko'nikmalarni va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).
- 3.Texnologik yoki aralash modullar (nazariy bilim, amaliy kunikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan modullar).

Modul dasturlarning maqsadi albatta malakali mutaxassisni yetishtirishga xizmat qiladi. Modul dasturning maqsadini tuzishda ana shu mutaxassisga qanday talabalar tizimi qo'yilayotgan ekanini aniqlab olishdan boshlanadi. Bugungi kunda Rossiyada mutaxassisga qo'yiladigan umumiy talabalar tizimi o'rganilib ularni uch asosiy guruhga ajratilmoqda. Mutaxassisni komponentligini aniqlovchi kriteriyalarni quyidagi kategoriyalarga bo'lish mumkin:

- instrumental komponentsiyalar;
- komunikativ komponententlik;
- tizimli komponententlik.

### **Modullarni ishlab chiqishda uchta asosiy komponentga e'tibor qaratish lozim:**

Modul spetsifikatsiyasi.

Modulning nazorat blokini ishlab chiqish.

Modulning o'quv materialini ishlab chiqish.

"Kimyoviy texnologiyaning maxsus boblari" fani o'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi o'quvchilarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega. O'quv materialining o'zlashtirilishiga mashg'ulotlar

paytida modulning amaliy ahamiyati qay darajada ochib ko'rsatilganligi, modul mazmunini boshqa modullar bilan bog'liqligi, shu modulni o'rganishdagi talabalarning bir xil xatoliklari tahlili muhim ahamiyatga ega.

**Masofaviy o'qitish.** Ilmiy texnik taraqqiyotning xususiyatlari mustaqil ishslash kunikma va malakalarini shakkantirish va uzlusiz, ijodiy bilimlarni egallashni talab qiladi. Bunday ta'lim xizmatlarini ko'rsatish istiqbolli, zamonaviy o'quv tizimlariga quyiladigan talablardan biridir. Masofaviy o'qitish – bu masofadan turib o'qitish, qaysiki o'quv mashg'ulotlarining barchasi yoki ko'p qismi telekommunikatsion va zamonaviy axborotlashtirish texnologiyalar assosida olib boriladi.

### **Masofaviy o'qitish, ayniqsa:**

-o'qitishning an'anaviy usullaridan foydalanish imkoniyatiga ega bulmagan, bu jarayon imkoniyatlarining chegaralanganligi tufayli o'qish va ishslashni birgalikda amalga oshira olmaydiganlar uchun;

-turg'un sharoitda o'qish imkoniyatlariga ega bulmagan, imkoniyatlari tibbiy shart-sharoitlar tufayli chegaralanganlar uchun;

-o'qituvchilar va boshka soha mutaxassislarining qayta tayyorlash va malakasini oshirishda;

-chet el o'quv muassasalarida ta'lim olishni istaydiganlar uchun;

-ikkinci mutaxassislikni egallashni istaydiganlar uchun juda dolzarb bo'lishi mumkin.

Istiqbolli zamonaviy o'qitish tizimlari har bir shaxsning o'zi istagan ta'lim olish huqiqidan foydalana olish imkoniyatini berishi kerak. Masofaviy o'qitish aynan shunday o'qitish shakli bo'la oladi.

Masofaviy o'qitish texnologiyasi bo'yicha barcha topshiriqlar masofadan turib bajariladi, imtihonlar esa oliv o'quv yurtida topshiriladi. Masofaviy o'qitish Yaponiya, Turkiya, Xitoy, Hindiston, Iraq, Koreya, Finlyandiya, Avstraliya va Rossiya rivojlanmoqda

Masofaviy o'qitish tizimida, xuddi an'anaviy o'qitish tizimidagidek, o'qitishning besh metodi qo'llaniladi: axborot – retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon, evristik va tadqiqot.

O'qitish vositalari quyidagilardan iborat: kitoblar (qog'oz va elektron shaklda); tizimdagagi o'quv materiallar; kopyuter o'quv tizimlari oddiy va multimedia variantda; audio o'quv axborotlari; video o'quv axborotlari; masofaviy laboratoriya amaliyotlar va virtual stendlar; trenajyorlar; uzoqdagi bilim bazalari; ekspert o'quv tizimidagi va geoaxborot tizimidagi didaktik materiallar. O'qitish vositalari - o'qitishning texnik vositalari: magnitofon, videomagnitofon, kinoproyektor, diaproyektor, kodoskop, videoproyektor, kompyuterlar orqali amalga oshiriladi.

Masofaviy o'qitishning o'ziga xos tamoyillari quyidagilardan iborat:

-interfaollik tamoyili

-bosholang'ich bilimlar tamoyili

-individuallik tamoyili

-identifikatsion tamoyil

-o'qitish reglamenti tamoyili.

-yangi axborot texnologiya vositalarini qo'llashning pedagogik maqsadliligi tamoyili

-ta'limning oshkoraliq va o'zgaruvchanligini ta'minlash tamoyili.

Masofaviy o'qitish tizimida kuyidagi ta'lim texnologiyalarini ishlatish mumkin:

video-ma'ruzalar; multimedia-ma'ruzalar va laboratoriya amaliyotlari; elektron va multimedia-darsliklari; kompyuter test tizimlar; imitatsiya modelari va kompyuter trenajyorlar; telekommunikatsiya vositalaridan foydalanuvchi konsultatsiya va testlar; videokonferensiyalar.

Ma'lumki, fan va texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko'plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomonidan, fan-texnikaning yangi soha va bo'limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differensiallashuvini ta'minlayotgan bo'lsa, ikkinchi tomonidan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda. Hozirgi vaqtida ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda qo'llash jahon taraqqiyotining global tendensiyasi hisoblanadi. Pedagogik innovatsiyalar ko'laming ortib borishi,

mamlakatda modernizatsiya jarayoni tez sur'atlar bilan rivojlanayotganayni davrda ta'lif sohasiga yangiliklarni tizimli ravishda kiritishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugun masafaviy ta'lifning yana bir turi «webinar» (1998 yilda bu termin muloqatga kiritildi) texnologiya vujudga keldi. Vebinar texnologiya o'qitishni web –texnologiya asosida interaktiv holda tashkil etishni nazarda tutadi. Bu texnologiya nafaqat tinglovchilarga axborotni yetkazadi balki, ular bilan muloqatga kirishish (og'zaki, yozma) imkonini yaratadi, ya'ni seminar ko'rinishida fikrlarni almashish, o'z fikrini bayon etish mumkin. Boshqacha qilib aytganda internet tarmog'i assosida tashkil etiluvchi ta'lif ham subyekt-subyekt paradigmasiga o'tmoqda.

Bugun barcha davlatlar ta'limga imkon qadar ko'p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi. Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg'otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta'lifning o'zi yangiliklarga boy bo'lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhit hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – pedagogik innovatika jadallik bilan rivojlanib bormoqda.

Innovatsion ta'lifning asosiy maqsadi ta'lif oluvchilarda kelajakkka mas'uliyat hissini va o'z-o'ziga ishonchni shakllantirishdir. Ilm-fan va ishlab chiqapishning jadal rivojlanishi jamiyatni iqticodiy tapaqqiy ettirish bilan bir qatopda ijtimoiy munosabatlar mazmunida ham tub o'zgapishlapning po'y berishiga zamin yapatmoqda. Shuningdek, iqtisodiy sohada bo'lgani singari ijtimoiy, shu jumladan, ta'lif sohasida ham texnologik yondashuvni tatbiq etishga katta ahamiyat qaratilmoqda.

“Pedagogik texnologiya – bu ta'lif shakllarini jadallashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va bilimlarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida va ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tatbiq etish va belgilashning izchil metodidir” (YUNESKO).

Pedagogik texnologiyaning ahamiyati avval o'zlashtipilgan nazapiy bilimlap bilan yangi o'zlashtipiladigan bilimlap opacida myctahkam bog'lanishlapning yuzaga kelishi bilan belgilanadi. Oliy ta'lif tizimida pedagogik texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirish maqsadida quyidagi metodik vazifalarni muvafaqiyatli hal etish lozim:

- professor-o'qituvchilar “interfaol metod”, “strategiya”, “texnologiya” kabi tushunchalarning ---mazmun-mohiyatini aniq tushunib olishlari lozim;
- 2) oliy ta'limda fanlarni o'qitish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishda metodik qoidalar va ko'rsatmalarga rioya qilinishi kerak. Bu esa ta'lif sifatining oshishiga xizmat qiladi;
- 3)pedagogika malaka oshirish tarmoq markazida “Ta'lif texnologiyalarini va pedagogik mahorat” modulini o'qitishda asosiy e'tiborni professor-o'qituvchilarni o'qitish jarayonini loyihalash va rejalashtira olish ko'nikma hamda malakalarini rivojlantirishga qaratish lozim;
- 4) fanlar bo'yicha ta'lif texnologiyalarini yaratishda xilma-xillik, ijodiylik, innovatsion yondashuvlarga asoslanish, bir qolipga tushib qolishdan saqlanish maqsadga muvofiq;
- 5) oliy ta'lif muassasalarida “Innovatsion markaz” faoliyatini yo'lga qo'yish, mazkur markaz kuch va imkoniyatlaridan professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish maqsadida foydalanish ehtiyoji mavjud.

**O'ZBEKISTON RYESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
QARSHI MUHANDISLIK – IQTISODIYOT INSTITUTI**

**«KIMYOVİY TEXNOLOGİYA» KAFEDRASI**

**"BOG'LANGAN AZOT TEXNOLOGİYASI"  
FANIDAN LABORATORİYA MASHG'ULOTLARI UCHUN**

**USLUBIY QO'LLANMA**

**QARSHI – 2023 yil**

Uslubiy qo'llanmada rudalarni boyitish usullari, sulfid rudasini flotasjon boyitish, nitroza usulida sulfat kislota olish, xlor va vodoroddan xlorid kislota olish, yelektrokimyoviy usulda metallarning olinishi, yelektrokimyoviy usulda nikel va xromli qoplamasini hosil qilish, xrom metalini olish, mineral xomashyolarga kislota ta'sir yettirib superfosfat olish va uning analizi, Gazli qaytaruvchilar yordamida metallarni olish, yog'ochni quruq haydash, yengil suyuqlanadigan shishalar tayyorlash, neft mahsulotlarining uchqunlanish va yonish Haroratlarini aniqlash bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilgan.

**Tuzuvchilar:**

**t.f.n. Z.T. Ro'zieva**

**Taqrizchilar:**

**t.f.n. dots.v.b. G.X.Jo'raeva**

**k.f.n., dots. L.S. Kamolov**

Mazkur uslubiy qo'llanma Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining 5522400 – kimyoviy texnologiya (ishlab chiqarish turlari bo'yicha), 5525100-Tabiiy ehergiya tashuvchilar va uglerodli materiallarni qayta ishslash kimyoviy texnologiyasi, 5522400- Noorganik moddalar va mineral o'g'itlar kimyoviy texnologiyasi va 5850100-atrof muhit muhofazasi bakalavr ta'lim yo'nalishlari 3-kurs talabalari uchun tuzilgan.

Ushbu uslubiy qo'llanma «Kimyoviy texnologiya» kafedrasi yig'ilishida (2010 yil «\_\_» \_\_\_\_ Bayonnomma №\_\_\_\_) Sanoat texnologiyasi fakultetining uslubiy komissiyasida (2010 yil «\_\_» \_\_\_\_ Bayonnomma №\_\_\_\_), QarMII uslubiy Kengashida (2010 yil «\_\_» \_\_\_\_ Bayonnomma №\_\_\_\_) kengashida tasdiqlangan.

### **Annotatsiya.**

Uslubiy qo'llanmada «Bog'langan azot texnologiyasi» fanini o'zlashtirayotganda o'r ganilishi lozim bo'lган bir qancha jarayonlarning bayoni berilgan: azot birikmalari, ammiakni oksidlab azot kislota olish, vodorod xloridni absorbtsiyalash, xlorid kislotasi olish, ammiakni oksidlash va nitrat kislotasi olish, sulfid rudalarini kuydirish va sulfat kislotasi olish, sırka kislotasining eterifikatsiyasi, gips asosida bog'lovchi maxsulotlar olish, metall va nometallarning korroziyaga chidamligini uranish, molibden kontsentratini kuydirish jaraenini uranish, molibden kuyindilaridan ammoniy paramolibdati olish maqsadida qayta ishslash kabilar.

Bu laboratoriya ishlarida ishning maqsadi, qisqacha nazariy ma'lumotlar, ishni bajarishga kerakli reaktivlar, buyumlar, jihozlar, laboratoriya qurilmasining tarkibiy qismlari, ishni bajarish tartiblari vaqanday adabiyotlardan foydalanish mumkinligi to'g'risida to'liq ma'lumotlar berilagn.

### **KIRISH**

«Bog'langan azot texnologiyasi» fanidan laboratoriya amaliyoti, talabalarning ma'ruzalar tinglab olgan bilimlarini yanada mustaxkamlaydi. Laboratoriya ishlarida tipik kimyoviy texnologik jarayonlar model qurilmalarda o'tkaziladi va ularda kimyoviy jaryonga xararot, tutashish muddati, hajmiy tezlik, komponentlar nisbati kabi bir qator faktorlarning ta'siri uraniladi. «Umumi kimyoviy texnologiya» fanidan laboratoriya amaliyotini o'tkazish davrida talabalar model qurilmalarda texnologik izlanishlar bilan shug'ullanish uchun yetarli bilim oladilar. Asosiy tipik kimyoviy texnologik jarayonlar – gomogen, geterogen va boshqa jarayonlar boradigan reaktorlar xalq xo'jaligida muhim axamiyatga ega bo'lган, ishlab chiqarishda ishlatilayotgan xaqiqiy reaktorlarga muqobillashtirilgan.

Talabalar, laboratoriya amaliyotini bajarishga kirishdan oldin, albatta, «Kimyoviy laboratoriya ishlaganda rioya qilinidigan texnika xavfsizligi qoidalari» bilan tanishib chiqishlari zarur va ular shundan keyingina amaliy ishlarga kirishishlari mumkin.

Xar bir laboratoriya ishida o'tkazilayotgan jarayon tug'risida, laboratoriya qurilmasi haqida va ishni olib borish tartibi tug'risida qisqacha ma'lumotlar berilgan.

Xar bir laboratoriya ishidagi jarayonlar haqida to'liqroq ma'lumotlarni ish oxirida tavsiya qilingan adabiyotlardan topish mumkin. Tajriba ishlarini tugatgandan sung, talaba hisob kitob ishlarini bajaradi va xisobot topshiradi.

Mazkur uslubiy ko'rsatma «Umumi kimyoviy texnologiya» fani uqitiladigan barcha mutaxasisliklarning bakalavriyat talabalariga mo'ljallangan.

**1 guruhgaga topshiriq.**

1.Ammiak olishda qanday xom ashylardan foydalaniladi?


**2. guruhgaga topshiriq**

2.Ammiakni olishda sanoatda va laboratoriyada qanday katalizatorlar ishlatiladi?

**3.guruhgaga topshiriq**

3.Bog'langan azot birikmali qanday reaktsiyalar orqali boradi?

Sanoatda sintetik ammiak azot va vodoroddan olinadi.



Bu reaktsiya oxirigacha bormaydi. Chunki dastlabki moddalar bilan mahsulot o'rtasida muvozanat yuzaga keladi. Le-SHatele printsipiga muvofiq ammiakning chiqishi bosimning oshishi bilan oshadi. Chunki reaktsiya hajm kamayishi bilan boradi. Reaktsiyani tezlatish uchun quydagi katalizatorlar ishlatiladi. Platina, temir va boshqa metallar. Sanoatda tarkibida ozroq aktivlashtiruvchilari bo'lgan (alyuminiy oksid, kaliy va boshqa metallar) kichik donali katalizatorlar ishlatiladi. Harorat 650-700 °C dan oshib ketsa katalizatorni ishdan chiqaradi. Oltingugurt va fosfor saqlagan birikmalar katalizatorni tezda zaxarlaydi. Shuning uchun azot–vodorod aralashmasi yaxshilab tozalanishi kerak. Suv bug'larini bo'lishi ham katalizatorni tezda ishdan chiqaradi. Ammo u orqali quruq azot–vodorod aralashmasini o'tkazsak katalizatorni qayta ishlatish mumkin.

Laboratoriya sharoitida reaktsiya atmosfera bosimida olib boriladi. Ammiakning chiqishi bor yo'g'i 0,4% ni tashkil qiladi. Buni borligini aniqlash uchun fenofatalin yoki Nesler reaktiv ihsatliladi.


**Ishdan maqsad:** ammiakning suvdagi eritmasini olish. Laboratoriya sharoitida ammiak olish bilan tanishish. Ammiakning chiqish miqdorini aniqlash.

### **Qurilma va jihozlar**

- 1.Chinni, kvarts yoki shisha trubka
- 2.Temir qirindilari, temir trubkalar bilan birgalikda
- 3.Elektr pechi
- 4.Termopara-pirometrik galvonometr bilan birgalikda
- 5.O'lchamli gazometr
- 6.Azot olish qurilmasi
- 7.Ikkita ishqor bilan yuvgich
- 8.Ammiakni ushlab qoluvchi qabulxona
- 9.O'lovchi trubkalar
- 10.Temir katalizator
- 11.Byuretka
- 12.0,01 n xlorid kislota eritmasi
- 13.Metiloranj eritmasi

### **Ishni bajarish tartibi**

Azot–vodorod aralashmasi. Havo to'yigan suv bug'lari qizib turgan trubka orqali o'tkazish natijasida hosil qilinadi. Trubka temir qirindisi bilan to'ldirilgan.



Suv bug'lari va kislorod  $\text{Fe}_3\text{O}_4$  bilan vodorod hosil qilinadi. Chiqib ketayotgan gaz gazlar aralashmasida azot vodorodning nisbati 1:3 bo'lishi uchun havo suv bug'lari bilan 80-85 °C da to'yintiriladi. Buning uchun gazometr 1 orqali havo yuvgich 2 dan o'tkaziladi. Yuvgich suvli hammomga 3 o'rnatilgan. Suv bug'lari kondentsiatsiyalamanmasligi uchun ulovchi trubka bilan bevosita tutashtirilgan. Bu trubka elektropech yoki gaz gorelkalari bilan 750-800 °C gacha qizdiriladi.

Gazometrqa asta sekin 0,5 l suv solinadi. Uning yuqori qismida qalam bilan belgi qo'yiladi. Trubkadan 8 azot-vodorod aralashmasini o'tkazish orqali ammiak olinadi. Trubka katalizator bilan to'ldirilgan. Katalizator asbes, bilan birga joylashtirilgan, ya'ni qizdirilayotgan qismi u bilan to'ldirilgan bo'lsin. Optimal harorat 450-480 °C termoparaga qarab turib haroratni rostlab turish kerak. Temir katalizatori temir uch oksididan tayyorlanadi. Temir oksidi kaliy nitrati alyuminiy va bariy eritmasi bilan bo'ktiriladi. Temir oksidining yuz qismiga ko'rsatilgan birikmalardan bir qism olinadi. So'ng temir aralashmasi quritiladi va kuydiriladi (700-800 °C). Nitratlar parchalanib ferritlar hosil bo'ladi. Masalan.  $\text{Ba}(\text{FeO}_2)_2$  olingen kukundan 20-30 g trubkaga joylashtirib 500-600 °S vodorod bilan qaytariladi. Katalizator sifatida oddiy kukunsimon temirni ham olish mumkin. Lekin uning aktivligi yuqoridagi usulda tayyorlangan katalizatordan bir necha marta kuchsiz. Ammiakni yuttirish uchun qabul qilgich ishlatiladi. U suv bilan to'ldirilgan bo'lib 2-3 tomchi metiloranj solingan eritmani 1-2 tomchi sirkal kislota solib nordonlashtirish kerak.

Ishni bajarishdan oldin qurilmaning germitekligi tekshiriladi. So'ng elektro pechni 5 750-800 °C gacha qizdiramiz va 1-2 pufakcha 1 s qilib havo jo'natamiz. Bu vaqtida suv hammomidagi suv qaynash haroratigacha qiziydi. Azot-vodorod aralashmasi 10 minut qo'yiladi. (havoni chiqarib yuborish uchun). Bundan keyin katalizatorli pech yoqiladi. 450-480 °C gacha qizigandan so'ng suv sathi o'lchanadi va ulagich ulanadi. Ko'rsatilgan haroratda 2 l havo qo'yiladi. Buni gazometrda ko'tarilgan suvning miqdori bilan o'lchanadi. Indikatorda sariq rangining paydo bo'lishi ammiak hosil bo'lganini bildiradi. Qabul qilgichni uzib pechni o'chiramiz. Azot-vodorod aralashmasini uzatishni davom ettiramiz. Buni 150-200 °C gacha davom ettiramiz. Katalizatorni oksidlanishini oldini olish uchun qurilma to'liq sovigandan so'ng buziladi. Katalizatorni kerakli haroratgacha sovitgandan so'ng ikkinchi pech o'chiriladi. Ammiak eritmasi qabul qilgichdan 100 ml kolbag'a quyiladi. Ustiga 2-3 tomchi metiloranj solinib 0,01 n xlorid kislota bilan indikatorni rangi o'zgarguncha titrlanadi.

Masalan: Gazometrdan 3,5 l havo yuborilgan havo tarkibida 78% azot bor deb 2,73 l azot olamiz kerakli haroratda havo tarkibida shuncha suv bug'i borki bu reaktsiya uchun vodorodning miqdori yetarli bo'lsin.  $2,73 \cdot 3q8,19$  l vodorod kerak. Aslida vodorod bir necha barobar kam yoki ko'p olinishi mumkin. So'ng sintezda ishtirok etgan azot va vodorod massasi hisoblanadi. Buning uchun Mendeleev-Klayperon tenglamasidan foydalaniladi.

$$m = \frac{pvM}{RT}$$

Bu yerda:

- gazning gramm massasi;
- R-atmosfera bosimi;
- V-litrdagi hajm;
- R-gaz doimiysi 0,082 ga teng
- T-absalyut temperatura;
- Mr-gazning molekulyar massasi.

Ammiakning chiqishi quydag'i tenglama orqali topiladi.

$$\frac{m_{NH_3} \cdot 100}{m_{N_2} + m_{H_2}}$$

$m_{NH_3}$  - ammiakning grammdagi massasi (titrlashda olingan);

$m_{N_2}$  - sintezgacha bo'lган azotning massasi;

$m_{H_2}$  - sintezgacha bo'lган vodorodning massasi.

Olingen natijalarining hisobi

Ammiak sintez qilish qurilmasini chizish va yozib qo'yish olingen natijalarni tablitsaga kiritish.

Olingen havoning miqdori (л)	Bosim (Па)	Temperatura (°C)	Gramdagi massasi (г)		Ammiakning chiqishi (%)
			Vodorod	Ammiak	

## TAJRIBA MASHG'ULOTLARINING TA'LIM TEXNOLOGIYASI

### 2-mavzu: AMMIAKNI OKSIDLASH VA NITRAT KISLOTASI OLİSH

#### 1. guruhg'a topshiriq.

1.Nitrat kislotasi olish uchun qanday xom-ashyolar kerak?

A) Azot, vodorod va suv bilan absorbsiyajab

V) Ammiakni oksidlab

G) Azot oksidlarini suvg'a yutdirib

#### 2. guruhg'a topshiriq

2.Ammiakni oksidlash uchun sanoatda va laboratoriya da qanday katalizatorlar ishlatalidi?

A) Vannadiy (V)- oksidi

V) Temir (III) – oksidi

G) Temir, platina

#### 3. guruhg'a topshiriq


3.Ammiakni oksidlash qanday reaktsiyalar orqali boradi?

- A)  $N_2 + 3H_2 = 2NH_3$   
 V)  $4 NH_3 + 4O_2 = 2N_2O + 6H_2O + Q$   
 $4 NH_3 + 3O_2 = 2N_2 + 6H_2O + Q$   
 G)  $2NO + O_2 = 2NO_2$   
 $2NO_2 + H_2O = HNO_3 + HNO_2 + Q$



### Nazariy ma'lumotlar.

Ammiakni azot oksidigacha oksidlash suyultirilgan nitrat kislotasi olishda I-bosqichdir. II-bosqich azot oksidini azot (II) oksidigacha oksidlash va uni suv bilan absorbtsiyalashdan iborat.

Ammiakni azot oksidigacha oksidlash quyidagi reaktsiya ko'rinishida boradi.



Ammiakni oksidlashda ushbu reaktsiya jarayonida, quyidagi qo'shimcha reaktsiyalar xam borishi mumkin.




Bu reaktsiyalar amalda oxirigacha boradi.

Agarda katalizator qo'llanmasa oksidlanish asosan (v) reaktsiya ko'rinishida boradi.

Sanoatda ammiakni NO gacha oksidlash uchun katalizator sifatida odatda platinaning bir oz palladiy va rodiy qo'shilgan qotishmasi sidirg'a to'r ko'rinishida ishlataladi. Bu to'rlar reaktor ichida qavat-qavat joylashgan bo'lib, uning orasidan ammiak va havo aralashmasi o'tkaziladi. Platina katalizatorlarida, juda oz vaqt birligida, yuqori darajada, ya'ni 95-98% gacha azot oksidi olish mumkin. Ammiakni azot oksidigacha oksidlanishi, sekundning o'n mingdan bir ulushiga vaqt oralig'ida, deyarli oxirigacha boradi. Bunday katalizatorlar uzoq muddat o'zining faollik xususiyatlarni saqlab turadi.



Hozirgi kunlarda platina bilan bir qatorda temir oksididan tayyorlangan katalizatorlar ham ishlatalmoqda.

Ammiakning oksidlanish tezligi nihoyatda katta bo'lib, eng tez boruvchi reaktsiyalar qatoriga kiradi. Platina katalizatorlarida optimal tutashuv vaqt 0,00006 - 0,0003 sekund, temir oksidida esa 0,01 sekundni tashkil qiladi. Optimal harorat esa  $700 - 900^{\circ}C$  dir. NO gazining hosil bo'lishi uchun dastlabki gaz aralashmasining tarkibi ham katta ahamiyatga ega. Bir mol ammiakni azot oksidigacha oksidlanishi uchun nazariy jihatdan 1,2 mol kislorod kerak bo'ladi. Azot oksidini hosil bo'lish darajasini oshirish uchun kislorod miqdori keragidan ortiqroq bo'lishi, ya'ni 1 hajm  $NH_3$  uchun 1,2-2,0 hajm  $O_2$  bo'lishi kerak. Kontakt qurilmasida katalizator ishtirokida  $800 - 900^{\circ}C$  haroratda asosan azot oksidi hosil bo'ladi. Chunki yuqori haroratda azotning kislorod bilan eng mustahkam birikmasi azot oksidi hisoblanadi. Kontakt qurilmasidan keyingi oksidlash idishida (12) gaz harorati pasayadi va azot oksidi azot (II) oksidigacha oksidlanadi.



Oksidlanish reaktsiyasi natijasida bir qator nitroz gazlari ( $N_2O_3$ ,  $NO$ ,  $N_2O$ ) ham hosil bo'ladi.

Nitrat kislatasining hosil bo'lishi esa, hosil bo'lgan asosiy mahsulot azot (II) oksidini suv bilan o'zaro ta'siriga asoslanadi.



Hosil bo'lgan nitrat kislotasi beqaror bo'lgani uchun quyidagicha parchalanadi.



Reaktsianing umumiyligi ko'rinishi esa,



ko'inishida bo'ladi. (d) reaktsiyasida ko'rsatilgan azot (II) oksidini nitrat kislotasiga aylanish darajasi nitrat kislotasining kontsentratsiyasiga, haroratga va gaz tarkibidagi azot (II) oksidining miqdoriga bog'liq.

Bu ish - laboratoriya model qurilmasida ammiakni katalitik oksidlاب, nitrat kislotasi olish jarayonini, nazorat qilish usullarini o'rganishga mo'ljallangan.


Tajriba utkazish uchun kerakli buyumlar, jihozlar va reaktivlar.

1. Laboratoriya qurilmasi.
2. Temir katolizatori.
3. Ammiak gazi.
4. Natriy ishqori eritmasi, 0,5N.
5. Erlenmeyer kolbasi.
6. Metil qizil indikatori.

#### Ishni bajarish tartibi:

Kontakt (tutashuv) qurilmasi ichiga katalizator to'ldirilgan kvarts quvurga (9) o'rnatilgan, elektr isitkichli, vertikal joylashgan, kvartsdan tayyorlangan pech (8) dan iborat. Qurilmani elektr bilan isitish, elektr tarmog'iga ulangan laboratoriya avtotransformatori (13) va ampermetr (14) yordamida boshqariladi. Tutashuv qurilmasidagi harorat termopara (11) yordamida o'chanadi va ko'rsatuvchi millivoltmetr yordamida nazorat qilinadi.

Kvarts qurvurchasiga (9) temir oksididan tayyorlangan katalizator joylashtiriladi va gaz aralashmasi ( $\text{NH}_3 + \text{O}_2$ ) tutashuv chegarasiga yuqorida pastga qarab beriladi. Hosil bo'lган mahsulot qurilma ostidagi oksidlovchi - gaz yig'uvchi idish (12) ga o'tadi.



Ammiak va havodan iborat bo'lган gaz aralashmasi quyidagicha tayyorlanadi:

Ammiak ballon (4) dan simobli reometr (5) orqali aralashtirgich (6) ga uzatiladi. Havo aralashtirgich (6) ga gazometr (2) dan reometr (3) orqali uzatiladi.

Gazometrdagi bosim yuqoriga joylashgan bosim baki (1) dan tushayotgan suv yordamida hosil qilinadi.

Ammiak va havodan iborat gaz aralashmasi aralashtirgich (6) dan va bufer idishi (7) dan o'tib, tutashuv qurilmasiga uzatiladi. Azot oksidlarini yuttrish uchun gaz tutashuv qurilmasidan chiqib, oksidlovchi idish orqali o'tib, ikkita ketma-ket ulangan, suv tuldirilgan absorbsiya kollonasi (15) ga keladi. Absorbsiyaga uchramagan gaz qoldiqlari atmosferaga chiqarib tashlanadi.

Tajriba o'tkazish uchun lozim bo'lgan 8-9 % ammiakli havo aralashmasi tayyorlash uchun oldindan graduirovka qilingan reometr (3) va (5) ular o'rnatilgan. Gaz aralashmasining umumiy hajmiy tezligi 200-600  $\text{sm}^3/\text{min}$  ga teng bo'lisliz kerak.

Gaz aralashmasi kerakli haroratgacha qizdirilgan tutashuv qurilmasiga ma'lum hajmiy tezlikda yuboriladi. Tajriba o'tkazilayotgan davrda tutashuv qurilmasidagi harorat va gaz oqish tezligini o'zgartirmay bir xil ushslash zarur. Ammiakni yuborish to'xtatilgandan so'ng, butun tizimni azot yoki havo bilan yuvish lozim.

Tajribalar natijasida olingan xulosalardan ammiakning oksidlanishini haroratga yoki tutashuv vaqtiga bog'likligini ko'rsatuvchi grafiklar chiziladi va optimal sharoitlari aniqlanadi.

Nitrat kislota hosil bo'lislining darajasini reaktsiyaga kirishayotgan dastlabki ammiak miqdoridan va hosil bo'lgan nitrat kislotasini NaOH bilan titrlab aniqlanadi.  $\rho = \frac{\text{zp.æk.} HNO_3}{\text{zp.æk.} NH_3} \bullet 100$

Bu yerda: zp.æk.  $HNO_3 + \Pi \bullet 0,0005 \bullet f$ ,

$\Pi + 0,5 \text{ N NaOH}$  ning titrlash uchun sarflangan miqdori.

$f + NaOH$  ning normalligini to'g'irlash koeffitsenti-faktori.

$$Y_{NH_3} - \frac{Y_{NH_3}}{\text{zp.æk.} NH_3} = \frac{Y_{NH_3}}{Y_{NH_3} / 22400}$$

reaktsiya uchun sarflangan ammiak miqdori, ml.

### NAZORAT SAVOLLARI

- 1.Nitrat kislotasi olish uchun qanday xom-ashyolar kerak?
- 2.Ammiakni oksidlash uchun sanoatda va laboratoriyada qanday katalizatorlar ishlataladi?
- 3.Ammiakni oksidlash qanday reaktsiyalar orqali boradi?
- 4.Ammiakni oksidlashda tutashuv harorati nechaga teng?
- 5.Ammiakni oksidlashda dastlabki gazlar nisbati qanday?
- 6.Nima uchun sanoatda ammiakni oksidlash jarayonida gazlar nisbati stexiometrik 1,25 o'rniga  $O_2$   $NH_3$  ş 1,8 - 2,1 gacha qilib olinadi?

### ADABIYOTLAR

- 1.Muxlenov I.P. Praktikum po obhey ximicheskoy texnologii. M:Vo'sshaya shkola, 1973.
2. Atroshenko V.I. Kurs texnologii svyazannogo azota M:L: Ximiya 1968.
3. Atroshenko V.I. Texnologiya svyazannogo azota M-L. Gosxim izd.